



O'lmas Umarbekov

# Oyning oltin o'rog'i



O'lmas Umarbekov

*Oyning  
oltin o'rog'i*

Hikoyalar

Uchinchi nashri



TOSHKENT  
«O'ZBEKISTON»  
2020

UO'K 821.512.133-3

KBK 84(50)'6

U 47


To'plab, nashrga tayyorlovchi:

*La'lixon IGAMOVA*

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, O'zbekiston xalq yozuvchisi, iste'dodli adib O'lmas Umarbekov o'nlab hikoyalari, qissalar, romanlar, dramatik asarlar mualifidir. U o'z asarlarida hamisha insonlardagi ma'naviy-axloqiy fazilatlarni ardoqlashga, ulug'lashga intilgan.

«Hikoyalari xazinasi» rukni ostida «Oyning oltin o'rog'i» kitobiga adibning eng sara hikoyalari jamlangan. Ushbu hikoyalarda turli xarakterdagi insonlarning taqdidi, kechinmalari, o'y-fikrlari, voqeа-hodisalar o'ziga xos san'atkorona tarzda tasvirlangan. Shu sababli bu hikoyalarni o'qish jarayonida o'quvchi goh o'yga toladi, goh qayg'uradi, gohida esa, o'zini ayni qahramonning o'rniqa qo'yib, bunday vaziyatda men nima qilgan bo'lardim, degan savolni o'z oldiga qo'yadi va yechimini axtaradi. Taqdim etilayotgan hikoyalarda o'sha davr ruhini saqlab qolish maqsadida shaharlar va ayrim atamalar nomi asliyatga asosan qoldirildi.

Mazkur hikoyalari to'plami barcha yoshdag'i kitobxon-larga mo'ljallangan bo'lib, kitob javoningizga eng yaxshi tuhfa bo'ladi, degan umiddamiz.



ISBN 978-9943-28-386-2

ТКНПР

© O'. Umarbekov, 2015, 2018, 2020

© «O'zbekiston» NMIU, 2015, 2018, 2020

## KO'K DAFTARNING SIRI

**B**u daftarni men to'qimachilarning madaniyat saroyi oldidagi xiyobondan topib oldim. Bolalarning qishqi ta'tili boshlangan payt edi. Shaharning barcha maydonlaridagi kabi to'qimachilar xiyobonida ham katta archa o'rnatilib, xilma-xil o'yinchoqlar bilan bezatilgan. Ertadan-kechgacha atrofidan bolalar arimaydi. Hatto, kechqurun ishdan qaytayotganimda ham, odam bo'yi keladigan Qorboboning ko'm-ko'k ko'zlariga, rango-rang chiroqlarga mahliyo bo'lib turgan bolalarni ko'raman.

Daftarni topib olgan kunim ham xiyobon gavjum edi. Bolalar bir-birlarini quvlashgan, osmonni boshlariga ko'targuday qichqirishgan... Faqat to'rt-besh yoshlari chamasidagi qizil qalpoq kiygan bir bolagina Qorboboning dam yonib, dam o'chib turgan ko'zlaridan ko'zini uzmasdi. Nega u mening diqqatimni o'ziga tortdi? Dum-dumaloq lo'ppi yuzimi, yo kichkina burni yonida yaltirab turgan yosh tomchisimi, bilmadim, hozir eslolmayman. Ammo unga ancha tikilib qoldim. Bola xuddi ertaklardagi Qorbobo muzlatib ketgan go'dakdek, turgan joyidan jilmasdi. Tim qora ko'zlar Qorboboda, ammo nazarimda, u Qorboboni ko'rmas, nimalarnidir o'ylardi. Bir mahal qalin lablari titrab ketdi va ovozi boricha:

– Opa! – deb qichqirib yubordi. – Qattasiz, opa?

– Sho'ttaman, nima qildi, nima?

Kimdir yugurib kelib, bolaning yuzidan «cho'lp» etib o'pdi.

– Nima qildi, nima?!



Bu o'n to'rt-o'n besh yoshlar chamasidagi qizcha edi. Egnida ko'k palto, boshida oyisining ro'moli bo'lса kerak, ikki uchini qo'ltig'idan o'tkazib, orqasiga bog'lab qo'yibdi.

- Sovqotdingmi? - so'radi qiz bolaning qo'llarini ishqalab.

- Oyimla qachon kelalla? - bola unga qaramasdi. - Sizdan so'ravotman, oyimla qachon kelalla?

- Boya ko'rib keldik-ku? Darrov sog'indingmi?

- Oyimla qachon kelalla devobman, oyimla?!

Bola ho'ngrab yig'lab yubordi. U yig'i aralash nimalarnidir gapirar, ammo nimaligini tushunib bo'lmasdi. Opasi ovutaman, deb qancha urinmasin, bola yig'idan tinmasdi. Qizchaga rahmim kelib ketdi. U nima qilishini bilmasdi. Sezib turibman, agar ukasining yig'isi yana bir-ikki minut cho'zilsa, o'zi ham qo'shib yig'laydigan. O'zimni tutib turolmadim. Archanı aylanib, ularning oldiga o'tdim.

- Ha-ha, akasi, nega yig'layapsan? - dedim bolanning boshiga qo'limni qo'yib. - Birov urdimi?

- Hech kim urgani yo'q, o'zi yig'lavotdi, - javob berdi qizcha menga bir qarab qo'yib.

- O'g'il bola ham yig'laydimi? Sen o'g'il bolamisan, yo qiz bolamisan?

- O'g'il bolaman... - dedi bola entikib.

- Oting nima?

- Ahad...

- O'-ho'... shunaqa chiroyli oting bor ekan-ku, yig'laysanmi? Ahadlar yig'lamaydi.

Bola menga ko'zini bir olaytirib qo'ydi, keyin tili bilan lablarini artib, opasiga o'girildi.

- Ketovuzami?

- Ketovuz, ketovuz, hozir ketovuz, yur.

Opa-uka qo'l ushlashib, xiyobonning chap tarafidagi to'rt qavatli bino tomon ketishdi. Anchagacha ularning orqasidan qarab, xayol surib qoldim. Ko'zlarim oldidan urush yillari ota-onasiz yetim qolgan bolalar, qahraton qishda oyoqyalang mакtabga, o'zlaridan ham katta sumka ko'tarib bozorga yugurgan qizchalar o'tdi. Hozir yaxshi esimda yo'q. Ammo Qorboboga xomush tikilib turgan bolaning qiyofasi hali-hali ko'z oldimdan ketmaydi. Nega u so'lg'in edi? Onasi qayerda? Nima uchun tengqurlarining chehrasidan kulgi arimaydi-ku, qizning ovozi dardli? Ming xil xayollarga borib, archa atrofidagi kumushrang skameykalardan biriga o'tirdim-da, endi papiros chekmoqchi bo'lgan edim, yonimda yotgan ko'k muqovali daftarga ko'zim tushib qoldi. Darrov uni olib, atrofimga qaradim: hech kim yo'q. Kim unutib qoldirdi ekan? Hayron bo'lib varaqlay boshladim. Eskirib, uchlari titilib ketgan daftarning muqovasiga chiroqli harflar bilan «Xolida» deb yozilgan. Ichi ham qandaydir yozuvlar bilan to'la. So'nggi bir varag'i bo'sh qolgan, xolos. Yuragimdag'i g'ashlikni yo'qotish o'yi bilan sekin o'qiy boshladim:

«Yettinchi sentabr.

Kecha Ruqiya opamlar dars paytida: «Hammanglar kundalik daftar tutsanqlar, yaxshi bo'lardi. Ko'rganbilganlaringizni, qilgan ishlaringizni yozib boradilalar dedilar. Hamma «Ura» deb chapak chalib yubordi, men ham chaldim. Uyga kelganimda darrov oyimlarga aytdim.

– Oyi-chi, oyi! Biz endi kundalik daftar tutamiz.

Oyimlar ham xursand bo'lib ketdilar.

– Kundalik tutadigan bo'lsang, katta bo'lib qolibsan. Mayli, tuta qol, – dedilar.



Choy ham ichmasdan shkafdan yangi daftar oldim, muqovasiga chiroyli qilib «Xolida» deb yozib qo'ydim. Keyin birinchi betini ochdim. Yuragim duk-duk ura boshladi. Nimani yozsam ekan? Ruqiya opamlar kun bo'yi nima qilsanglar, shuni yozinglar, degan edilar. Bugun nima qildim? Ertalab turib choy qo'ydim. Ahadni uyg'otib yuvintirdim, oyimlar har kuni dadamlarga go'sht qovurib beradilar. Bugun ham turishlari bilan ovqatga unnayotuvdilar, qarashib yubordim. Jahllari chiqdi. Meni deb o'qishdan kechga qolasan, choyingni ich, dedilar. Keyin peshonamdan o'pib qo'ydilar.

Maktabga ketayotganimda, dadamlar bilan xayr-lasha olmadim, uqlab yotgan edilar. Ichib kelsalar doim shunaqa, hammadan kech turadilar. Nega ichadilar-a? Aftilariga qarab bo'lmaydi, hamma yoqlari chang-tuproq. Hamma narsa ko'zlariga boshqacha ko'rindi. Kecha kechqurun kelganlarida Ahadni o'paman deb, qaynab turgan samovarga peshonasini bosib oldilar, lablari qip-qizarib pishib ketdi. Ahad yig'lab xum bo'ldi.

Maktabda ona tilidan yana «besh» oldim. Ruqiya opamlar yelkamga qoqib qo'ydilar. Yaxshi qizim, oppoq qizim, dedilar. Ular meni judayam yaxshi ko'radilar. Faqt menimas, yaxshi o'qiydiganlarning hammasini yaxshi ko'radilar.

Ha, eng zaruri esimdan chiqibdi. Ra'noning tobi yo'q. Uch kundan beri maktabga kelmaydi. Bugun o'qishdan chiqqanimizdan keyin Munira bilan borib ko'rib keldik. Qattiq isitmalabdi.

Shularni yozib o'tirgan edim, eshikdan dadamlarning tovushlari eshitilib qoldi. Nega baqiryaptilar?..»

O'qishga berilib ketib, kun allamahal bo'lib qol-ganini unutibman. Boyagina ko'k betini qoplab turgan son-sanoqsiz yulduzlar endi yo'q edi. Hammayoqni

quyuq tuman o'rab olgan, ikki qadam naridagi narsani ham ko'rib bo'lmaydi. Qorboboning faqat ko'zlarigina miltillab turibdi.

O'qishning iloji bo'lmedi. Daftarni mahkam ushlaganimcha uyg'a qaytdim. Oyim, bolalar mehmonxonada televizor ko'rib o'tirishgan ekan, sezdirmay xonamga o'tdim-u, eshikni ichidan qulflab, g'ijimlangan daftarni o'qishga tushdim.

«Sakkizinch sentabr.

Maktabdan kelsam, oyim ayvonda yig'lab o'tiribdilar. Boshlarida pushti ro'mollari. Shu ro'molni judayam yaxshi ko'radilar. Yaxshi ko'radilar-u, yolg'iz qolganlarida o'raydilar.

Meni ko'rib darrov o'rirlaridan turdilar, apil-tapil yoshlarni artib jilmaydilar, keyin qo'llimdan portfelimni oldilar.

– Kechga qolding? Qachondan beri choy qo'yib, poylab o'tiribman.

– Munira bilan gaplashib qoldik, – dedim jo'rttaga. Bo'lmasa o'zim o'qish tugashi bilan uyg'a chopgaman.

– Ukang uxlab yotibdi, taqir-tuqur qilma tag'in!

– Xo'p, – dedim-u, uyg'a kirdim.

Bechora oyim. Choy qo'ydim devdilar, qo'ymagan ekanlar, elektr choynak stol ustida turibdi. O'zim qo'yib yubordim.

– Voy, qaynamabdimi?! – dedilar yechinayotganimda kirib, keyin nimagadir qip-qizarib ketdilar.

– Hozir qaynab qoladi. Qornim ham uncha och emas, – dedim.

Nega oyim xafalar-a? Dadamlar kecha qattiq xafa qilganga o'xshaydilar. Rost-da, odam ham shunaqa qo'pol bo'ladimi?! Ilgari bunaqa emas edilar. Oyim kasal bo'lib, ikki oy kasalxonada yotib chiqdilar-u,



dadamlar o'zgardilar-qo'ydilar. Kecha bo'lsa og'izlaridan bodi kirib, shodi chiqdi, yozishga uyalaman.

Eshikdan kirishlari bilan:

- Men bu uyda kimman? Xo'jayinmanmi yo xizmatkormanmi? - dedilar oyimlarga o'dag'aylab.

- Nima bo'ldi? Nega bunday deyapsiz? - so'radilar oyim.

- «Nega bunday deyapsiz?...» Shu ham gap bo'l-dimi? - dadamlar xuddi Ahadga o'xshab lablarini cho'chchaytirdilar, derazadan ko'rib turibman. - Xotin degan er kelganda bunday kutib olmaydi. Men kelganda jo'rttaga o'zingni o'choqboshiga olib qochasan.

- Ovqatingizdan xabar olay devdim.

- Ovqat mish... Ahad qani? Ahadiy! Ahadichka!

Dadamlar oyimlarni itarib tashlab, uyga kirdilar. Meni ko'rib, to'xtab qoldilar.

- Salom, - dedim sekin.

- Ha, shu yerdamiding? - Nimanidir o'ylab jim qoldilar. Keyin o'qrayib tikildilar.

- Oyingga o'xshaysan. Narit tur. Ahad! Ahadidze! Qayoqdasiz, o'g'lim?

Ahad kelavermagach, divanga yonboshladilar.

- Ovqatingizni yeb oling, - oyim kirib stolga bir kosa lag'mon qo'ydilar.

Dadam indamadilar. Oyimlar, sen gapir, deganday, meni turtib qo'ydilar.

- Dada, oshingiz sovib qoldi, - dedim men.

- Yemayman, oying tayyorlagan ovqatni yemayman.

Shunday deb ko'rsatkich barmoqlarini peshonalariga bir-ikki marta urib qo'ydilar. Oyimlarning tishlari g'ijirlab ketdi. Xo'rsindilar, keyin sekin kosani ko'tarib, chiqib ketdilar. Men ham orqalaridan chiqdim. Ko'zlarida yosh yiltirardi.

– Qo'ying, oyi, yig'lamang, – dedim yenglaridan tortib.

Indamadilar.

– Bor, darsingni qil, – dedilar anchadan keyin va idish-tovoqlarni yuva boshladilar.

– Yig'lamaysizmi?

– Yo'q, yig'lamayman. Bor, xonangga kir.

Shu payt dadam chaqirib qoldilar. Oyim kosalarni shunday tog'oraga tashladilar-u, ichkariga otildilar. Eshik ochiq qoldi.

– Menga qara, senda gapim bor...

Bu – dadamlarning ovozlari edi. Biroq shundan keyin hech narsa demadilar. Oyimlarning ham ovozlari eshitilmadi. Qo'llarini ko'kraklariga qo'yib, stol yonida turgan bo'lsalar kerak. Dadamlarning jahllari chiqsa, doim shunaqa turadilar. Gapirolmay qoladilar. Tavba, muncha qo'rqedilar-a? Nima, axir, odam emasmilar? Mana, ikki oy bo'libdiki, yurish-turishlari g'alati. Birov eshikni qattiqroq taqillatsa ham cho'chib tushadilar. Dadamlar bilan iloji boricha gaplashmaslikka harakat qiladilar. Oralaridan nima gap o'tgan, bilmayman. Lekin gaplashsalar ham xuddi Ahadga o'xshab gaplashadilar, lablari titraydi, ko'zları olazarak bo'lib turadi. Ilgari bunaqa emas edilar. Doim kulib turardilar. Dadam bilan ikkovlari meni yetaklashib kinolarga, teatrlarga borishganda hammaning havasi kelardi. Qanchadan beri kinoga birga bormaymiz. Nuqlul uydarlar. Kechqurun bo'lsa, dadam kelganlaridan keyin ikkovlari xuddi mushuk-sichqonga o'xshab qolishadi. Shumshayib o'tirishgani o'tirishgan.

Mana, hozir dadamlar bir narsa demoqchilar-u, lekin aytolmayaptilar. Bu faqat bugun emas, bir necha kundan beri, to'g'rirog'i, oyim kasalxonadan chiq-qanlaridan beri shunday bo'lyapti. Nima demoqchi



ekanlar? Nahotki aytish shunchalik qiyin bo'lsa? Zavodda ishlari chatoqmi? Unday desa, yaqinda yaxshi ishlaganlari uchun mukofot oldilar-ku!

– Menga qara... – dedilar xo'rsinib. – Men... men... o'rnimni solib ber.

Oyim yelkalarini qisib, ichkari uyga kirib ketdilar. Bechora oyim! Xuddi yosh bolaga o'xshab qoldilar. Doktor kelganda: «Siz ko'p koyinmang, og'ir bo'ling. Qancha quvnoq bo'lsangiz, shuncha tez tu-zalib ketasiz», degan edi. Quvnoq bo'lish qayoqda, ko'zlaridan nuqlu yosh tomib turadi. Bugun ham shunday. Choy ichib bo'lganimizdan keyin, ancha o'z-lariga keldilar. Uy vazifalarimni so'radilar. O'qish darsida o'rgangan «Ona» she'rini o'qib berdim. Jilmayib qo'ydilar. Jilmaysalar biram chiroyli bo'lib ketadilar. Lip etib borib, yuzlaridagi chuqurchalardan o'pib oldim.

– Oyi, nega doim xafasiz? – dedim tizzalariga o'tirib. – Kasal bo'lganizgami?

– Ha, kasalni kim yaxshi ko'radi?

– Dadamlar-chi? Nega ular ham xafalar?

– Dadang ham kasal bo'lganimga xafa-da. Aytyapman-ku, kasalni kim yaxshi ko'radi.

– Nega bo'lmasa sizga jahl qiladilar?

– Xafa bo'lganidan jahl qiladi-da. Bunga sen e'tibor berma. Kattalarning ishiga aralashish yaxshi emas. Xo'pmi?

Men indamadim. Faqat:

– Oyi, bilasizmi, – dedim, – men sizni kasal bo'lsangiz ham yaxshi ko'raman, judayam yaxshi ko'raman.

– Menam!

Bu Ahad edi. Uyg'onib, eshikning tagida ko'zlarini ishqalab turardi. Oyim uning ovozini eshitib,



kulib yubordilar. Keyin ikkalamizni mahkam quchoqladilar....»

Men hayajondan o'rnimdan turolmay qoldim. O'n uch-o'n to'rt yoshdagi qizning so'zлari meni butkul sehrlab qo'ygan edi. O'zimni o'zga bir dunyoda his qila boshladim. Ko'z oldimda onasining qayg'u-hasratiga sherik bo'lgan nimjon qizcha, sochiga bevaqt oq oralagan so'lg'in bir ayol paydo bo'ldi. Kimlar ular? Qayerda yashaydi? Toshbag'ir ota kim? Bularning hammasi hali menga sir. Lekin, shubha yo'qki, ular qandaydir katta bir kulfatni o'z boshlaridan kechirmoqdalar. Shu kulfatdan ularning qanday qutulishlarini o'zimcha mulohaza qilib, ko'ngilni tinchitadigan bir xulosaga keldim-da, daftarni yana varaqlay boshladim. Lekin sahifadan sahifaga o'tar ekanman, vujudimni titroq bosa boshladi.

«O'ttizinchi sentabr.

Dadamdan uch kundan beri darak yo'q. Oyimlar bizni uxlatadilar-u, o'zлari mijja qoqmay chiqadilar. Dadam qayoqda qolishlari mumkin-a? Safarga ketganmikinlar? Ketgan bo'lсalar, nega bizga aytmadilar? Ahad yig'lagani yig'lagan. Yarim kechada turib olib «dada, dada», deydi. Oyim ikkalamiz uni ovutguncha o'lib bo'ldik. Biram dasasini yaxshi ko'radi... Men ham yaxshi ko'raman, lekin ular meni yaxshi ko'rmaydilar. Nuqlu, sen oyingning qizisan, deyaveradilar. Anavi kuni Ahadga tuqli olib kelib berdilar. Ahad qo'llaridan olishi bilan:

– Menga-chi? – deb yuboribman.

Bir o'qrayib berdilar. Indamay ichkari uyga kirib ketdim.

– Ko'zi yomon qizingni, – dedilar ketishim bilan oyimlarga.



– Mening qizim bo'lsa, sizning ham qizingiz, – oyim jahl bilan gapirdilar. Ularning dadamlar bilan bиринчи мarta shunday gaplashishlari edi. – Ko'chadan olib kelganim yo'q. Qancha urishsangiz meni urishing, bolada nima gunoh? Qovog'ingizdan qor yog'ilib kelganda, ko'zlarini javdiratib pinjimga kirishimi? Bilmadim, shu bola bo'lmasa, holim nima kechardi.

Men, hozir dadam oyimlarni uradilar, deb qo'rqiб turuvdim, yo'q urmadilar. Qo'rqqan bo'lsalar kerakda. Oyimlar juda qattiq gapirdilar. Mana, uch kundan beri dadam yo'qlar. Shu uch kunning ichida oyim cho'p bo'lib qoldilar».

«Ikkinchи oktabr.

Kecha oyim zavodga borib keldilar. U yerda ham yo'qmishlar. Ishxonasidagilar, kasal bo'lib qolgan bo'lsa kerak, deb o'ylashgan ekan. Uyda yo'qliklarini bilib, hayron bo'lib qolishibdi.

Oyim bilan anchagacha bir-birimizga qarab o'tirdik. Ovqat qilish ham esimizdan chiqib ketibdi. Choy qo'yib yubordim. To'rtta tuxumni samovar ichiga solib qo'ydim. Doktor oyimlarga yaxshi ovqatlanishni buyurgan. Men zo'r lamasam, o'zlariga qaramaydilar.

Uyga berilgan masalani yecholmadim. Vaqt bo'lindi. Ahad bilan qolsam, hech narsa qilolmayman. Ertaga Ruqiya opamlarga nima deyman?»

«Uchinchi oktabr.

Mendan so'ramadilar. Oldimga kelib, negadir peshonamdan o'pib qo'ydilar. Uyga kelsam, oyim yo'qlar. Hovlining o'rtasida Ahad yig'lab o'tiribdi. Ovutib, uyga olib kirdim. Divanda bir xat yotibdi. Oyim qayoqqa ketdiykinlar? Xatni o'qiy boshladim. Bu – dadamdan edi.

«Meni qidirmanglar. Qaytib bormayman. Mavjud, meni tushun. Og'ir kasallikka umrbod mubtalo bo'lgan



kishi bilan hayot qurish uchun senga uylanganim yo'q. Bolalar bo'lsa, bolalarga munosabatimni o'zing bilasan, o'rashib olganimdan keyin Ahadni olib ketishim mumkin».

Yig'lab yubordim. Meni ko'rib, Ahad ham yig'ladi. Ikkalamiz baravar yig'ladik. Keyin nima bo'lganini bilmayman. Bir mahal qarasam karavotda yotibman. Tepamda Ruqiya opam bilan qo'shnimiz Xayri opalar o'tirishibdi. Ahad xurrak otib uxlab yotibdi.

– Oyimlar qanilar? – deb so'radim.  
– Shu yerda, hozir keladi, – javob berdilar Xayri opam Ruqiya opamlarga qarab turib. – Poliklinikaga ketgan.

– Bu yoqqa chiqaylik, sen ham o'rningdan tur, – dedilar shunda Ruqiya opamlar.

Hammamiz avvonga chiqdik. Ruqiya opamlar meni imladilar.

– O'tir, gap bor.  
Yuragim uvushib qoldi. Nima gap ekan? Ishqilib, oyim tuzuk bo'lsinlar-da!

– Xavotir olma. Oying tuzuk, – dedilar Ruqiya opam, keyin o'ylanib qoldilar. – Menga qara, – dedilar anchadan so'ng. – Sen katta qizsan. Hamma narsaga aqling yetadi. Gaplarimni yaxshilab tushunib ol. Oying... Oying kasalxonada... Bir oycha yotsa kerak. Uy boshlig'i endi o'zingsan. Og'ir bo'l. Men kelib turaman, mana Xayri opang ham shu yerdalar, xabar olib turadilar. Yig'lamaysanmi?

Men «yo'q» dedim-u, uydan chopib chiqib ketdim. Hujraga bekinib olib, rosa yig'ladim. Ruqiya opamlar ham, Xayri opamlar ham meni qidirishmadid. Anchadan keyin uyga kirsam, ikkovlari Ahad bilan o'ynab o'tirishibdi. Ruqiya opam meni ko'rib jilmaydilar. Men ham...»

Kundalik shu yerda tugagan edi. Daftarning so'ngi betlariga hech narsa yozilmagan. Faqat oxirida qalam bilan ilova qilingan kichkina jumla bor edi, xolos.

«Sakkizinchı yanvar.

Oyim ancha tuzuklar. Ruqiya opamlar bugun ham bizni oldilariga olib bordilar. Bizlarni ko'rib, oyimning ko'zlaridan yosh chiqib ketdi. Yaqinda chiqaman, dedilar. Ancha gaplashib o'tirdik. Dadamlarni so'ramadim. Nima qilaman so'rab? O'zлari qiynalib yotibdilar-ku. Ahad lunjini to'ldirib «dada» demoqchi bo'lib turuvdi, chimchilab oldim. Lekin unga qiyin bo'ldi. Nuqul yig'laydi. Dadam bo'lganlarida yig'lamasdi. Qayerda ekanlar-a, hozir?»

Kundalikni yopib qo'yib ancha o'ylanib qoldim. Miyamda ming xil fikr. Sahifalardagi qayg'uli satrlar vujudimni hayajonga soldi. Darchani qiya ochib, cheka boshladim. Tashqarida yomg'ir shivalamoqda. Chiroq nurida bir-ikki qor uchqunlari xuddi ko'zmunchoq-day yaltirab ko'rindi. Bu uchqunlar archa yonida boyamen ko'rgan qizcha va uning ukasini eslatib yubordi. Ha, o'sha qiz shu kundalik muallifi Xolida edi. Bunga hech shubha yo'q. Nima qilish kerak? Ularga qanday qilib yordam bersa bo'ladi. Bemehr otani topish kerakmi, yo'qmi?

Ertalab ham shu xayollardan bo'shay olmadim. Nari-beri nonushta qilib, to'g'ri tuman maorif bo'limiga bordim-da, Ruqiya opaning qaysi maktabda ishlashini surishtirdim. U o'zimizning tumandagi qirqinchi maktabda ishlar ekan. O'sha yoqqa yugurdim. Ruqiya opa o'rta yoshlardagi xushtabiat ayol ekan. Daftarni uzatdim.

- Kechirasiz, - dedim uning o'zgarib ketganini ko'rib. - O'qib chiqdim. O'quvchingiz juda jiddiy qiz ekan.



– Ha, Xolida tez katta bo'ldi, – dedi Ruqiya opa jiddiy ohangda. – Otasi...

– Hozir qayerda u odam?

– Hech kim bilmaydi, – Ruqiya opa biroz jim qoldi. Keyin qo'lini bir siltadi-da, gapida davom etdi. – To'g'risini aytsam, hech kim bilishni istamaydi ham. Bunday odamning bo'lganidan bo'limgani ma'-qul. Shunday emasmi?

Men bosh silkib qo'ydim.

– Xotinining kasalligi uchun ketib qolishi, o'zining tinchligi deb bolalaridan, oilasidan yuz o'girishi – o'taketgan tubanlik.

– Mavjudaxon hozir tuzukmilar?

– Ha, kecha borib keldik. Yaqinda chiqib qoladi.

\* \* \*

Oradan bir haftacha o'tgan bo'lsa kerak, shanba kuni edi. Ishdan qaytayotib, To'qimachilar xiyobonida ayol kishining:

– Ahadjon! – degan ovozini eshitib qoldim.

Yalt etib fontan tomonga qaradim. Ikki kishi Qorboboni olib tashlashayotgan ekan. Katta-kichik bolalar qiy-chuv qilib turishibdi. Oldingi qatorda o'sha men ko'rgan Ahad ham bor edi. U ikki ko'zini qiyshayib turgan Qorbobodan uzmasdi. Bir mahal kimdir kelib qo'lidan tortdi. Bu Xolida edi. Opa-uka yetaklashib, bolalar orasidan chiqishdi-da, katta sada tagidagi skameykada o'tirgan ikkita ayol oldiga borishdi. Ularning bittasi Ruqiya opa, ikkinchisi esa, Mavjudaxon edi. Uni pushti ro'molidan tanidim. Yuragimni tasvirlab bo'lmaydigan quvonch tuyg'usi qoplab oldi. Bitta-bitta qadam tashlab borar ekanman, rangi so'lg'in, lekin lablarida, yuzida tabassum porlab turgan ayoldan – Mavjudaxondan ko'zimni uzolmasdim.



## MENING O'G'IL BOLA JIYANIM

**U**ni birinchi marta sakkiz yilcha burun ko'rdim. Hali chilla kirmagan yoz kunlarining biri edi. Nonushtadan so'ng odatim bo'yicha o'z xonamga o'tib, yozuv stoli yoniga endi o'tiray, deb turganimda, temir darvozamizni kimdir taqillatib qoldi.

- Hozir! - hovliga tushib ovoz berdim.

Ammo taqillatayotgan odam eshitmadи shekilli, darvoza momoqaldiroqdek gumburlab ketdi.

- Hozir, hozir! - qichqirdim yana ovozim boricha va shoshib ko'cha tomon yurdim.

Darvoza eshigini ochgunimcha ming xil xayol miyamni g'alvir qilib yubordi. Ammo Xudoga shukurki, tinchlik edi. Ro'paramda qarg'a nusxa atlas ko'ylak kiygan, qalin qora sochlari ikkita qilib o'rilgan, qip-qizil kulcha yuz bir qiz iljayib turardi. Uning oppoq, tekis tishlari, dumaloq qora ko'zlari – kinnidir eslatdi, ammo bilolmadim. Qiz bir qo'liga semiz brezent chemodan, ikkinchi qo'liga usti sarg'ish doka bilan tang'ib qo'yilgan katta oq chelak ko'tarib olgandi.

- Mani tanimadingiz-a, tog'a? - Qiz og'zini katta ochib jilmaydi. Oppoq tishlari yaraqlab ketdi. Kim bo'ldi ekan? Qaysi jiyanim bo'ldi u? Ammo u o'ylagani qo'ymadi, o'zi javob berib qo'yaqoldi. - Man parkatli Muqaddam opayizzi qizi bo'laman. O'g'iloy. Assalomu alaykum!

Uni tanib, alik olib ulgurmasimdan qo'lidagi yuklarini qo'yib, yelkalarimni quchoqladi, ikkala yuzimdan cho'lpillatib o'pdi. Shunda uni tanidim. To'g'rirog'i, onasini tanidim. Muqaddam opa mendan besh-olti yosh katta edi, bolaligimizda yonma-yon hovlida o'sgan edik. U oyimning tug'ishgan akasi, rahmatli G'ani tog'amning qizi edi. O'zidan kichiklarni, shu jumladan meni uzoq ko'rmasa, yo mehri qo'zib

ketsa, shunday quchoqlab, cho'lpillatib o'pardi. Dilim yorishib, xursand bo'lib ketdim.

– Uydagilar, oying qalay? – mehr bilan unga yangidan tikildim.

– Salom deb yubordilar! – O'g'iloy birdan engashib, oyog'idagi baland poshna qora tuflisini yecha boshladi va pastdan ko'zlarini menga tikib jilmaydi.

– Ezvordi oyog'imni!.. Uyga kirovuzmi?

– Aytgandek... yur, yur! – yo'lni bo'shatib, o'zimni chetga oldim.

– Yordamlashvoraymi?

– O'zim!..

O'g'iloy tuflisini qo'ltig'iga qistirib, chemodan bilan chelakni qo'llariga oldi-da, ichkariga kirdi.

Ayvonga ko'tarilganimizda, u chemodanni qoldirib, chelakni oshxonaga olib borib qo'ydi.

– Qatiq, – dedi qaytib chiqqanida. – Atayin sizga atab solganman kecha. Shu yerda o'tiravuzmi?

U ayvondagi stol, stillarga razm solib chiqdi-da, bitta stulni surib o'tirdi. Men ham ro'parasiga o'tirdim.

– Qani omin! – u qo'llarini yozib, baland ko'tardi. – Qadam yetdi balo yetmasin! Ollohu akbar!

Beixtiyor unga qo'shilib, qo'llarimni yuzimga tortdim. Choy qo'ymoqchi bo'lib o'rnimdan turmoqchi edim, u to'xtatdi.

– Man o'zim!

U chemodanini ochib, ichidan to'rtta qip-qizil barkashdek-barkashdek non oldi.

– Ertalab yopganmiz. Shunaqa nonni yaxshi ko'-rarkansiz. Oyim aytdilar.

U nonlarni stolga qo'yib oshxonaga o'tdi. Choy qo'yib chiqib, yana chemodaniga engashdi.

– Qurt ham olib kelganman. Yog'lik. Qo'yning sutidan.



U bir sellofan xalta qurt olib oshxonaga o'tdi-da, taqsimchaga to'ldirib solib chiqdi.

– Oling.

Men unga mahliyo bo'lib qolgan edim. Uning harakatlari, ovozi onasining yoshligini ko'z oldimga keltirdi. «Muqatopa»ni bolaligimdan yaxshi ko'rardim, qarindoshlarim ichida faqat u bilan ko'proq o'ynagim, uning yonida ko'proq bo'lgin kelardi. Qizlar tez o'sadi. U ham birpasda katta bo'lib qoldi. Uzatishib, Parkentga jo'natishayotganida uydan qochib ketganim esimda. Yarim kechagacha jimjit ko'chalarda aylanib yig'laganman.

Uning eri O'rozbek pochchamiz mo'min, qobil, mehnatkash, buning ustiga mehr-oqibatli odam chiqdi. Hozirgi men turgan uyni ko'tarishda uning ancha mehnati singgan. Er-xotinning bir-birlaridan, umuman, turmushlaridan ko'ngillari to'q bo'lsa ham bitta orzulari ushalmay qoldi. O'gil ko'rishmadi. Muqaddam opa ketma-ket ikkita qiz ko'rdi. Ikkalovi ham bola-chaqali bo'lib ketishgan. Parkentda turishadi. Uchinchi farzandlarini folbin o'g'il bo'ladi deb ishontirgan. Ammo u ham qiz tug'ildi. O'gil bo'lmasa ham o'g'ildek bo'lsin deb, otini O'g'iloy qo'yishdi. Uni ko'rmagan edim, ko'rgan bo'lsam ham e'tibor bermagan edim. U tengi bolalar urug'imizda ko'p edi. Xushbichim, baland bo'y, katta qiz bo'lib ketibdi...

O'g'iloy baquvvat qo'llari bilan non sindirar ekan, qarab turganimni o'zicha tushundi.

– Oyim juda yaxshi non yopadilar!..

– Oyingning qo'li gul, – qo'shildim unga bir burda nonni og'zimga solar ekanman. Ammo ko'zim uning chaqqon harakatlarida, xuddi shu non rangidek yuzida, tiniq, toza nigohida edi.



– Men endi sizlarnikida turaman, – dedi u o'ziga ham choy quyib o'tirar ekan.

Uyda joy yetarli bo'lsa ham hayron bo'lib, unga qaradim.

– O'qishga kiraman. Oyim ja bo'lmasa san o'qi, devottila.

– To'g'ri aytibdi oying. Qayoqqa kirmoqchisan?

– Qayoqqa olib kirib qo'ysangiz, shuyoqqa!

Choy xo'plab turgan edim, qalqib ketdim.

– Qayoqqa olib kirib qo'yasiz, tog'a? – so'radi o'ylatgani qo'ymay.

Haqiqatan uni qayoqqa joylayman endi? Joylay olarmikanman o'zi? Hech bunday ishlar bilan shug'ullanmagan edim. Qayoqdan kelaqoldi bu tashvish?

– Kennoying kelsin, maslahat qilarmiz...

Mujmal javob qilganimni, ruhim tushib ketganini ko'rib, u kulib qo'ydi. Sezdim. Keyin meni ayadi shekilli, jiddiylashib institut masalasiga o'zi chek qo'ydi.

– Hisob-kitobga tuzukman, matematikadan bitiruv imtihonini hammadan oldin yozib chiqdim. Besh oldim. Narxzog'a kirmsam deb turibman. Tanishlaringiz bo'lsa yordam berarsiz. Kirolmasam, qaytib ketaman, ishlayman.

Yelkamdan tog' ag'darilganday bo'ldi.

– Yotoqni o'ylama. Uyda joy ko'p. Turaverasan. Kennoying ham xursand bo'ladi, – dedim anchagini o'zimga kelib. – Tanishlarni bo'lsa... qidiramiz. Birorta tanishning tanishi chiqib qolar.

Institutga joylab qo'yishdek murakkab javob-garlikdan meni xalos qilgani uchun g'oyibdan paydo bo'lgan va birpasda uyni o'ziniki qilib olgan jiyanimdan o'zimda yo'q xursand bo'lib ketdim va iloji boricha unga yordam berishga ahd qildim.

Peshinga yaqin xotinim ishdan qaytdi. O'g'iloy sodda, bag'ri keng kelinoyisining ichiga kirib ketdi.



Qatiq suzib olib keldi, choy qo'ydi. Ko'p o'tmay hovlidagi o'choq boshidan piyoz dog'ining hidi kela boshladi. Kechqurun yotayotganimizda xotinin mendan ham ziyod quvonib, uni maqtadi.

- Jiyaningiz xo'p ajoyib qiz ekan. Men ham unnay, kiritib qo'yaylik institutga. Keyin yotoqxona qilib nima qiladi? Biznikida turaversin.

O'g'iloy uyimizda tug'ilib o'sgan odamdek bo'lib ketdi. Ertalab hammadan oldin turib, hovliga qaraydi. Choy qo'yadi. O'choq boshida g'imirlab, qatlamami, quymoqmi, uyda nima bo'lsa, shundan biror narsa pishirib keladi. Keyin shaharga ketadi. Tushga yaqin qaytib, bir-ikki soat uyda bo'ladi. Unga kutubxonani ajratib bergen edik. Sezdim, kitobga uncha xushi yo'q, lekin menga yaxshi ko'rinish uchun bironta kitobni ko'tarib, mening xonamga kirardi. Birpas xonaga, mening moshinkada ishlashimga razm solib o'tirardi. Keyin yana shaharga ketardi. Shomga yaqin qaytardi. Katta qiz, qayoqlarda yurganini men ham, kelinoyisi ham surishtirmadik. Men bilan ko'proq erkinlik, xotin-qizlar ozodligi, muhabbat, vafo haqida gaplashishni, shu mavzularda meni gapirtirishni yaxshi ko'rardi. Qanday siri, maqsadi borligini bilmay, men uning savollariga to'g'ri, o'zim o'ylagandek, bilgandek javob berardim, u xursand bo'lib, ba'zida peshonamdan cho'lpillatib o'pib, chiqib ketardi. Keyinchalik, oradan chamasi ikki oy o'tgach, bu suhbatlar, savollarning asl sababini bildim. Shayton qizning ichida qurt bor ekan, sezmagan ekanman.

- Tog'a, kennoyimga qanday uylangansiz? - deb so'rab qoldi bir kuni.

Bor gapni aytib berdim. Birga o'qiganmiz universitetda, bitta fakultetda, bitta bo'limda. Birinchi kursdayoq bir-birimizga yoqib qolganmiz. O'qishni bitirgach, to'y qilganmiz, dedim.



O'g'iloy jim, gapimni bo'lmay eshitdi. Tamom qilganimdan keyin so'radi:

- Shundoq ko'rgansiz-u, birinchi marta, yaxshi ko'rib qolganmisiz? Yo sekin-sekin, o'rganib yaxshi ko'rganmisiz?

- Buni bilmadim, - rostini aytdim. - Har holda, Sharifa boshqa qizlarga qaraganda ko'proq yoqardi. Birinchi ko'rganimdayoq unga mehrim tushgan edi.

- Kennoyim-chi?

- Buni o'zidan so'ra. To'xta, senga buning nima keragi bor? Nega qiziqib qolding?

U oppoq tishlarini tizib jilmaydi.

- Kitoblarda boshizdan o'tgan narsalarni yozganmisiz, yo ichizdan chiqarib yozganmisiz, shuni bilmoqchiydim.

- Kitobda hammasidan bor. Rosti ham, yolg'oni ham. Bo'lgani ham, to'qigani ham. Sen bu gaplarni qo'yib, imtihonlaringga tayyorlan. Dars qilganining ko'rmayman.

Kap-katta odam, tag'in qarindosh bo'lgan qiz bola bilan sevgi haqida gaplashib o'tirganimdan andishaga borib, uni o'zimcha urishgan bo'ldim. O'g'iloy e'tibor bermadi, jilmayganicha o'tirdi. Ammo anglab qoldim, u menga qarab turgan bo'lsa ham meni ko'rmasdi, gaplarimni eshitmasdi. Xayoli qandaydir o'zigagina ma'lum bo'lgan boshqa bir olamda edi. O'shanda agar u nimalarni o'ylayotganini, meni nega sevgi mavzularida imtihon qilayotganini bilganimda, qayerlarda kimlar bilan yurganini hech bo'lmasa faraz qilganimda, kim biladi, uning hayoti hozirgidek emas, boshqacha, tinchroq, quvonchliroq bo'larmidi?! Nima deyish mumkin? Taqdir, xalq ta'biri bilan aytganda, peshonaga yozilgani bo'ladi.

O'g'iloy tanish-bilish topilgani, ularning bergan

va'dalariga qaramay, o'qishga kirolmadi. Ammo xunob bo'lganini sezmadim. Shundan keyin ikki kun ham o'tgani yo'q, nima ish bilandir ko'chaga chiqib qaytsam, ayvondagi televizor ustida to'rt buklog'lik bir xat turibdi. Ochib o'qidim. Xat O'g'iloydan edi.

«Tog'a! Bugun kechqurun, umuman, bundan keyin kelmasam, xavotirlanmang. O'qishga kirolmaganidan uncha xafa emasman. Bitta men emas, meni sevgan yigit, Botirali ham kirolmadi. Uni atayin yiqtishdi. Chunki uning hech kimi yo'q. Yokim berishga puli ham yo'q. Men u bilan uning yurtiga ketayapman. Men ham uni sevaman. Birinchi ko'rganimdayoq sevib qolganman. U ham shunday, ikkalamiz uning shahridagi institutga harakat qilib ko'ramiz. Hali vaqt bor ekan. Ularnikida turaman. To'g'rirog'i, kelin bo'lib tushaman. Ota-onasi rozi, bizni kutishyapti. Qarang, shunday odamlar bor ekan! Men oyimdan xafa emasman. Dadamlardan ham. Chunki oyim nima desalar, shu bo'ladi. Uyning kattasi oyim. Hayronman, nega Botiralini chiqishtirmadilar? Uch-to'rt marta uyga olib borganman, turli bahonalar bilan.

Bu albatta shunchaki, yo'liga. Aslida ammamning kichik o'g'li u kishiga yoqadi. Do'konchi. Men bo'lsam undan jirkanaman. Ingichka mo'ylovi, yashil shalvari, kalta charm kamzulini ko'rishim bilan ko'nglim ayniydi. Uydan ket, dedilar oyim. Hamma gap alamda. Eshitganman, dadamlarga o'z xohishlari bilan tegmaganlar. Meni ham o'zlaridek qilmoqchilar. Yo'q, qilolmaydilar. Siznikida turganimni bilardilar. Bir marta ham kelmadilar. Dadamlarni ham yubormadilar. Kelinoyimdan uyalib ketdim. Tog'a, ajoyib xotiningiz bor ekan. Men ham Botiralini kaftimda ko'tarib yuraman. Meni qidirmanglar. Ozgina vaqt o'tsin, yilmi, ikki yilmi, o'zim chaqalog'imni ko'tarib, Botiralini oldimga solib, uyingizga kirib boraman. Sizga, kelinoyimga



yoqqan qatlamalardan qilib beraman. Uyimdagilar kelib qolishsa mabodo, hammasini aytib beravering. Xatimni ko'rsatsangiz ham mayli. Nahotki oyim u kishining farzandi ekanimni tushunmasalar? Bir og'iz gaplari. Ket, dedilar. Indamay ketdim. Lekin qaytaman. Ulardan hech qachon voz kechmayman. Faqat o'z niyatimga yetib qaytaman. Botirali bilan ikkalamiz bir-birimizni bir ko'rishdayoq sevib qoldik, dedim. Gapim rost. Kurashdan viloyatlararo musobaqa ketylotgan edi. Botirali bizning maktabdan chiqqanlarining hammasini yiqitdi. To'rtta yigit chiqishuvdi. O'shanda ko'zimga olovday ko'rinish ketdi. Kim bor yana, deb so'raganda, men o'rtaga chiqdim. Unchamuncha kurash tushib yuraman. Shim, to'n kiyib borgan edim. Belimni qiyiq bilan mahkam bog'ladim. Maktabdagilar meni yaxshi bilishadi. Aytganimni qilaman. Qaytarishmadi. Fizkultura o'qituvchimiz ham indamadi, faqat yonimga kelib, sekin, o'zingni urintirma, har holda qiz bolasan, dedi. Botirali bo'lsa bir chekkada iljayib, menga qarab turibdi. Ikki qo'li belida. Shu qarashini bir ko'rsangiz edi! Go'yo u kishi sher-u, bizlar oyoqlari ostida o'rmalab yurgan qumursqa! Kurash tushayotganda bo'sh joyini bilib olganman, yerdan dast ko'tarib olish kerak uni. Raqibi ko'tarib olaman deganda, butun og'irligini tizzalariga solib, cho'kkalaydi. Shu bilan qutulib qoladi. Jussasiga qarab ko'tarib olishimga ko'zim yetdi. Maydonga tushganimda anchagacha u mendan tisarilib yurdi. Belimdan olgani uyaldi. Tirsaklarimdan ushslashga intiladi, qiyiqqa tegmaydi. Maydonni ikki-uch aylanib chiqdik. Uning lanjlik qilayotganini ko'rib, odamlar mazax qilaboshlashdi. Ayniqsa, bizning maktabdagilar «Ol, O'g'ilpolvon! Belidan ol!» – deb meni gij-gijlatisha



boshlashdi. Gij-gijlatishmasa ham qarorim qat'iy edi. Ammo Botirali tutqich bermay, tirsaklarimdan itaradi, o'ziga yaqinlashtirmaydi. Maydonni yangitdan aylanayotganimizda hiyla ishlatdim. Kulib turgan ko'zlariga kulib qaradim-da:

– Burningizni artib oling, yaxshi yigit! – dedim.

U shoshib qo'llarimni qo'yib yubordi. Shu tobda mahkam unga yopishdim, dast ko'tarib, yerga tashladim. Qiyqiriq bo'lib ketdi.

Men esa qip-qizarib o'rnidan turayotgan Botiraliga engashib shivirladim:

– Kechiring, polvon!

O'sha kuni kechqurun bir qiz kelib meni ko'chaga chiqishimni so'radi. Chiqdim. Eshik oldida Botirali turardi. Allaqanday bo'lib ketdim. Uning ham meni yaxshi ko'rib qolgani shunday ko'zlariga yozig'lik edi.

Ana, tog'a, endi hamma narsani bilasiz. Bugun kechqurun poyezdda jo'naymiz. Ko'rishguncha xayr... Hurmat bilan jiyaningiz O'g'iloy».

Uning bir qaynovi ichida bo'lган odamligini bilib qolganimga qaramay, hayratga tushdim. Qilib qo'yan ishiga bir tomondan qoyil qoldim, jasoratiga tahsin o'qidim. Ikkinchchi tomondan, ota-onasiga rahmim keldi. Har holda, o'zbekchilik, qizi qochib ketibdi, degan gap tarqaydi. O'g'iloyning o'ziga ham achindim. Bechora qiz o'z baxtini shunday qiyinchilik, sargardonchilik bilan ko'ryapti. Kuyov bolaning ota-onasi ming yaxshi odam bo'lsin, unga tepadan, mensimayroq qarashi mumkin. Har holda, rozi-rizolik bilan, savlat bilan kelgan kelinning o'rni boshqa bo'ladi.

Shu xayollar bilan qorong'iga qolmay, Parkentga qarab yo'l oldim. Muqaddam opam xatni o'qib bo'lib, undan ko'zini uzmay o'tirgan pochchamga uloqtiridda, o'rnidan turib, mushtini mushtiga urib ketdi:



- U-u yashshamagur!! U-u chayon! U-u o'liging lahatta chirigur! Nima qilib qo'yding?! Nima qilib qo'yding?! Endi qanday bosh ko'tarib yuraman? Odamlarga endi nima deyman?!

Indamay o'tiraverdim. Xatni o'qitmasdan ilojim yo'q edi. Haqiqatni bilsin, o'zi haqidagi gaplarni eshitsin, o'jarlik, qattiqqo'llik nimaga olib kelishini ko'rsin.

- Muncha ezmalanasiz? - o'shqirdi birdan Muqaddam opa eriga. - Yo o'g'il bola qizizzi xatiga ko'z o'tmayaptimi?

Beixtiyor pochchamga qaradim. Uning parvoysi falak edi. Aftidan xotinining gaplarini u eshitmasdi. Ko'zлari xatda yo'rg'alar, xuddi O'g'iloyning lablaridek semiz lablari dam ochilib, dam yopilardi.

Nihoyat u o'qib bo'ldi. Menga qarab boshini bir qimirlatib qo'ydi. Sezdim, qizining qilmishidan u xafa emas edi.

- Ayb o'zingda, Muqat, - u xatni ehtiyotlik bilan taxlab, xontaxta ustiga qo'ydi. - O'ziga ixtiyor ber, dedim... Quloq osmading. Axir u o'zing-ku, nahot tushunmasang...

Muqaddam opa burnini jiyirdi.

- Melisaga aytaman, oyog'ini yerga tegizmay, olib kelib beradi.

- Melisani boshqa qiladigan ishi yo'q, sani pojlab o'tiribdi.

- Nima, butun boshli odam yo'qoladi-yu, melisa indamay o'tiraveradimi?

- Qizing yo'qolgani yo'q. O'zi o'z ixtiyori bilan er qilib ketdi.

- Er qilmay o'lsin! Endi o'n sakkizga kirdi-yu, erga balo bormi?!

- O'zing necha yoshda eding, menga tekkanda?

- Bo'ldi! Ensamni qotirmang!



Muqaddam opa erini jerkib bergan bo'lsa ham, biroz hovuridan tushdi. Men pochchamni quvvatladim. Hech qayoqqa borishga, umuman, to'polon qilishga hojat yo'qligini aytdim. Eng muhimi, o'sha yigit, Botirali bilan O'g'iloy baxtlarini topib ketishsin, bola-chaqali bo'lishsin.

Muqaddam opaning ichini it timdalayotgan bo'lsa ham, rozi bo'lishdan, alamini ichiga yutishdan boshqa iloji yo'q edi...

O'g'iloy aytganini qildi. Oradan chamasi ikki yilcha o'tganda chaqalog'ini ko'tarib, eri bilan biznikiga kirib keldi.

- To'g'ri shu yoqqa kelyapmiz. Parkatga o'zingiz olib borasiz, - dedi cho'pillatib yuzimdan o'par ekan.

Uning quvnoq chehrasini, ochilib ketgan rangi ro'yini ko'rib, xursand bo'ldim. Kuyov bolani o'z o'g'limdek bag'rimga bosib ko'rishdim. O'xshat-maguncha uchratmas, deydi xalq. Botirali O'g'iloydek baland bo'y, yelkador yigit edi. Qosh-ko'zining qoraligi bilan ham o'xshab ketardi.

Ertasiga er-xotinni o'g'ilchalari bilan Parkentga olib ketdim. Yetib borishimiz bilan to'y bo'lib ketdi. Ketma-ket qozonlar osildi. Muqaddam opa qizini urishish qayoqda, o'tqazgani joy topolmay qoldi. Botiraling ham hurmatini keltirib, yelkasiga bosh-oyoq sarpo tashladi. Zar to'n, koverkot kostum-shim, qora xrom tuqli... Chaqaloq esa, qo'lma-qo'l bo'lib ketdi.

Xullas, ginalar unutildi, hamma narsa joy-joyiga tushdi.

Botirali Namanganda ham o'qishga kirmabdi. Ke-chikdingiz, deyishibdi. O'g'iloy bo'lsa, harakat ham qilmabdi. Ammo ikkovi ham turmushlaridan xursand edi. Botirali duradgor otasining yo'lini olibdi. Topishi yaxshi. Endigi niyati mashina olish emish. Uning ham



yarim puli yig'ib qo'yilgan mish. Botirali shu gaplarni kattalardek salmoqlanib gapirayotganida O'g'iloy mehr to'la ko'zlarini undan uzmashdi. Qizining rangi boshi, kiyimidan, qudalari jo'natgan sovg'a-salomlardan Muqaddam opa ham bir qop semirib ketgan, boshi osmonda edi. Onaga yana nima kerak?

Shu voqeadan keyin bir yilcha men ularni ko'r-madim. Qishning o'rtalarida nevarasini ko'tarib, Muqaddam opa kirib keldi. U sovuqdan titrardi.

- Isingani keldim, -dedi u ichkariga kirarkan.

- Nima qilib yuribsiz bola bilan sovuqda? - so'ra-dim u ancha o'ziga kelganda.

- Botiraliga posilka jo'natayapmiz. O'g'iloy o'shat-da haliyam. Bolani shamollatib qo'ymay, deb men ketvordim.

- Botiraliga nima bo'lган? Qayoqda u? - hayron bo'ldim.

Muqaddam opa aytib berdi. Yarim yildan oshib-di, Botiralini armiyaga chaqirishibdi. Saratovda uch-to'rt oycha ushlab, Afg'onistonga olib ketishib-di. Ikki oydan beri shu yoqda ekan. Muqaddam opam birdan yig'lab yubordi.

- Afg'onga olib ketishini bilganimda yo'lini topardim, jo'natmasdim armiyaga. G'aflatda qoldim. Birpasda otlanib, jo'nab ketdi. Tanish-bilish qilib O'g'iloy posilkaga ruxsat oldi. Kobuldan, elchixonadan qismlariga jo'natisharmish.

Qorong'i tushib, xavotir ola boshlaganimizda, O'g'iloy o'zi kirib keldi. Tishi-tishiga tegmay qaltil-rardi. Men hech mahal uni bunday g'amgin ahvolda ko'rmagan edim. Buning ustiga anchagina ozibdi, chakkalari chiqib, dahani cho'zilibdi. Qo'limdan kel-ganicha unga tasalli berdim. O'sha kuni er-xotin ularni qo'yarda-qo'ymay, uyda olib qoldik. Yarim kechagacha gaplashib o'tirdik. Afg'onistonidagi ah-



volni muhokama qildik. Hamma soldatlarning, ular qatori Botiralining ham eson-omon qaytishini Xudodan so'radik.

Kulfat kelsa, qo'sha-qo'sha keladi, deyishadi. Oyda bir xat yozib turgan Botiraldan yozga chiqilganda hech qanday xabar kelmay qo'ydi. O'g'iloyning qatnamagan idorasi qolmadi. Oxiri uning bedarak yo'qolgani haqida rasmiy telegramma keldi. Kobuldan o'ttiz kilometr ichkarilikda bo'lgan jangda u bilan yana uch soldat yo'qolibdi. Qo'mondonlik qidiruvni davom ettirishga, ularni iloji boricha topishga va'da qilgan edi. O'g'iloy va'daga ishonib yurdi. Ammo Botiraldan hech qanday darak chiqmadi. Bir yil o'tganda Moskvaga xat yozdi. «Hozircha hech qanday ma'lumot yo'q. Qidiruv davom et-yapti», degan javob keldi. O'g'lining dardi ezib yubordimi, yo kutilmagan kasalga chalinib, shu kasal olib ketdimi, O'g'iloy Toshkentga kelib, harbiy idoralarga qatnab yurganda, qaynatasi olamdan o'tdi. Hech qayerda ishlamaydigan qaynanasi, bo'yи yetmagan bir qiz, ikki o'g'il bilan chirqirab qoldi. Hamma ma'rakalarni O'g'iloy o'zi bosh-qosh bo'lib o'tqazdi. O'sha kezлari Afg'onistondan sovet qo'shinlari olib chiqila boshlandi. Kimdir O'g'iloya Termizga borishni, qaytayotgan harbiylardan Botiralini surishtirishni maslahat beribdi. O'g'iloy shu maslahatga mahkam yopishib, o'sha kuniyoq Termizga jo'nadi. Uning gapi bo'yicha, shahar yasatilgan, hammayoqda qizil bayroqlar, shiorlar osig'liqmish. «Do'stlik» ko'prigi oldidagi maydonda tumonat odam, go'yo butun mammalakat shu yerga ko'chib kelgandek... O'g'iloy Termizga borishni maslahat bergenlar gapi bilan Botiralining katta qildirib qo'yan suratini olib ketgan ekan. O'sha yerda tepasiga «Botirali Qodirov. Uni bilgan bormi?»



deb yozdiribdi, katta-katta harflar bilan. Shu suratni ko'tarib, ko'prikka o'tib olibdi. Tushga yaqin narigi tomondan tanklar ko'rinishdi. Oyoq ostidagi yer gumburlab ketibdi. Qiyqiriq, yig'i, to'polonning cheki yo'q emish. Maydon birpasda qiyomat qoyim bo'lib ketibdi. Kechgacha o'tibdi tanklar, bronemashinalar. Ammo ularning ustida o'tirgan soldatlardan biron-tasi Botiralini bilaman, demabdi. O'g'iloy shom kirib mehmonxonaga qaytayotganida, bir ofitser uni to'xtabitdi.

– Singlim, Botirali Qodirov tirik, asirda, – debdi suratga yana bir diqqat bilan qarab. – Lekin qayerdaligini bilmayman. Kuting, o'zi darak berib qoladi.

O'g'iloy qanot paydo qilib, biznikiga uchib keldi. Birpasda u ilgarigi, sho'x, o'ynoqi ko'z O'g'iloy bo'lib ketgan edi. Botiralingning tirikligidan biz ham o'zimizda yo'q sevindik. Keyin o'ylab qarasam, Botiralingning hayotligini o'zimiz ham bilardik, faqat e'tibor qilmagan edik, biron ta odamning yo idoraning tasdig'iga muhtoj edik. Jasadi topilmaganidan keyin, halok bo'lganini hech kim ko'rmaganidan keyin, qayerda bo'ladi, asirda bo'lmay?

– Asirlarni albatta qaytarishadi. Sabr qil, kut endi, – yupatdim o'zimcha O'g'iloyni.

– Voy kutmay-chi!? Omon ekan, shuning o'zi katta baxt menga! – Uning ko'zлari yana o'ynab ketdi, qalin lablari nimalarnidir shivirlab titradi.

Uzoq vaqt uni yana ko'rmadim. Ammo Afg'onistoniga aloqador nima o'qisam u esimga keladi, ko'z oldimda Botirali paydo bo'ladi. Asir tushishga majbur bo'lganlar oz emas ekan, Ittifoqda ularni qaytarib olish jamiyati tuzilib, Toshkentda ham bo'limi ochildi. Borib Botiralini aytib berdim. Ro'yxatlarda u ham bor ekan. «Qidiryapmiz, daragi chiqishi kerak», deyishdi. Aytib



qo'yay deb, Namanganga telefon qildim. Ammo O'g'iloy ishda ekan. O'zi telefon qilishini kutdim. Qilmadi. Ammo bir haftadan keyin o'zi uyga kirib keldi. Uning yana quvonchi ichiga sig'masdi.

– Suyunchi bering, tog'a! – qichqirdi u yo'lakdan. – Botirali topildi. Pokistonda ekan!

Menga ish qildirmay, dasturxon yozib choy qo'yarkan, bor gapni aytib berdi. Bir oycha burun toqati toq bo'lib o'tirib, o'zicha mahkamaga xat yozibdi. Bor dardini to'kib solibdi. Nahotki, odam cho'pdek narsa bo'lса, uning qayerdaligini to'rt yildan beri hech kim bilmasa, degan achchiq gaplar ham bor ekan xatda. Kuni kecha mahkamadagilar telefon qilib, Botiralining topilganini aytishibdi. Keling, deyishibди.

– Shunga keldim. Ertaga saroya boraman, – dedi ko'zlari chaqnab O'g'iloy. – Bafurja gapirib berisharmish, hammasini! Shuncha paytdan beri yozsam bo'lmasmidi, a? Bir oyga qolmay aniqlab berishdi-ya!

Men uni tabrikladim. Botirali qaytib, yana baxtli bo'lib ketishlarini tiladim. Ertasiga mahkamaga birga bordik. O'g'iloy bir soat deganda chiqdi. Xomush edi. Nima bo'ldiykin? Hayron bo'ldim. So'ramoqchi bo'lib og'iz juftlagan edim, O'g'iloy qo'lidagi xatni uzatdi. Shoshib o'qiy boshladim.

«Murojaatingizga muvofiq ma'lum qilamiz: Sovet armiyasi sobiq soldati Botirali Qodirov, haqiqatan ham, 1987-yilning mayida Qobuldan 30 kilometr ichkarilikdagi Meton temiryo'l stansiyasi uchun bo'lgan jangda asir tushgan. Hozir Qorachi shahridagi xonadonda yashaydi. B. Qodirov Afg'on mujohidlari asirligi va nazoratida bo'lgani sababli Pokiston, Sovet Ittifoqi davlatlari hozircha uning ishlariga aralasha olmaydi».



Pokistondagi sovet elchixonasidan kelgan bu xatda boshqa hech narsa deyilmagan edi. O'g'iloy nimadan xafa bo'ldi, anglamadim. So'radim.

- Nega shu paytgacha indamaydi? Tog'a, buning tagida bir gap bor. Yuragim sezib turibdi.
- Xat yozdirishmagan bo'lishsa-chi? Nazoratda deyishibdi-ku xatda. – O'zimcha taxmin qildim.
- Bilmadim. – O'g'iloy yelkalarini qisdi.
- Nima qilasan endi?
- Borib kelaman.

Ko'z oldimda yana avvalgi O'g'iloy paydo bo'lib ketdi.

- Qayoqqa?
- Qorachiga.
- Qanday qilib? – hayron bo'ldim.
- Bilmadim, yo'lini topaman. Bormasam tinchi-mayman. U bilan davlatlar gaplasholmasa, o'zim gap-lashaman.

Uni ahdidan qaytarish, yana kut, o'zi qaytadi, deyish befoyda edi. Shu uchrashuvimizdan keyin O'g'iloy uzoq vaqt ko'rinxay ketdi. Xavotir olib, Namanganga telefon qildim. Parkentga borib keldim. Ammo ko'rolganim, gaplasholganim yo'q. Bir Moskvaga ket-gan, deb eshitdim. Pochcham bilan Muqaddam opam shunga qattiq ishonishibdi. Bir vodiyya to'plangan san'atkorlar, sport odamlariga qo'shilib, Mozori Sharifga jo'nabdi, degan gapni aytishdi...

Oxirgi safardan qaytganda, uning uxlamay hovlida o'tirganini sezib qoldim, notinchligi aniq edi. Holidan xabar olishga qaror qilib, ayvonga chiqdim. Qop-qora osmonda yulduzlar miltillar, yarimta oy shunday tepada sarg'ayib turardi. Ohista hovliga tushdim. So'ri zixida o'tirgan O'g'iloy boshini ko'tardi. Uning yirik dumaloq ko'zlar «yalt-yalt» qilardi.



- Uyqungiz o'chdimi, tog'a?
- O'zing nimaga uxlamayapsan? Charchadingmi? - savoliga javob bermay so'radim, yoniga o'tirarkanman. - Xalaqt bermaymanmi?
- Yo'q. O'tiring, - u joyidan qo'zg'alib qo'ydi. - Charchadim. Lekin uyqum kelmadi. O'ylab ketdim.
- Nimalarni? Bilsam bo'ladimi?
- Bo'ladi, - u jilmaydi. - Masalan, kuyovingizni.
- Botiralinimi?
- Ha. O'shani.

U jimb qoldi. Men esa savolga tutmadim. Anchadan beri yoningda bo'lмаган suykli odaming haqida gapirish, uni eslash har doim og'ir. O'g'iloy shu ahvolda edi. Nima qilaman azob berib?

Birdan u qaddini rostlab, menga o'girildi.

- Nega, «Pokistonga boardingmi?» deb so'ramaysiz?
- Borolmagan bo'lsang, yarangga tuz sepib nima qilaman? - rostini aytib qo'yaqoldim.

- Bordim. Bir oy bo'ldi borib kelganimga!

Hang-mang bo'lib qoldim. U rost gapirayotgan edi. Aldab nima qiladi? Faqat men uning tutgan yerini kesadigan, aytganini qiladigan odamligini unutgan edim, xolos.

- Qoyilman! Xo'sh, qalay Botirali? Ko'rdingmi? Gapir...

- Ko'rdim. Xuddi mana shundog', siz minan o'tirishganday o'tirishib gaplashdim...

- Bir o'zing boardingmi? Qanday qilib boarding?

- E, tog'a, pul bo'lsa changalda sho'rva, deyishgani rost ekan. Pul minan borib keldim. Ikki yil burun dadamga jamoa xo'jaligi bergen «Moskvich» mashinamiz bor edi. Qip-qizil loladek mashina. Oyim minan nima qilishimizni bilmay, xunob bo'lib o'tirsak,



dadam qiyiqlariga o'rog'lik bir dasta pulni oldimizga olib kelib qo'ydilar. «Xotin, umrimda birinchi marta sendan beso'roq ish qildim. Lekin qizimizning baxti uchun hamma narsaga tayyorman. Mashinani soitib keldim. Borsin o'sha Pokistonga. Erini ko'rsin. Iloji bo'lsa yetaklab olib kelsin!» – dedilar. Oyim urishish qayoqda, sevindilar. Mani bo'lsa-ku, boshim osmonga yetdi. Biletga, u yoqda bir hafta turishga pul topilganidan keyin qolgan narsa oson ko'chdi. Afg'on nogironlari uyushmasidan yordam berishdi. Qorachi uzoqmasakan. Toshkandan to'rt soatcha uchib bordik. Yo'lida bir to'xtab oldik, xolos.

– Kuala-Lumpurda.

– Ha, o'shatda to'xtadik. Qaytishda to'xtamadik. To'ppa-to'g'ri Toshkentga kelib tushdik. Mani konsulxonaning odamlari kutib oldi. Katta shahar endi Qorachi. Hammayoq odam, xuddi chumoli inidan qo'zg'olganday... Yo'qolib qolish hech gapmas. Allambalo moshinada, hozir shunaqa moshinalar Toshkent-dayam yuribdi, jajji bir mehmonxonaga bordik. Televizorli bir xonaga joylashdim. Pul to'lay, desam, keyin deyishdi. Konsulxona odami Afg'on nogironlari uyushmasining telegrammasini olishgan ekan, kechqurungacha Islomobodga telefon qilib, haligi xat yozgan elchixona maslahatchisidan Botiralining adresini surishtiradigan, keyin meni olib boradigan bo'ldi. Faqat Botirali bilan o'zim gaplashishimni, u chetda turishini aytdi. Xo'p, dedim. Kechqurungacha ancha bor edi, hali peshin ham bo'lмаган edi. Ko'chaga chiqdim, «gup» etib issiq havo, ovqat hidi dimog'imga urildi. Lekin tez ko'nikib ketdim. Mehmonxona atrofini uch-to'rt aylanib keldim. Uzoqroq borishga cho'chidim. Adashib ketib, mehmonxonani yo'qotib qo'yishim mumkin. Keyin nomerimga ko'tarilib, televizor qo'y-

dim. Kino ketayotgan ekan. Maza qilib tomosha qildim. Ularning televizori g'lati. Ertadan kechgacha kino ko'rsatadi. Kechasiyam uch-to'rtlargacha timmaydi. Burasangiz bo'ldi qulog'ini, kino ketidan kino ko'rsataveradi. Bir vagon kino ko'rib keldim. Me'damgayam tegib ketdi. Bir mahal hammayoq jimjit bo'lib qoldi. Televizor ham o'zidan-o'zi to'xtadi. Keyin tashqaridan so'fining ovozi keldi. Derazani ochib qulqoq soldim. «Ollohu Akbar! Ollohu Akbar!» Ajoyib ashula eshitganday bo'lib ketdim. Shu zahoti ikkinchi tomondan boshqa so'fining ovozi keldi: «Ashhadu anna Muhammadan rasululloh!» Uning ovozi ham shirali, yoqimli edi. Keyin tushunib qoldim. Ular peshin namozga chaqirishayotgan edi. Namoz tugagandan keyin yana hayot qaynab ketdi. Moshinalarning ovozi, izvosh aravaga qo'shilgan otlarning do'piri qulqoni kar qilgudek edi. Bunaqa tomoshani umrimda ko'rma-ganman. Xullas, qanday qilib kech kirganini bilmay qoldim. Dilim ravshan, kayfim chog' edi. Shundoq joygaki keldimmi, niyatimga yetishimga, Botiralini ko'rishinga imonim komil edi.

Konsulxona odami aytgan vaqtida keldi. Piyoda boramiz, dedi. Eringiz yaqin joyda turar ekan. Keyin yo'lni bilib olib o'zingiz boraverasiz, dedi. Yuragim bir hapriqib ketdi. Xo'p, dedim. Toshkentdan anchagina tansiq narsalar olib ketgan edim. Ikkita sellofan paket qilib tayyorlab qo'yuvdim. Bittasini konsulxona odamiga berdim. Bittasini o'zim ko'tarib oldim. Har holda quruq bormagan yaxshi. Yo'l-yo'lakay sezdim, konsulxona odami bir narsa demoqchi bo'ladi-yu, aytolmayapti. Chidolmay, «tinchlikmi?» – deb so'radim. «Tinchlik, – dedi. – Ko'rasiz, hozir. U do'konchi bo'lib ketgan». «Nima qilsa qilmaydimi, omon ekan, shu katta baxt», – dedim. Konsulxona odami indamadi. Birdan



rastalar boshlanib ketdi. Hammayoq meva. Olma deysizmi, apelsin deysizmi, banan, uzum... Shu yerning o'zida sharbatam qilib turishibdi, apparatga solib... Jannat deysiz, tog'a, jannat!.. Keyin birdan rasta qatori tamom bo'lib, gazlama qatori boshlanib ketdi. Voy, ana gazlama, mana gazlama! Umrimda bunaqa mo'l-ko'l bozorni ko'rmaganman. Bir paytlar shoyi, chit, duxoba bizdayam ko'p edi. Ammo bunaqasi bo'l'magan!.. Og'-zim ochilib qoldi. Konsulxona odami sal yurganimizdan keyin tirsagimdan ushlab to'xtatdi. «Endi buyog'iga o'zingiz borasiz. Men borolmayman. Istanangiz kutib turaman. Lekin mehmonxonangiz olis emas. Shu ko'chadan qaytsangiz bo'ldi. Shunday mehmonxona oldidan chiqasiz», – dedi. «Ketavering», dedim. «Botirali Qodirov chap tomondagi do'konlardan birida o'tiribdi. Do'kon tepasiga isiriq osib qo'yibdi, sekin borsangiz o'tib ketmaysiz», tushuntirdi ketayotib konsulxona xodimi.

U aytgandek qilib chap tomonga o'tib oldim. Bittabitta yurib borvotman. Rang-barang matolardan, shoyi, duxoba, tovarlardan ko'zim qamashib ketvotgan bo'lsayam, do'konchilar afti-basharasiga razm solaman. U yerda faqat erkaklar. Ayollar deyarli ishlasakan. Yosh-yosh yigitlar ko'pi. Hammasi uzun oq ko'ylak kiyib olgan, hammasi soqol-mo'ylov qo'ygan. Boshlarida yupqa oq do'ppi. Ko'ziga ko'ziz tushishi minam darrov ichkariga taklif qiladi, mollarini maqtab, oldingizga taxlab tashlaydi... Yurganim sari yuragim dukullab urib ketyapti. «Hozir ko'raman uni» deyman o'zimcha. Hozir u mani ko'radi. Nima derkin? Man nima deyman unga? Qandoq ko'rishamiz? Ancha yurdim. Hatto, xavotirgayam tushdim, o'tib ketdimmi yo yo'qmi, deb. Yo'q o'tib ketmagan ekanman. Bir mahal oldinda bir isiriq osib qo'yilgan do'kon ko'rindi.

Beixtiyor to'xtab qoldim. Iliklarimgacha bo'shashib ketdi. Do'kon ichidan bosh-ko'zi o'ralgan ikkita xotin chiqishdi. Ular ketidan do'konchi ko'rindi. Uniyam egnida uzun oq ko'ylak. Boshida to'r do'ppi. Qop-qora soqoli ko'kragiga tegib turibdi. U ayollarga nimadir dedi. Ayollar bosh irg'ashdi. U birpas ular ketidan qarab turdi, keyin ichkariga kirib ketdi.

Tanidim. Soqol-mo'ylov qo'ygan, uzun ko'ylak kiyib olgan bo'lsa ham, ovozini eshitmagan bo'lsam ham tanidim. Gavdasidanmi, yo'g'on bo'ynidanmi, lapang-lab yurishidanmi, bilmadim, ishqilib tanidim. Botirali. Yig'i zanjir bo'lib kelib og'zimga tinqildi. Mahkam og'zimni ushладим. Do'konga yaqinroq bordim. Botirali yo'q edi. Uni endi yo'qotmasligimni bilsamam, ozgina xavotirga tushdim. Ichkarida eshik bor ekan. Bir mahal o'shayoqdan bir to'p gazmol ko'tarib chiqdi. Mani ko'rdi. Manam unga qarab turibman. Gazmolni devorga tirab qo'ydi-da, ro'paramga keldi. «O'g'iloy!?!» – so'radi ko'zlarini tikib. «Manman, Botiralaka!». Shundoq dedim-u, bag'riga otilib, to'yib yig'lagim kelib ketdi. Ammo o'zimni ushlab qoldim. Begona yurtda, g'irt musulmonlar ichida bo'lsam-da, erkak odamga o'zimni tashlab o'tirsam?! Kuyovingizam o'zi quchog'ini ochmadi. Hatto joyidan qimirlamadi. Ichimda o'ksindim. Yutinib, o'zimga kelvoldim-de, qo'limni uzatdim. «Sizni topganimdan xursandman!» – dedim. «Rahmat» dedi. «Seni kutgan edim», dedi. Hayron bo'lib qoldim. Tushuntirdi. «Seni yaxshi bilaman. Tirikligimni, qayerdaligimni eshitishing bilan yo'lini topib kelishingga ishonardim, dedi. Bu bilan u mani maqtadimi, yo norizo bo'lib gapirdimi, anglamadim. «Qani, o'tiraylik», – u do'konning qamish pardasini tushirib yopdi. Oldimga kursi qo'ydi. O'zi kigiz ustiga chordona qurib, qo'llarini



fotihaga yozdi. «Qani omin, qadam yetdi, balo yetmasin. Xudoga ming qatla shukur, diydor ko'rishdik!» U yana nimalarnidir shivirlab, qo'llarini yuziga surtdi, mumdek qora qalin soqoli, mo'ylovini siladi, keyin menga qaramasdan o'rnidan turdi. Indamay ichkaridagi eshikdan qayoqqadir g'oyib bo'ldi. Anchagacha yolg'iz qoldim. Do'konga boshqatdan razm soldim. Mol ko'p edi. To'rtala tomonga taxlab tashlagan. Faqat kiraverishdagi bir quloch yergina ochiq. Ko'pi ipak mol. Hayron bo'lib, o'ylab ketdim. Bu qanaqa asirlik bo'ldi? Shuncha molni, shundoq do'konni asir odamga kim topshirib qo'ydi? Asirmi o'zi Botirali?

Man sizga aytsam, tog'a, uni soppa-sog', hatto anchagini to'lishib ketganini ko'rib, xursand bo'lган bo'lsam, nimadandir ko'nglimning bir chekkasi g'ash edi. Asir odamni qamoqxonada o'tiradi, ishga olib chiqsa yon-berida soqchilar turadi, deb o'ylagan edim. Botirali bemalol yuribdi. Kiyim-boshi yaxshi, rang-ro'yini aytsangiz, hozirgina hammomdan chiq-qan odamday oqi oq, qizili qizil. Ha, aytganday, bir qo'lida tag'in allambalo tasbeh. Qop-qora, xuddi qo'yning ko'zidek, har bir toshi. Xullas, asir odamga o'xshamasdi... Katta patnis ko'tarib oyoqyalang bir bola ichkaridan chiqdi. Patnisni oldimga qo'yib, menga qaradi-da, jilmayib nimadir, dedi. Nima deganini bilmasamam tushundim. Dasturxonga taklif qildi. Qand-qurs, qatlamaga o'xshagan non, temir choynakda choy, qaynoq sut olib kelgan edi u. Boshimni qimirlatib, rahmat, dedim. U jilmayganicha chiqib ketdi. Anchadan keyin Botirali qaytib keldi. Ro'paramga o'tirib, non sindirdi, dam yegan bo'lsa ham choyni ikki-uch marta qaytardi. Boshini ko'tarmay, kichkina-kichkina taqsimchalardagi shirinliklarni manga yaqinroq surib qo'ydi. Sezyapman, nimadandir xijo-



latda. Qahraboday achchiq bo'b ketgan choydan quyib uzatar ekan, qo'liyam qaltirab ketayotganini ko'rdim. Indamay men unga, u menga tikilganimizcha qancha o'tirdik, bilmayman, bir mahal u xo'rsinib boshini ko'tardi. Jiqqa yoshga to'lgan ko'zlarini manga tikdi. «Meni kechir, O'g'iloy, - dedi. - Men ilgarigi Botiralimasman». «Ha, o'zgarib ketibsiz, - dedim hazilga olib. - Soqol-mo'ylov yarasharkan sizga». Shundoq dedim-u, u boshqa narsani nazarda tutayotganini tushundim, tog'a! U u yoqda uylanvolgan ekan. Ikkita bolasi bor ekan. Do'kon - xotinining do'koni ekan!..

O'g'iloy birdan jimb qoldi. U yig'lardi. Ammo ovutmadim, to'xtatmadim. Nima deb ovutaman? Yig'- lasin, o'ziga erk berib, dilini bo'shatsin. Tavba, urush odam boshiga qanday kulfat, tashvishlarni solmaydi? Lekin O'g'iloyning boshiga tushgan tashvishlarni men sira xayolimga ham keltirmagan edim...

- Qiziq-a, tog'a? - xuddi dilimdagini bilgandek so'radi, bir mahal O'g'iloy anchagina o'zini tinchitib olib. - Mani yaxshi ko'rib, olib qochib ketgan yigit qo'sh xotinli bo'lib o'tirsa? Suyumli xotinini kundoshli qilib o'tirsa?!

- Nega bunday qilibdi? So'ramadingmi?

O'g'iloy entikib jilmaydi.

- So'ramadim. O'zi aytib berdi.

Kobul yaqinida ularning bo'limi qurshovda qolibdi. Ko'pchilik qutulib chiqib ketibdi. To'rt kishi chekinish haqidagi buyruqni eshitmay, asir tushib qolishibdi. Tog' oralab ketishayotganda biznikilar hujumga o'tibdi. Samolyot dushmanni o'qqa tutibdi, bomba tashlabdi. Shu jangda asir tushganlarning uchtasi halok bo'libdi. Tasodifan Botirali omon qolibdi. Jang tugaganidan keyin o'rtoqlarini o'zi ko'mibdi. Uni Hasan-Husan afg'onlar asir olgan ekan. Kattalari,



Yoqubbek degan general Botiralini butunlay ularga berib yuboribdi. Hasan-Husanlar avval uni Pokiston chegarasiga olib borishibdi. Shu yerda, bir qishloqda uy-joylari bor ekan. Ekin ektirishibdi. Buzilgan uylarini tuzattirishibdi. Botiralining qo'li gulligini ko'rib, keyin musulmonligini e'tiborga olib, singillarini unga nikohlab berishibdi. «Uylanmasang, o'ldirib yuboramiz» deyishibdi. Botiralining rozi bo'lishdan boshqa chorasi qolmabdi. U uylanib, ozgina ko'nikishgandan keyin, erkin yura boshlagandan keyin qochmoqchi ekan. Ammo iloji bo'lmaabdi. Hasan-Husanlar unga mahkam yopishib olishibdi. Keyin Qorachiga olib ketishibdi. Otalaridan qolgan uch-to'rtta do'konlari bor ekan, bittasini unga berishibdi.

Ketma-ket bolalar paydo bo'libdi. Botiralining o'zi ham shu turmushga ko'nikib qolibdi.

- Bolalariniyam, xotininiyam ko'rdim, - dedi O'g'iloy yana jilmayib. - Botirali hikoyasini tugatib, ichkariga ishora qildi. Qarasam, eshik oldida yuziga qora ro'mol tutgan bitta ayol turibdi. Ikkala ko'zi cho'g'ning o'zi. Manga yovdek qarab turibdi. Qo'lida bola. Kattasiyam sho'ttayakan. Onasining ko'ynagi-ga bekinib olgan. «Xondamir!» deb chaqirdi Botirali. Bola onasining ko'ylagini qo'yib yuborib, Botiraling oldiga uyalib, bitta-bitta qadam tashlab keldi. Botirali uni bag'rige bosib, o'z tilida nimadir dedi, peshonasidan o'pdi. Xo'rligim kelib ketdi. Baxtiyorni kim endi bag'rige bosadi? Kim peshonasidan o'padi? Ammo ezilganimni ko'rsatmadim. Qaytanga kulib, bolani men ham quchog'imga oldim. O'rnimdan turib, xotinga salom berdim. Munir ekan nomi. Keyin olib kelgan sovg'alaramni ochdim. «Oyimlarning patirlari-ku!» sevinib ketdi Botirali. Xotinini chaqirdi. Qo'lidagi bolayam o'g'il ekan. Bobur qo'yishibdi,



otini. Sakkiz oylik bo'libdi. Qo'limga oldim. Polvon bola. Qosh-ko'zлari xuddi otasining o'zi. Faqat qop-qora. Peshanasidan o'pdim. Botirali patirdan ushatib, hammaga bir burda, bir burdadan ulashdi, chaqaloqning qo'ligayam tutqazib qo'ydi. Ayol bir tishlam og'ziga soldi, ammo baribir yov qarashini qo'ymadni. Shu orada do'kon pardasini ko'tarib, ikki kishi kirdi. Hasan-Husanlar ekan. Dushmanlar deganda man o'zimizni kinolarda ko'rsatgan bosmachilarni ko'z oldimga keltirardim. Tappa-tuzuk odamlar ekan, faqat ular ham menga g'alati qarashdi. Aftidan hadiksirashdi. Botirali uzoq yo'q bo'lib ketganda mening kimligimni aytgan ekan xotiniga. Xotini darrov akalariga xabar bergen. Bechoralar mani erini olib ketgani kelgan, deb o'ylashgan bo'lsa kerak. Shuning uchun ham uchalovi bezovta edi. Ular-ku mayli, Botiraliyam notinch edi. Rostini aystsam, meni o'zimam g'alati ahvolda edim. Kimman o'zi? Kimlarning orasida o'tiribman? Nima qilishim kerak? Hasan-Husanlar kelgandan keyin gapimiz butunlay qovushmay qoldi. Men Botiraliga otasining olamdan o'tganini ayt-dim. Yashirib nima qilaman? Uchala erkak Qur'on o'qishdi. Gap yana uzildi. Ketishim kerakligini sezib, o'rnimdan turdim. Shunda butunlay ketayotganimni bildim. «Meni kechir. Kechiringlar hammang», - dedi yana do'kondan chiqqanimda Botirali. Indamadim. Adresimni so'rovdi, berdim. Do'kondan o'n qadamcha uzoqlashganimdan keyin o'zimni tutolmadim, yig'lab yubordim. Mehmonxonaga kelib yana yum-yum yig'ladim.

Ertalab konsulxona odami telefon qiluvdi, imkonni bo'lsa tezroq jo'natib yuborishini so'radim. Toshkentda qo'nib o'tadigan samolyot bor ekan, shunga biletimni to'g'rilab berdi. Mehmonxonada Botiraliga atab

kichkina xat qoldirdim. Mabodo kelsa berib qo'yishadi. «Botirali! Xayr, – deb yozdim. – Mendan xavotir olmang. Sizni hech qachon bezovta qilmayman. Munirbonu bilan qo'sha qaringlar. Bolalaringizning rohatini ko'ring. Sobiq umr yo'ldoshingiz O'g'iloy».

O'sha kuni kechqurun yo'lga chiqdim. Botiralidan xafamasman. Kim biladi, shundog' qilmasa omon qolmasmidi? Qancha odam o'sha Afg'onda nobud bo'lib ketdi! Faqat Baxtiyorga achinaman ba'zan. Otasi bo'laturib otasiz o'svotti. Mayli, katta bo'lganda o'zi hamma narsani, tirikchilik, hayot nimaligini tushunib olar. Balki, otasi minam diydor ko'rishar? O'sha endi pokistonlik, ota bir ona boshqa ukalari minam bordikeldi qilib ketar? Qarshimasman, qaytanga xursand bo'laman. Negaki, bolaligida otasining diydoriga to'ymagan o'g'lim bechora, katta bo'lganda to'ysin... Munirbonu, kundoshimgayam, Hasan-Husan akalrigayam tariqchalik ginam yo'q. Faqat, tog'a, ikkinchi xotin bo'lolmayman, kattasi bo'lsamam. Erning qosh-qovog'iga qarab yasholmagan odam, qandog' qilib kundoshga chidaydi? Fe'limam, qonimam isyon qilib yuboradi. Botirali uyoqda nikohlab olgan xotini, ikkita qo'g'irchoqday bolasi, hovli-joy, do'koniborligini, qaytish niyati yo'qligini o'zimmi oyim minam dadamga aytib berdim. Oyim fig'on bo'lib, uni qarg'adila, urishdila, unga qo'shib maniyam urishdila. Etgananni qilganingda boyvuchcha bo'lib yurarding, dedila. Ammammi o'g'li, haligi, chayqovchi, «Mersedes» ogranmish, ikki qavatlidang' illama uy qurvotganmish. Kuldim. Manga Botiralidan bo'lak hech kim, hech narsa kerakmasligini haliyam tushunmabtila. Qaynonamga, umuman, boshqa hech kimga rostini aytmadim. Rostini bilishsa, ketib qoladi, deb mendan xavotir olishadi. Qandog' ketaman? Qaynonam kasalvon odam, uydan



chiqmaydi. Ikkala qaynim hali, usta qo'lida. Ota kasbini tanlashgan. Shundog' kursila, xontaxta qilishadiki, xuddi muzey deysiz! Ikki-uch yildan keyin katta bo'lib, o'zlik-o'zi bilib olishadi. Ana o'shanda akalari nima qilib yurganini bilishsa-bilishar. Qaynisiynimam institutni bitirsin. Ungacha kim qaraydi ularga, man qaramasam? Hammalariga sog'-salomat yuribdi, dedim. Ammo asir, dedim. Hech qayoqqa shahardan chiqib borolmaydi, hech kimga xat yozolmaydi. Yaqinda muzokara bo'larmish. Asirlarni qaytadan masalasi o'shanda ko'rilmish. Hammalaringizga ko'pdan-ko'p salom, deb yubordi, dedim. Ishonishdi...

Lekin, tog'a, bir narsaga hech tushunolmayman. Pokistonga borib kelganimam, Botiralini ko'rganim, o'sha yoqda u boshqa turmush qurib ketganiyam xuddi tushga o'xshaydi. Odamni ezadigan, yig'latadigan tush... Hech ishongim kelmaydi. Hamma ko'rganlarim yolg'onga o'xshaydi. Namangandayam, Parkatdayam eshik lang ochilib, Botirali kirib keelayotganday bo'laveradi. Kelib Baxtiyorni ko'taradi, bo'yniga o'tqazadi. Mani bag'rige bosib, boshimdan o'padi... O'yib-o'yib bilagimni chimchilasamam ko'z oldimda paydo bo'laveradi... Bilaman, Pokistonga borib kelganim tush emas, haqiqat. Baribir ishongim kelmaydi. Tush deyman. Tush-a, tog'a? O'g'iloy ko'zları yaltirab, menga qaradi, keyin boshini ko'kragimga qo'ydi. Javobning unga keragi yo'q edi. Shunday bo'lsa ham o'zimcha uni yupatmoqchi bo'ldim.

– Yoshсан. Turmushing hali yaxshi bo'lib ketadi. Ajab emas, yaxshi bir odamni uchratasan hali...

– Botirali bitta, tog'a, – dedi u boshini ko'tarib.

Bahslashgim, gapini ikkita qilgim kelmadи. Anchagacha asta-sekin so'nayotgan yulduzlar, oqarayotgan tun sukunatiga quloq solib o'tirdik.

Tonggi g'ira-shirada O'g'iloy Namanganga jo'-nadi. Katta ko'chagacha kuzatib chiqdim. U taq-tuq qilib, shaxdam-shaxdam qadam tashlab borar ekan, orqasidan uzoq qarab turdim. Mening o'g'il bola jiyanim, jigarim, bu o'zgaruvchan, notinch hayotda shu yurishing yo'qolmasin, omon bo'l!

## GAROV

**O**bidjon akaning oltmis yilligiga atab berilgan ziyofat kutilgandan ham yaxshi o'tdi. Avvalo, aytilgan odamlarning hammasi keldi. Buyurilgan ovqatlar hammaga manzur bo'ldi. Mashshoqlarning ikkala to'pi ham kecha oxirigacha xizmat qildi. Maqtovlarchi! Obidjon akaning o'zi sha'niga aytilgan gaplardan quvonib, g'ururlanib o'tirdi. Ziyofatga ajoyib joy tanlanganini aytmaysizmi? Anhor labiga tushgan peshayvonli choyxona oromijon joy ekan. Buning ustiga sovg'a-salomlar ham ziyofatga yarasha bo'ldi. Ko'pchilik konvert tutqazdi. So'ng Obidjon aka xotini Zaynabxon bilan yarim kechagacha shu konvertlarni ochib ko'rishdi. O'n ming so'mlik konvert chiqmadi, hisob. Ko'pchilik qirq-ellik mingdan solibdi. Hammasi tag'in taxi buzilmagan besh ming, o'n minglik qo'g'ozlar.

Zaynabxon olishning bermog'i ham bor, degan mulohaza bilan erinmasdan bir daftар tutib, hammasini yozib chiqdi. Ikki yarim millionga yaqin pul yig'ilibdi. Gap pulda emas, sovg'alarda emas, odamlarning ularga bo'lgan munosabati, hurmatida edi. Er-xotin boshlari tog'dek ko'tarildi, turli o'ylarga borib, ikkilanib bergen ziyofatlaridan xursand bo'lishdi. Obidjon aka kuyovlarini ham maqtadi!

- Baraka topishsin kuyovlarim! Hammasi chopic-chopib xizmat qilishdi, - dedi u gap orasida yirik qo'llari bilan ko'kragini silab, - Sodiqjon ham, Hafiz ham tinim bilishmadi.

- Ilgaridan ular shunaqa, - Zaynabxon eriga boshqacha mehr bilan qarab qo'ydi.

- Innaykeyin, siz har kuni oltmishta kirarmidin-giz?

- Baribir baraka topishsin. O'zimga kelib olay, bir ikkalovini qizlaring bilan chaqiraman, o'tirishamiz. Nima deding?

- Nima desangiz shu.

Zaynabxon pullarni qiyingga o'rabi, erining yostig'i tagiga qo'ydi.

- Nima qilyapsan?

- Menda tursa, ishlatib qo'yaman, - kului Zaynabxon.

- Ishlataver. Seniki shu pul, - Obidjon aka tugunni qaytarib, xotinini yuzidan o'pib qo'ydi.

- Aytganday, o'g'ling, Sanjar ko'rinxay qoldimi?

- Voy uyam rosa xizmat qildi. E'tibor bermagansizda. - Zaynabxon shunday dedi-yu, xavotirga tushib, o'rnidan turdi.

- Qayoqqa?

- Qarab qo'yay. Yotgan bo'lsa kerak, hoynahoy!

- Uyg'otib yuborma tag'in!

Zaynabxon yotoqxonadan chiqib, zalga o'tdi, undan o'g'lining xonasiga kirdi. Qorong'i bo'lganidan o'g'lining bor-yo'qligini bilolmadi. Timirsikilab yurishga botinmay, chiroqni yoqdi. Karavot bo'mbo'sh edi. Zaynabxon ezilib ketdi. Avvalo eriga hozir u yolg'on gapirdi. Qolaversa, shunday muborak kunda Sanjar nomigagina xizmat qilib, keyin g'oyib bo'lib



qoldi. Nega bu bola bunaqa chiqdi? Undan qo'rqlmaydi, va'dasida turmaydi. Aytsammikan otasiga? Yo'g'-e, shunday kunda-ya?

Obidjon aka uyg'oq edi.

– Yotibdi ekanmi? – so'radi u.

Nima desin?

– Yotibdi. Siz ham uxlang, – Zaynabxon eri tomonga qarashga uyalib, o'rniga cho'zila qoldi.

– Endi uyqu kelarmidi? Hali zamon tong ham otib qoladi. Kunduzi uxlarman. Ertaga ishga bormasam ham bo'lar? Har holda yubilyarman-ku. – Obidjon aka kului. Zaynabxon ham jilmaydi. Ammo xayoli yana o'g'liga qochdi: «Qayoqda yurganiykin?» U ham eriga o'xshab endi uxlolmasligini bilardi. Hozirgina undan baxtli, undan tinch odam yo'q edi. O'g'lining qaytmaganini ko'rib, halovati yo'qoldi. «Yolg'iz o'g'il – erka o'g'il». Zaynabxon kim shunday deganligini eslashga urindi, ammo topolmadi. Kim aytgan bo'lsa ham to'g'ri aytgan ekan. Zaynabxon o'ttiz besh yoshida Sanjarni ko'rди. Shunga o'n to'qqiz yil bo'pti. Ikkala qiz institutni bitirishdi, turmush qurib, ota-onal qanotlari ostidan uchib chiqib ketishdi. Zaynabxonning ikkalovidan ko'ngli to'q. Ikkalovining yaxshi uyi, ikkitadan bolasi bor. Katta kuyovining tagida mashina. Kichigi ham undan qolishmaydi. Buning ustiga ikkalovi ham Obidjon aka aytgandek, mehr-oqibatli chiqishdi. Tez-tez xabar olib turishadi. Shundan bo'lsa kerak, o'g'ilni arzanda qila boshlashdi. Ayb o'zlarida. Nima yeymen, nima kiyaman desa, muhayyo. Yolg'ondan yo'talsa ham doktor chaqirishadi, kechasi bilan tepasida mijja qoqmay o'tirib chiqishadi. Aftidan, Sanjar uyda kimligini juda tez anglab oldi. Zaynabxon u otasi bilan gaplashayotganida, o'g'lining ko'zlarida kinoya, aniqroq qilib aytganda, behurmatlik paydo

bo'lganini sezib qoldi. Birinchi marta payqaganida yuragi bir «shuv» etib ketdi. Keyin yaxshiroq qaradi. Kuzatishlari to'g'ri chiqdi. Ota-onalor orzusi, niyatlar uni mutlaqo qiziqtirmay qo'ygan, zarurat, odob nuqtayi-nazaridangina bularga qulqolar edi shekilli.

Eri ranjimasligi uchun Zaynabxon bu kuzatishlarini unga aytmadi, ichiga soldi. Keyin o'zini ovutdi, o'g'lidagi o'zgarishni yoshlikning o'tkinchi alomatlari, deb hisobladi. Ammo kech kela, birovlarnikida yotib qola boshlagach, qattiq tergashga o'tdi. Sanjar va'da berdi-yu, ammo va'dasining ustidan chiqmadi. Endi jiddiyroq gaplashish kerak shekilli. U shularni diliga tugib, ko'zlarini yumdi. Ammo qani uyqu kelsa. Shunday bo'lsa ham o'zini zo'rlab, anchagacha ko'zlarini ochmadi. Boshini ko'targanda, tong ota boshlagan, yonida eri shirin uxbor yotardi.

Zaynabxon oyoq uchida zalga o'tib, yana o'g'lining xonasiga kirdi. O'g'lining ko'rpa-yostig'i kecha qanday taxlangan bo'lsa, shunday turardi. Zaynabxon tutoqib ketdi. «Shundog' kunda ko'chada yuradimi odam?» Hozir agar Sanjar oldida bo'lganida, yuz-ko'zi aralash shapaloq tortib yuborardi. «Yo opalarinikidamikan?» Zaynabxon zalga chiqib, osma soatga qaradi. Endi olti bo'layotgan edi. Qizlari hali yotishgan bo'lishsa kerak, hozir bezovta qilmagani ma'qul. «Tentak bola! Erka bo'lmay ketgur! Qayoqlarda yuradi?» Zaynabxon erini uyg'otib yubormaslik uchun yotoqxonaga qaytib kirmadi. Hovliga tushib, o'choqboshiga bordi. Gaz plita ustiga tunuka choynakni qo'yib olov yoqdi. Ziyofatdan ortgan narsalar ikkita tog'orada turardi. Ochib ko'rdi. Kichik kuyovi qayerdandir yoptirib kelgan tandir somsaga kecha dili ketgan, lekin yeyolmagan edi. Shundan bittasini olib tishladi, ammo chaynolmadi.

Sanjar esiga tushib, ishtahasi ham bo'g'ildi. Zalga ko'tarilib, qizlariga telefon qila boshladi.

– Sharifa? – Bu kichkina qizi edi. – Uyg'otvordimmi? Yaxshi yetib bordinglarmi? Bolalar tinch ekanmi? Sodiqjon rosa charchagandir? Tinchlik. Ha, adang yotiptila. – Zaynabxon qizining savoliga javob berarkan, beixtiyor, yotoqxonaga qarab qo'ydi. – Ukang mabodo senikidamasmi? Yo'q? Zaripanikidadir-da? Mayli, yot Kelganda tilpon qilarman.

Katta qizi Zarifa ham onasini eshitib, yupatishga o'tdi:

– Ko'p ezilavermang. Sanjar katta yigit. O'rtoqlari birin-ketin uylanishvotti, bitta-yarimtasinikida yotib qolgandir? Hafiz akamlarga aytaman, hali turganlarida surishtirib beradilar.

Zaynabxon e'tiroz bildirdi.

– Qo'y, hozircha keraymas. Kechgacha kelmasa, unda tilpon qilarman.

U yana o'choqboshiga o'tdi. Kunduzi mahalladagi erkaklar chiqib qolishi, institutdan bitta-yarimta kelib qolishi mumkin. Hamma narsa bo'lsa ham issiq ovqat qilib qo'ygani yaxshi. Zaynabxon shunday o'y bilan muzxonadan uch-to'rt bo'lak sersuyak go'sht ajratib olib, qozonga soldi. To'ldirib suv quydi-da, qaynab chiqishini kuta boshladi. Beixtiyor xayoli yana o'g'liga qochdi. O'zini chalg'itish niyatida kechagi ziyofatni, sovg'a-salomlarni eslashga urindi, ammo dilidan baribir o'g'li ko'tarilmadi. Biron mashina urib yuborib, zim-ziyo ko'chada qonga belanib yotgan, bir yomon odamlar bilan yoqalashib, militsiyaga tushgan bo'lsa-chi? Militsiyaga tushsayam ishqilib omon bo'lsin. Suv biqirlab qaynab, qozondan toshib chiqdi. Zaynabxon olovni pasaytirib, tuxumdek ikkita piyozni to'g'rab qozonga soldi-da, tuvoqni yopdi.



Oshxonadan chiqqanda, kimdir ko'cha eshikni qoq-qandek bo'ldi. Zaynabxon beixtiyor «hozir!» deb yubordi va yugurib borib eshikni ochdi. Tavba, hech kim yo'q edi. Eshikni qiya yopdi-da, uyg'a ko'tarildi. Zalga kirganida, yotoqxonadan erining xurragi eshitilib, ko'ngli biroz yozildi. Yaxshi ham eri bor. Bo'lmasa yuragi tars yorilib ketarmidi. Ishqilib umri uzoq bo'lsin, tog'dek bo'lib uni suyab, hech narsada qiyinchilik sezdirmay kelyapti. Ba'zi-ba'zida yuragim deb qolsa, Zaynabxon o'zining yuragini hovuchlaydi, xavotirga tushib ketadi. Koshkiydi eri turguncha Sanjar ham kelib qolsa! Kechqurun uyda, yotibdi, deb aldadi. Endi so'rasha nima deydi? O'qishga ketdi, deydimi? Yosh bola yig'laydi, katta bola tig'laydi, deb bekorga aytishmagan ekan. Yig'lasa, yupatasan, mana bunday yuragingni tig'lab tursa, nima qilasan? Zaynabxon oyoq uchida yotoqxona oldiga borib, ichkariga qaradi, eri chalqancha yotib, tinch uxlardi. Eshikni ohista yopdi-da, nima qilishini o'ylab, yana hovliga tushdi. Ozgina sabzi to'g'raydi. Hech qanday suyuq ovqat oshning o'rnini bosmaydi.

Zaynabxon oshxona oldidagi o'rada bir tog'oracha sabzi oldi, keyin shoshmasdan archib, to'g'ray boshladi. Yaxshi ham shunday qilgan ekan, erining mahalladagi oshnalari birin-ketin kirib kelishdi. Hammalari uy kiyimida, birov kalish sudragan, birov turklarning latta kovushini ilgan... Birrovga chiqqan odamlar kechgacha o'tirishdi. Zaynabxon ularning chiqqanidan xursand bo'ldi. Eri ular ketguncha o'g'lini so'ramadi. Hamma tarqaganda o'zi o'g'lining xonasiga borib keldi-yu, ammo gap ochmadi. Zaynabxon yuragi g'urmishlab, katta qiziga telefon qila boshladi. Zarifaning eri hali ham qaytmabdi. Zaynabxon uyning ichida qiladigan



ishi yo'q edi, noiloj hovliga tushdi. Erining o'zi uni tinchita boshladi.

– Xunob bo'laverma. Kap-katta yigit. O'rtoqlari bilan yurgandir!

Zaynabxon xavotir olayotganini endi yashirma-di:

– Keyingi paytlar sal o'yinqaroq bo'lib ketdi.

– Hechqisi yo'q, yoshlik-sho'xlik. O'zini tiyib oladi. Faqat hadeb tergayverish kerak emas, uydan bezdirib qo'yamiz.

Zaynabxon bugun o'g'lining uyda tunamaganini aytmoqchi bo'ldi-yu, o'zini tiyib qoldi. Bo'lar ish bo'ldi, yuraklarini siqib nima qildim, dedi. Salqin tushdi. Er-xotin televizor qo'yishdi. «Tvin Piks» Amerika filmining navbatdagi seriyasini ko'ra boshlashdi. Film yarmiga borganda, erini uyqu bosa boshladi. Zaynabxon qistadi:

– Kep qolar... siz yota qoling.

Ammo Sanjar kelmadi. Yarim kechada telefon jiringladi. Erini ayab, u xlabelotgandek bo'lib yotgan Zaynabxon shoshib o'rnidan turdi. Obidjon aka ham uyg'oq ekan, boshini ko'tardi.

– Man olaman! – Zaynabxon yugurib zalga chiqdi.

U katta kuyovi Hafiz bo'lsa kerak, deb o'yladi. Kechqurun telefon qilmadi, balki hozir biron gap topgandir? Zaynabxonning yuragi birdan o'ynab ketdi. Yaxshi xabar bo'lsa, yarim kechada telefon qilmasdi. Zaynabxon beixtiyor osma soatga qaradi. Ikkidan qirq minut o'tibdi. Ishqilib tinchlik bo'lsin. Telefonda begona odamning ovozi eshitildi:

– Bemahalda telpon qilganim uchun uzr...

– Kim bu?! Qayoqqa tilpon qilyapsiz? – shoshib so'radi Zaynabxon.

– Obid akani chaqirvoring.



– Nima ishingiz bor edi? Kimsiz? – yana so'radi bo'shashib Zaynabxon. – Kimligimni ahamiyati yo'q. Eringizni chaqiring!

Bu gal notanish odam dag'alroq gapirdi. Zaynabxon noxush voqeа yuz bergenini va bu voqeа o'g'liga taalluqli ekanini darrov payqadi. «O'zi omon bo'lsin ishqilib!» dilidan o'tkazdi va erini chaqirdi.

– Obid aka! Sizni so'rashyapti!

Eri allaqachon uning yoniga kelgan, nima gapligni sabrsizlik bilan kutib turgan edi. Shoshib trubkani oldi.

– Eshitaman! Kim?

– Bizni tanimaysiz. Biz o'g'lingizni tanishlari-miz, – bo'g'iq ovoz bilan gapirayotgan odam xiril-lab kulgandek tuyuldi. – Mo'ltirab eshikka tikilib o'tiribsizlarmi er-xotin?..

Obidjon aka bo'shashib ketdi.

– Sanjar?! Nima bo'ldi unga?!

– O'g'lingiz otday. Mana, ro'paramda o'tiribdi. – U yana xirillab kulgandek bo'ldi. Obidjon aka trubkani qulog'iga mahkamroq bosdi. – Faqat... Bir oyog'iga zanjir solib, stolga bog'lab qo'yibmiz. Qochib ketmasin deb.

– Nega? Nega bog'lab qo'yibsizlar? Nima qildi u? Telefonni unga bering. Talab qilaman!

– O'zingizni bosing, aka. Talab qiladigan hozir biz! Ovoz birdan tinib qoldi.

– Gapiring! Nega jimb qoldingiz? Sanjar! O'g'lim!

– Nima gap o'zi, Obid aka? – erining qo'liga yopishib so'radi Zaynabxon. Eri javob bermadi.

– Gapiring! Nega jimsiz? – qichqirdi u trubkaga va butun vujudi quloq bo'lib, unga yopishdi. Bir necha daqiqa o'tgach, nimadir taraqladi-da, xirildoq ovoz paydo bo'ldi.



– Kechirasiz. Gapirasanmi, desam, o'g'lingizni gaplashgisi yo'q, sizlar bilan.

– Nega? – hayron bo'ldi Obidjon aka.

– Gap bundog', aka! – xirildoq ovoz chuqur nafas oldi. – O'g'lingiz yutqazib qo'ydi. Agar u sizga kerak bo'lса, sakkiz milyon opkelib berasiz. Bo'lmasa o'ligini Bo'zdan topasiz.

– Nima?! – Obidjon aka beixtiyor shunday deb yubordi. Aslida xirildoq ovoz egasining nima deganini yaxshi eshitdi, tushundi. Ammo og'zidan shu savoldan bo'lak hech narsa chiqmadi.

– Tushundingizmi? – qaytardi xirildoq ovoz. – Qaytaraymi?

– Yo'q, yo'q, tushundim, – dedi Obidjon aka, o'g'lini nima qilishlari mumkinligini yana bir bor eshitishdan qo'rqb. Ovoz egasining qanday odamligini bilmasa ham gap ohangidan dangalchiliga ishondi. – Qachon?

– Kechasi o'nda.

– Bugunmi?

– Shundog'. Bugun kechasi o'nda.

– Buncha pulni shu vaqtda...

Xirildoq ovoz uni bo'ldi.

– Okal! Boshqa shaharlardan kelgan birodarlar bor, shoshib turishibdi. Shuyam pul bo'ldimi hozir? Yo'q bo'lса, qarz-qurz qiling. Qayerga kelishingizni eshitvoling. Eshitvotsizmi?

– Eshitaman.

Obidjon aka telefon yonida turgan qalamni qo'liga olib, xotiniga ishora qildi. Zaynabxon darrov daftar olib kelib uzatdi.

– Mirobod bozorini bilasiz, – tushuntira boshladi xirildoq ovoz. – Vokzalga qaragan darvozani yonida suvratxona bor. Shuni orqasi yalanglik. Sho'tta turasiz.



Ropa-rosa o'nda. O'zimiz oldiyizga kelamiz. Okajon, tag'in melisa-pelisa qilib o'tirmang. Organga aytadigan bo'lsangiz, yo biron ta odamni boshlab kelsangiz, puldanam ajriysiz, o'g'lizdanam. Kelishdikmi?

Obidjon aka boshini qimirlatdi.

- Yaxshi.

- Yashang!

Obidjon aka bir narsa demoqchi bo'lib og'iz juftlagan edi, ulgurmadi, xirildoq ovoz egasi trubkani qo'yib qo'ydi.

Zaynabxon devorga suyanib, dag'-dag' titrardi. U chala-chulpa bo'lsa ham qanday falokat yuz bergenini anglagan edi.

- Eshitding-a? - dedi Obidjon aka.

Zaynabxon bo'shashganicha boshini egdi. Shuncha pul albatta ularda yo'q edi. Nari borsa uch million chiqishi mumkin. Qolganini qayerdan topishadi. Obidjon akaning esiga mashinalari keldi. Bir-ikki joyi urilgan bo'lsa ham besh yil burun olgan «Moskvich»lari bor. Motori soatdek ishlaydi, ballonlari ham o'ziniki, hech qayeridan yog', suv oqmaydi. Bozordagi pattachi o'rtog'i bir-ikki og'iz solgan edi. O'shandan qarz olsinmikin? Mashinani, mayli, istagan payti olib ketsin. Erining xayoli nimalarga ketganini sezib, Zaynabxon taklif qildi:

- Qizlarni chaqiraymi?

- Aytamizmi?

- Voy aytmay bo'ladimi? Hafiz, Sodiqjonlar qidirib yurishibdi-ku, Sanjarni. Keyin ikkalovlaridan shuncha pul chiqib qolar?

- Mayli.

Zaynabxon telefonga yopishdi.

- Yo'q, to'xta, - Obidjon aka uning qo'lidan ushladi. - Tong otsin. O'g'ling tirik. Shundan xursand bo'lishimiz

kerak. Bu bir. Ikkilamchi, ketini o'ylab ish qilishimiz kerak. Pul masalasiga kelsak... kechagi konvertlar ikki yarim millionmidi? Demak, cho'ntaklarni qoqish-tirsak, uch million o'zimizdan chiqadi. Yana besh million topish kerak. Buncha kuyovlarda yo'qdir, so'rab uyaltirmaylik. Raufxo'jaga mashinani sotamiz. Nima deding?

- O'zingiz bilasiz. Ishqilib, aldashmasmikin?

Obidjon aka gapni tushundi.

- Ularga pul kerak. O'g'lingni nima qilishadi?

Ziyofat payti ko'rinxmay qoluvdi, qimor o'ynagani ketgan ekan-da, kasofat.. Qimor ham ko'knoridek gap. Vaqtida o'ynamasa xumori tutadi.

Zaynabxon kecha erini aldagandan, bugun esa o'g'li emas, o'zi garov tushgandek uyalib, boshini egganicha o'tirardi. Tong yorishguncha u shunday o'tirdi. Eri ham o'rnidan turmadni. Ikkalasini-da noxush o'ylar o'z girdobiga tortib ketgan edi...

Peshingacha pulning hammasi jamlandi. O'zlarida bori, taxmin qilganlaridek, uch million chiqdi. Qolganini ikkala kuyov kechgacha topib kelamiz, desa ham Obidjon aka ko'nmadni. Raufxo'janiki naqd, dedi. Chindan ham o'ylagandek chiqdi. Raufxo'ja u og'iz ochishi bilan ichkari uyga kirib ketib, birpasda qiyiqqa besh million o'rabi chiqdi. Faqat, hammasi mayda, yog' bosgan, g'ijim pul edi. Uyda qizlari miliitsiyaga xabar berish haqida bir-ikki og'iz ochib ko'rishdi, lekin Obidjon aka rozilik bermadi. Gap o'g'lining hayoti ustida ketyapti, qimorbozlardan har narsa kutsa bo'ladi. Miliitsiya borligini bilib qolishsa, Sanjarni sog' qo'yishmaydi! Kichkina kuyovi birga borishni, yo borib bir chekkada turishni taklif qildi. Obidjon aka bunga ham ko'nmadni. U ancha tinchigan, ertalabkiga qaraganda xotirjam ko'rinardi. Katta



qizi osh qildi. Obidjon aka hech narsa bo'lmagandek, ishtaha bilan yedi.

– Har holda, ada, birga boray? – yana iltimos qildi ovqatdan so'ng Sodiqjon.

– Sizga dalda bo'lardi, – qo'shildi kuyoviga Zaynabxon.

– Tushunsalaring-chi. Ular bilan o'ynashib bo'lmaydi. Yonimda biron ta odam borligini sezishsa, Xudo ko'rsatmasin, o'ldirib qo'yishlari mumkin uni.

Hech kim boshqa bu haqda og'iz ochmadi.

Soat to'qqizdan chorak o'tganda, Obidjon aka hammani yig'di, xotiniga tilovat qildirib, o'rnidan turdi. To'g'ri kabinetiga borib, yozuv stoli tortmasida yotgan chust pichog'ini qini bilan olib, shimming cho'ntagiga solib qo'ydi. Har holda yaxshi odamlar oldiga ketayotgani yo'q. Keyin hovliga tushdi. Katta kuyovi «Moskvich»ni ko'chaga olib chiqdi.

– Mashinani darvoza oldiga qo'ying, ko'rinishi turadi, – maslahat berdi Zaynabxon.

Obidjon aka indamay rulga o'tirdi. Sumkani orqa o'rindiqqa tashladи. Har ehtimolga qarshi Zaynabxon erining to'nini sumka ustiga yopdi, shu bilan go'yo pulni berkitgan bo'ldi... Bozor oldi qorong'u, jimjit edi. Obidjon aka katta yo'ldan tushib, suvratxona eshigi og'zida mashinasini to'xtatdi. Bu yer ham qorong'u, faqat yuz qadamcha naridagi oziq-ovqat do'koniga ichida chiroq miltillab turardi.

Obidjon aka mashina soatiga qaradi. O'n minuti kam o'n bo'libdi. Tushsa, belgilangan joyga borsa bo'ladi. Eshikni ochib, bir oyog'ini yerga qo'yganda, o'ylanib qoldi. Pulni olib boradimi, yo ko'rishganlari dan keyin mashinada beradimi? Avval ko'rishish kerak, Sanjarni surishtirish kerak, keyin nima deyishsa, shunday qiladi.

Shu qaror bilan mashinadan tushib, eshikni qulfladi. Suvratxonani aylanib o'tib, yalanglikka chiqdi. Ro'parada, eski uylar o'rnilida qad ko'tarayotgan ko'p qavatli bino qorayib turardi. Atrof jim-jit. «Sanaymiz, deyishsa-ya?» – xayolidan o'tkazdi u yon-beriga bir-bir qarab chiqib... Unda mashinaga borishadi, chirog'i bor, sanash oson. Yo'q, sanashmaydi, shunday sumkani olishadi-yu, juftakni rostlashadi. Qo'rqishadi bu yerda sanashga...

Obidjon aka soatiga qaradi, ammo qancha tikilmasin, necha bo'lganini ko'rolmadi. Ko'rganda nima foyda edi? Vaqtida keldi. Buyog'i endi tonggacha bo'lsa ham kutadi. Boshqa iloji yo'q: «Sanjar, Sanjar. Nima qilib qo'yding, o'g'lim?»

Obidjon aka bugungacha o'g'lidan o'pkalamagan edi. Uning o'yinqaroq, ko'cha odami bo'lib ketylötganini payqagan, ammo bunday qaltis ishlar bilan shug'ullanadi, deb o'ylamagan edi. Qachon yo'lidan toydi ekan? Nega ota bo'lib u bilolmay qoldi?

Kimdir orqasida yengil yo'taldi.

– Keldingizmi?

O'girildi. O'zidan kichikroq, qotmadan kelgan odam bir qadam narida qorayib turardi. Yuz-ko'zi ko'rinnadi.

– Obkeldingizmi? – so'radi u. Telefonda boshqa odam gaplashgan edi.

– Mashinada, – dedi Obidjon aka.

– Obkeling!

– Sanjar qani?

– Uyga qaytishingiz bilan izingizdan kirib boradi.

Obidjon akaga javob yoqmadi. U shu yerning o'zida o'g'lini berishlarini kutgan edi. Demak, undan cho'chishdi, pulni olib kelmaydi, deb o'ylashdi. Nima qilish kerak? Beraveradimi? Aldashsa-chi? Sanjar omonmikan o'zi? O'ldirib yuborgan bo'lishsa-chi?



– Sanjarni olib kelasizlar. Qani u? – dedi u.

Yigit boshini o'girib, mashina tomonga qaradi. Obidjon aka shunda payqadi, u yuziga xotinlarning paypog'ini tortib olgan edi.

– Mashinada kim bor? – javob bermay so'radi yigit.

Ovozi tanishdek tuyuldi. Obidjon aka uni qayerdadir eshitgandek bo'ldi. Balki studentdir? Hozir hech narsaga ajablanmasa bo'ladi.

– Mashinada hech kim yo'q. Yolg'iz kelganman. Sizlar ham va'dalaringda turinglar-da!

– Pulni obkeling. Sanjar ketingizdan boradi.

Obidjon akaning pulni olib kelishdan boshqa iloji yo'q edi. Shunday qildi.

– Mana. Sakkiz million.

Yigit sumkani olib, indamay yangi tushayotgan imorat tomon yura boshladi. Shu tob uning kallasida sanchiq turdi.

– To'xtang! – u yigitning qo'lidagi sumkaga mahkam yopishib oldi. Yigit to'xtadi.

– Nima?

– Ishonmayman sizlarga! Men bilan borasan! Shu pul sizlarniki! Lekin o'g'lim uyga kelgandan keyin beraman!

Bilak ingichka, tesha sopidek edi. Obidjon aka hayron qolib, qattiqroq qisdi. Sumka yerga to'p etib tushdi. Yigit kuch bilan siltanib, qo'lini bo'shatdi. Engashib sumkani ko'tardi-da, bir sakrab o'zini chetga oldi. Obidjon aka uning qochmoqchi ekanini tushundi. Qochsa, yetib ololmaydi. Shu fikr xayolidan o'tib, «To'xta!» – deb qichqirdi, ammo yigit qulqol solmadi, yangi tushayotgan imorat tomon qocha boshladi. Obidjon aka shundan cho'chigan edi. Qochib ketsa, Sanjarni sog' qo'yishmaydi. U yigitning ketidan yugurdi, yigirma qadamcha bosib, yetgandek bo'ldi,



yelkasiga yopishib, to'xtatishga urindi. Yigit unga qaraganda ancha epchil edi, faqat tez chopishga sumka xalaqit berardi. U siltanib yelkasini bo'shatmoqchi bo'lganida, nimadir chap biqiniga sanchildi, nafasi tiqilib, bo'shashganicha, cho'kkalay boshladi.

Obidjon aka qo'lida paydo bo'lib qolgan pichoqni oyog'i ostiga tashlab, yigitga yopishdi. Uning pichoq urish xayolida yo'q edi, yigitning qochayotgani sabab bo'ldimi, tutolmayman, deb cho'chidimi, qanday pichoqni olib, biqiniga bigizdek sanchdi – bilmaydi.

– To'xta! – beixtiyor qichqirdi u yana, shundagina yigitning cho'kkalayotganini ko'rdi, shoshib qo'lting'idan oldi.

– Ada! – dedi kutilmaganda yigit. – Ular o'zimni yuborishgan edi, yolg'iz kelmaysiz, deb...

– Sanjar?! Senmisan, Sanjar?! – qichqirib yubordi Obidjon aka uni bag'riga bosgancha.

– Ada... Kechiring...

– Sanjar! O'g'lim! Nima qilib qo'ydim o'zi?! – Obidjon aka ehtiyyotlik bilan o'g'lini yotqizib, yoniga cho'kkaladi. – Sanjar!..

– Ada! Kechiring.

Uning oxirgi iltijosi shu bo'ldi.

Fonarlarni yoqib, bir guruh militsiya xodimlari bilan Sodiqjon yetib kelganda, u o'glining qonga belangan jasadi ustida o'tirardi.

– Sanjardan ajrab qoldik, – dedi u past ovozda... – O'zim, o'z qo'lim bilan o'ldirib qo'ydim!..

Shunday dedi-yu, yuz bergen fofiani endi tushunib yetdi shekilli dodlab yubordi:

– Sanjar! O'g'lim! O'g'ilginam!

Uning faryodidan tun larzaga keldi.



## HOTAMTOY

(Ertaknamo hikoya)

**X**olposhshaning dadasi o'gay onasi bilan bozordan yangi palto, etik olib kelib berishdi. Etik balland qo'njli, ichi jun, issiq edi. Rangi ham chiroyli, paltosiga o'xshagan och qizil. Ammo palto allambalo edi. Yoqalari keng, tikkatik, qaytarma cho'ntaklari katta. Qizini yangi kiyimda ko'rib, dadasining ko'zlaridan yosh chiqib ketdi.

– Ona qizim!.. – dedi u va quchoqlab, peshonasidan o'pdi.

– Umringiz uzoq bo'lsin, katta qiz bo'lib, shunaqa paltolardan qo'sha-qo'sha kiying! – dedi o'gay onasi uning yelkasiga qoqib. – Shunday ko'rdim-u, mahkam yopishdim! Dadangiz ham savdolashib o'tirmadilar, so'raganini berdilar-qo'ydilar. Bo'lmasam boshqalar ilib ketardi!...

– Rahmat, – dedi uyalib Xolposhsha va eshik yonidagi toshoyna oldiga borib, o'ziga qaradi.

Hech kim uni oltinchi sinf o'quvchisi demasdi, yangi kiyimda. Kamida to'qqizinchi sinf o'quvchisi, kap-katta qiz der edi.

– Ko'chaga chiqib kelsam maylimi? – so'radi u oynadan ko'z uzmay.

– Boring, tasaddiq, aylanib keling, – dedi o'gay onasi.

Xolposhsha ehtiyyotlik bilan oyoq bosib, ko'chaga chiqdi. Qishning o'rtasi bo'lishiga qaramay, kunlar uncha sovuq emas edi. Ammo har kuni bo'lmasa ham, kun ora, ikki kunda bir qor uchqunlab qolar, yerni yupqa muz qoplar edi. Hozir ham havo bulut, quyosh tafti sezilmas, ammo yer quruq edi. Xolposhsha eshikni yopib, katta ko'cha tomon yurdi. Dam olish

kuni bo'lganidanmi, ko'chada hech kim ko'rinas, har kuni ularning derazalari tagida o'ynab, gaplashib turadigan mahalla qizlari bugun ko'rinasdi. «Balki ular katta ko'chadadir?» - o'yladi o'zicha Xolposhsha. Ammo katta ko'chada ham o'rtoqlari ko'rinsadi. Uy-lariga kirgani esa uyaldi. Yangi kiyimlarini ko'rsat-gani kelibdi, deb o'ylashlari mumkin. Hozir yangi kiyim kiygan odam birovga yoqadi, birovga yoqmaydi.

Xolposhsha orqasiga qaytdi. Etik kattaroq, lopil-lab turardi. Lekin baribir yangi, issiq. Qishning yarmini u yupqa yozgi tuflida, kalishda o'tqazdi. Endi etikni maza qilib kiyadi, uchiga ozgina paxta tiqib qo'ysa bo'ldi, lopillamaydi. Palto bo'lsa, xuddi quyib qo'ygandek. Buning ustiga qalin ham emas, yupqa ham emas. Ayni Toshkent qishlarida kiyadigan palto.

Uyiga ikki hovlicha qolganda, o'rtog'i Zulayhoning singlisi temir darvozalaridan mo'ralab qichqirdi:

- Xolposhshapa! Moro bo'sin!

- Rahmat! - dedi og'zi qulog'iga yetib Xolposhsha.

Ertasiga maktabga yangi kiyimlarini kiyib bordi. Ammo sinfida uni hech kim tabriklamadi, e'tibor ham bermadi. Faqat ona tili o'qituvchisi yozuv taxtasi yonida osig'liq turgan kiyimlar orasida uning paltosini ko'rib maqtadi:

- Kimniki bu? Chiroqli ekan!

Shunda uch-to'rtta qiz baravariga:

- Xolposhshaniki! - deyishdi.

- Buyursin. Eskitib-eskitib kiy, qizim! - dedi o'qituvchi.

Bir hisobda o'rtoqlarining uni yangi kiyimlar bilan tabriklashmagani ham yaxshi bo'ldi. Uyalib ketardi, o'zini qayoqqa qo'yishni bilmay qolardi. Tanaffus paytlari qizlar paltolarini xuddi kattalardek yelkalariga



tashlab, dahlizga chiqib ketishardi. Xolposhsha bunday qilmadi. Lekin har gal sinfga qaytganida, beixtiyor paltosiga qarab qo'yardi. Palto chiroqning yorug'ida turli rangda tovlanib, ko'zini qamashtirardi.

Katta tanaffusdan keyin sinfga kirib, paltosiga qaradi-yu, yuragi orqasiga tortib ketdi. Kimdir hafsala bilan yenglari, ikkala cho'ntagi, yoqalarini oq bo'r bilan chizib chiqqan edi. Xolposhsha shoshib paltoni ilgakdan oldi, ammo nima qilishini bilmay, joyida turib qoldi. Hech kimga qaramasa ham, ko'pchilik, butun sinf unga tikilib turganini sezdi. Tomog'iga kelib tiqilgan yig'ini zo'rg'a ushlab, partasi tomon yuraboshlagan edi, o'qituvchi kirib uni to'xtatdi.

– Dars payti palto bilan qayoqqa ketayapsan? Ilib qo'y joyiga!

Xolposhsha shunday qildi. Ammo dars tugaguncha ko'zlarini oqqa bo'yab tashlangan paltosidan ololmadi.

Qo'ng'iroq chalinganda, u yugurib borib paltosini oldi-da, partasi ustiga yozib, ro'molchasi bilan arta boshladi. Qizlar uni o'rab olishdi, dahlizga chiqishmadi.

– Xafa bo'lma, dog' bo'lmaydi, – dedi kimdir.

Kimdir Xolposhshani yoniga o'tib, paltoning ikkinchi tomonidan arta boshladi.

Nihoyat darslar tugadi. Ammo Xolposhsha ketishga shoshilmadi. Paltosini sinchiklab qarab chiqdi. Oqarib turgan joylarini yana artdi. Hech qayerda dog' qolmaganini ko'rganidan keyin sinfidan chiqdi.

O'rtoqlari allaqachon ketib bo'lishgan edi. U katta ko'chani kesib o'tib, o'z ko'chalariga burilganda, oldidan ikkita yigit chiqdi. Ikkalovi kalta palto kiygan olifta yigitlar edi. Xolposhsha ularni ko'rib, beixtiyor to'xtab qoldi. Yuragi dukullab urib ketdi. Yigitlar unga yaqinlashib, iljayishdi. Bittasi uning yelkasiga

bir qo'lini qo'ydi-da, ikkinchi qo'li bilan paltosining tugmalarini yecha boshladi.

– Nima qilayapsiz? – qo'rquv aralash so'radi Xolposhsha.

– Ovozingni o'chir! – ilonga o'xshab vishilladi ikkinchi yigit. Shu payt nimadir chirq etdi. Uning qo'lida pichoq yaraqlay boshladi. – Baqirsang, biqiningdan darcha ochib qo'yaman.

U gapini tugatguncha birinchi yigit Xolposhshaning ustidan paltosini yechib bo'lgan edi.

– Etigi ham yangiga o'xshaydi, qara! – dedi ikkinchi yigit.

– Yech! – do'q qildi birinchi yigit. – Yo o'zim yechib olaymi?

Xolposhsha qo'llari qaltirab, etigini yecha boshladi.

– Jon akalar! Rahm qilinglar. Boshqa kiyadigan hech narsam yo'q. Dadam zo'rg'a olib bergenlar kecha.

– Ovozingni o'chir! Omon qolganingga sevin.

Qayoqdandir «Jiguli» mashinasi paydo bo'lib, yonlarida to'xtadi. Ikkala yigit palto bilan etikni qo'ltiqlab, o'zlarini mashina ichiga otdilar. Mashina chiyillab, siltandi-da, uchib ketdi.

Xolposhsha yupqa paypoqda, jigarrang ko'ylagi, qora fartugida qoldi. Dahshatli voqeа sodir bo'lganini u endi tushundi, ammo ko'ziga yosh kelmadи. Mashina ketgan tomonga qaraganicha, joyidan qimirlamadi.

Ikkinchi smenadagi bolalar gur etib oldidan o'tishganida, o'ziga keldi. Uyiga oyog'i tortmadi, cho'chidi. Og'ir kasallikdan so'ng, besh yil oldin qazo qilib ketgan onasi tirik bo'lganida, balki cho'chimasdi. O'gay onasidan ham cho'chigani yo'q, ko'proq uyaldi. U dadasidan ham ko'ra, shu o'gay onasi xarxashasi bilan yangi etik, palto olib kelishganini bilardi. O'gay onasi uni yaxshi ko'rardи. Shunday bo'lsa

ham u maktabiga qaytdi. Dars boshlangan, hovlida hech kim yo'q edi. U dahlizga ko'tarilib, o'z sinfi tomon yurdi. Baxtiga sinf bo'sh edi. Ichkariga kirib, eshikni yopishi bilan xo'rligi kelib ketdi, o'zini to'xtata olmay, yig'lab yubordi. Ancha yig'ladi. Ro'molchasi jiqqa ho'l bo'ldi. Keyin o'z joyiga o'tirib, lo'qillab og'riy boshlagan boshini qo'llari ustiga qo'ydi.

O'gay onasi, ona tili o'qituvchisi, yana allakimlar uni qidirib topishganda, qorong'i tushgan, yuz-ko'zлari, butun badani olovdek yonardi.

- Bosh-ko'zingizdan sadaqa, bolam! Shunga kuyasizmi? Bitta palto ekan-ku, men sizga o'ntasini olib beraman. Faqat qo'rqtitmang, ko'zлaringizni oching, bolajonim!

Alahsirab yotgan bo'lsa ham Xolposhsha o'gay onasini tanidi.

- Kechiring, oyи...

- Qizginam, bolajonim!

O'gay onasi uni quchoqlab, issiq peshonasi, yonib turgan lablaridan o'pdi. Xolposhsha ikki hafta isitmalab yotdi. Keyin sekin o'ziga kela boshladи. Ko'zлari tiniqlashganini, issig'i bosilganini ko'rib, o'gay ona o'zida yo'q sevinib ketdi.

- Juda qo'rqtib yubordingiz-ku, qizim, - dedi u jilmayib. - Kasalxonaga olib ketishmoqchi edi, bermadim. Uyda o'nglanib ketasiz.

U Xolposhshaning yoniga o'tirib, muzdek peshonasiga qo'lini qo'ydi. Xolposhsha minnatdorlik bilan ko'zlarini unga qadadi. Yuradigan bo'lganida militsiyadan, prokuraturadan kelishib, o'sha o'g'ri yigitlarni so'rashdi. Xolposhsha ularni tanimasligini, ikkalovi jinsi shim - kalta paltoda ekanlari, boshlarida qunduz telpak, oyoqlariga to'tirang kedi ki-



yib olishganini, bittasining pichoq o'qtalganini, in-gichka qora mo'ylovi borligini aytib berdi.

- Ko'rsangiz taniysizmi? - so'rashdi undan.

- Tanisam kerak. Taniyman, - dedi Xolposhsha.

Hovliga tushib, ko'chaga chiqadigan bo'lganida birdan sovuq tushdi. Chilla chiqishiga oz qolgan bo'lsa ham bu kutilmagan sovuq qalin qor olib keldi. Surunkasiga ikki kun yog'di.

O'sha kunlari undan xabar olgani kelgan tuman shifokori bilan o'gay onasining gaplarini eshitib, kayfiyati buzilib ketdi.

- Iltimos, opo'si. Spravkasini cho'zib bering. Oyog'ida hech narsa yo'q, bu qorda kiyadigan. Yaksanbada bozorga borib oyog'iga, eniga u-bu olib beraman. Ozgina pul yig'ib qo'ydim.

- Bo'pti, opa. Xafa bo'l mang, - dedi vrach. - Eng muhimi, qizingiz oyoqqa turdi.

O'sha kuni Xolposhsha deyarli uxlolmay chiqdi.

Dadasi, o'gay onasiga u juda achinib ketgan edi. Xayolidami, tushidami o'sha olifta yigitlarni ko'rди. Qidirib topdi. Ikkalovi bilan mushtlashib, kiyimlarini qaytarib olib keldi. O'g'ri yigitlar yig'lab, undan ke-chirim so'rashdi, ikkinchi bunday ahmoqlik qilmaslikka va'da berishdi. Shu tushi yo xayoli ta'siridami, u tongga yaqin uxbab qoldi. Uyg'onganida uyda hech kim yo'q edi. Oldida bir tovoq qovoq somsa bilan choy turardi. Choynakning tagiga xat qistirib qo'yilgan edi.

«Xolposhsha, ishga bormasam bo'l maydi. Dadangiz ham ketdilar. Tushlik ovqat qozonda. Isitib iching».

Xolposhsha o'rnidan turdi. Yuvinib endi choy ichgani o'tirgan edi, ko'cha eshik taqilladi.

Xolposhsha oyisining ro'moliga o'ranib, hovliga tushdi.



– Kim? – so'radi u.

Hech kim javob bermadi. To'pig'igacha qorga botib Xolposhsha eshikka bordi.

– Kim?

Yana hech kim javob bermadi.

U eshikning zanjirini olib, ko'chaga qaradi.

Hech kim yo'q edi.

Xolposhsha hayron bo'lib, eshikni zanjirladi. Orqasiga o'girilganda eshikning yonida turgan tugunga ko'zi tushdi. Tugunning ustida xat bor edi. Konvertni yirtib, o'qiy boshladi:

«Hurmatli Xolposhsha! Boshingga tushgan tashvishdan, anchagina betob bo'lib yotganidan xabrimiz bor. Qayg'urma. Endi senga hech kim tegmaydi, hech kim xafa qilmaydi. Lekin bilib qo'y, hali bu hayotda kuchi ojizlargagina yetadigan noinsoflar, haromxo'rlar oz emas. Ming afsus, ularning bir guruhi sen duch kelib qolding. Endi xavotir olma. Yaxshi o'qi. Sarpolarine muborak bo'lzin. Hotamtoy».

Xolposhsha qattiq hayajon bilan uya ko'tarilib, tugunni yechdi. O'g'ri yigitlar yechib olgan paltodek yumshoq, issiq qizil palto chiqdi undan. Paltoning tagida tasmalik, xuddi shunday qizil rang etik turardi. Uning tagida esa sellofanga o'ralgan bir nechta ko'ylak bor edi. Tugunning eng tagida qog'oz quti ko'rindi. Darrov ochdi. Bu yelkaga tashlab yuradigan, xuddi etigining rangidagi yarimoy nusxa sumka edi.

Xolposhsha negadir cho'chib, narsalarni qo'yidda, xatni yangidan o'qib chiqdi. Xat unga yozilganiga, narsalar unga olib kelinganiga shubhasi qolmadi. Avval uyalinqirab etikni kiydi. Loyiq keldi. Keyin paltoni kiydi. Palto ham xuddi unga atab tikilgandek edi.

Toshoyna oldiga borib, o'ziga qaradi.

Anchagacha ko'zlarini uzolmay turdi. Keyin shu turishida boshiga oyisining ro'molini tashlab hovliga tushdi. Oyoqlari ostidagi qalin qor g'archillab ketdi.

Ko'chaga chiqdi. Ko'chada hech kim ko'rinnmadni. Katta ko'chaga borgani qo'rqi. Birpas u yoq-bu yoqqa qarab turdi-da, ohista uyiga kirmoqchi bo'lganda, kimdir uni chaqirdi.

– Xolposhshapa!

Ikki hovli narida turadigan o'rtog'i, darvozalari oldida unga qarab turardi.

– Moro bo'sin!

– Rahmat, – dedi Xolposhsha va shuncha kundan beri birinchi marta jilmaydi... – Rahmat!...

Xayolidan notanish mehribon odam – Hotamtoy o'tdi. U bunday odamni ertaklarda eshitgan edi. Haqiqiy hayotda ham bor ekan. Uning chin yurakdan aytgan ikkinchi rahmatini shu haqiqiy hayotdagি Hotamtoygа bag'ishlagan edi.

1993

## MEHMONDORCHILIK

Bu voqeaga ancha bo'ldi. Lekin har doim do'st-u birodarlar bilan mashinada mehmondorchilikka bora-digan bo'lib qolsak, esimga tushadi, butun vujudimni qandaydir ko'tarinki ruh, iliqlik qoplaydi. Shu elning farzandi ekanligimdan, shu tuproqda kindik qonim to'kilganidan g'ururlanib ketaman.

Saratonning o'rtalari edi. Kunlar issiq, ertalabdan namiqa boshlagan badaningda, dimog'ingda yozning issiq nafasini sezibgina qolmay, hatto jimirlashini ko'rasan odam, ko'z oldingda o'nlab, yuzlab lovullagan halqachalar paydo bo'lib, kipriklarining bir-biriga yopishtiradi, peshonangdan, quloqlaringning orqa-



sidan oqib tushayotgan issiq ter tomchilari g'ashingga tegadi, artasan, artgan joylari esa, achitib og'riy boshlaydi. Ko'ngling shabboda esib turgan salqin joy, muzdek havo istab qoladi. Shunday kunlarning birida, do'stim Umid Nazarov bizni Qorasaroyga mehmonga olib boradigan bo'lди.

- Bormasak bo'lmaydi. Yakshanba kuni kelamiz, deb va'da bergenman. Xursand bo'lasizlar. Hovlining o'rtasidan katta ariq o'tgan. O'rik, olma pishib yotibdi! Salqin!.. G'ir-g'ir shabada!..

Umid Qorasaroydan o'tib ketayotganda mashinasi buzilib qolib, tasodifan shu hovlining egasi tuzatib bergenini, yozuvchi odam bilan tanishganidan nihoyatda xursand bo'lib ketganini og'zi to'lib gapirib berdi. Tolibjon, tanishgan odamining ismi shunday ekan, biz tengi bo'lib, jamoa xo'jaligi garajining mudiri ekan. Keraksiz, deb tashlab yuborilgan temirtersaklardan quling o'rgilsin bir mashina yasab olibdi. Umid mashinaning qandayligini, mashina egasining qo'li ochiq, tanti bir odamligini gapirib, bizni qiziqtirib qo'ydi. Qorasaroyga borishga kelishdik.

Yakshanba kuni ertalab to'rt er-xotin ikkita mashinada yo'lga tushdik. Erkaklar Umidning mashinasiga o'tirishdi, ayollarni mashinam yangiroq bo'lgani uchun men olib ketdim. Bir-ikki joyda to'xtab, bir soatdan so'ng Qorasaroyga kirib bordik. Umid qishloqning markaziga yetganimizda, mashinasini to'xtatib, tushdi-da, menga o'tiraveringlar, degandek ishora qilib, somsaxona oldida to'planib turgan yigitlar yoniga borib so'rashdi. Kimdir to'pdan chiqib, unga nimalarnidir tushuntirdi. Umid minnatdorlik bilan qo'lini qisib xayrashdi.

Aftidan adresni aniqlab oldi nazarimda, keyin menga ketdik, degandek, qo'lini silkitib, odati bo'yicha

sakrab mashinasiga o'tirdi. Shu zahotiyoy ostidagi mashina pishqirib, orqa g'ildiraklarini chiyillatib yo'lga tushdi. Chang tarqashini biroz kutib, men ham gazni bosdim.

Qorasuv daryosi ustidagi keng taxta ko'prikdir o'tib, o'ngga burildik. Shu yerdan dala havosi boshlandi. Biz burilgan bog' ko'cha katta yo'ldan ancha past edi. Ikki tomoni terakzor, ariqlarda sharqirab suv oqib turibdi. Ko'pgina imoratlar yaqinda ko'tarilgan bo'lsa kerak, qora suvoqdan chiqmagan, tomlari endi yopila boshlagan edi. Yangi qurilayotgan imoratlarning dilni ochadigan jozibasi bo'ladi. Shu jozibaga yo'lning chetida qorni to'yib kavshanib yotgan sigir, ariq labida erinib o't chimchilayotgan qo'y-qo'zilar qo'shib, odamga tinchlik, xotirjamlik bag'ishlaydi.

Shu ko'chadan qancha yurdik, bilmadim, har holda, uzoq yurmadik. Umid hali bo'yalmagan, ammo aliflab qo'yilgan olataroq darvoza yonida mashinasini to'xtatdi. Derazadan qo'lini chiqarib, keldik, degan ishora ham qilib qo'ydi. Men uning mashinasi zangori «Moskvich» orqasiga o'tib to'xtadim.

Umid hech kimni kutmasdan dadil qadamlar bilan ochiq darvozadan ichkariga kirib ketdi. Orqasidan biz ham darvoza tomon yurdik. Ammo ichkariga kirmadik.

– Assalomu alaykum-m! – baland ovozda kim balandir so'rashdi Umid. – Mehmonlarni qabul qilasizlarmi? Mana keldik!

– Assalomu alaykum!.. Kelinglar! – ayol kishining yumshoq ovozi eshitildi.

«Qani yuringlar!» – degandek men ichkariga ishora qilgan edim, ayollar ko'nishmadi. Mezbonning keli-shini kutadigan bo'ldik.

– Yaxshimisiz? Tinchmisiz? Xo'jayin qanilar? Yo bizni chaqirib, o'zlari boshqa yoqqa ketib qoldilarmi?



Umid sho'x kulgi aralash cho'rt-cho'rt kesib gapi-rardi. Ayol uning gaplariga javob bermadi.

– Juda yaxshi qilibsizlar-da! Qani ichkariga.

– Ko'pchilik bo'lib kelganmiz, ikki mashina!

– Qani boshqalar? Chaqiraylik ichkariga!

Shu zahotiyoq ro'paramizda yoqimli ovoz egasi, bizning xotinlardan yoshroq, xushbichim juvon, uning ketida og'zi qulog'iga yetib iljaygan Umid paydo bo'lishdi. Uning xursandligi a'zoyidan bilinib turardi.

– Yo'lakda turib qolibszilar-ku? Qani, ichkariga! Assalomu alaykum! – Juvon eski qadrdonlardek, ayollar bilan quchoqlashib ko'risha ketdi. Keyin biz, erkaklar bilan qo'l berishib so'rashdi-da, hammamizni ichkariga boshladi. Derazalari ko'chaga qaragan uydan o'tishimiz bilan katta hovli paydo bo'ldi. Umid to'g'ri gapirgan ekan. Hovli serdaraxt edi. Olma, shaftolilarning shoxlari egilib yotardi. Uyning oldidagi baland so'ridan toifi, shivilg'oni, qirmizi uzum boshlari yoqutdek, oltindek tovlanib turibdi.

Juvon ravonga ko'tarilib, uyning ichiga taklif qildi.

– Hovlida o'tiraqolsak-chi? – taklif qildi Umid.

Ammo juvon ko'nmadi.

– Bitta xonani muzdek qilib qo'yganman. Qani, marhamat!

Biz oyoq kiyimlarimizni yechib, nimqorong'i xonaga kirdik. Muzdek havo gup etib dimoqqa urildi. Juvon baland derazalarga tortib qo'yilgan pardalarni yig'ishtirdi. Xona yorishib ketdi. U kattagina edi. Chor atrofga ko'rpa chalar yozib qo'yilgan, burchaklarda yostiqlar bir-birining ustiga taxlog'lik edi. Juvon xona-ning o'rtasidagi xontaxta ustiga dasturxon yozdi. Hammaning o'tirishini kutib turib, o'zi ham cho'k-kaladi-da, qo'llarini fotihaga yozdi.



– Xush kelibsizlar, mehmonlar! – dedi u va o'rnidan turdi. – Birpas o'zinglar o'tirib turinglar. Men hozir!

U qo'llarini ko'kragiga qo'yganicha, orqasi bilan chiqib ketdi.

Unga qarab turgan Umid, o'zini tiyib turolmadi. Xotiniga o'girilib so'radi:

– Siz ham shunday orqangiz bilan yura olasizmi?

Xotini Surayyoxon, birovdan gap qarz oladi-ganlardan emas edi, shartta uzib oldi:

– Shunaqa katta uy oling, keyin sinab ko'rasiz!

Beixtiyor kulgi ko'tarildi. Hammamiz Umidning xotini, ikkita bolasi bilan bir xonalik seksiyada anchadan beri qiynalib yashab kelayotganini bilardik.

– Tolibjon maladets, ha, uyni boplabdi. Katta qilib yuboribdi, azamat! Hammamiz chindan ham shiftlari baland, derazalari keng imoratni havas bilan tomosha qila boshladik. Ammo hali bitmagan, qorasuvvoqda edi. Anchagacha juvon yo'q bo'lib ketdi. Beixtiyor derazadan hovliga qaradim. Hovlida ham u yo'q edi.

Bir mahal u qo'lida katta mis barkash ko'tarib kirdi. Chetlariga gir aylantirib, jaydari undan yopilgan qip-qizil semiz tandir noni terib chiqilgan, barkash o'rik, olma, uzum bilan to'la edi. Juvon barkashni xontaxtaning o'rtasiga qo'yib, oldidagi nonni ushatdi.

– Qani, o'zinglar ushatinglar. Kecha opam yopib ketganlar. Ichida piyozligi ham bor. Shaftoli olib kirmadim. Uni tagida uzib yegan yaxshi. Hali hovliga chiqqanda shunday qilasizlar. Yo olib kelaymi?

Biz hozirjavoblik bilan hammamiz baravar yo'q, dedik. Hali hovliga tushganimizda yeymiz, dedik.

– Bo'lmasa shularni ermak qilib turinglar. Men hozir!..

Juvon yana epchillik bilan o'rnidan turib, chiqib ketdi.



Shu zahotiyoq u o'choq boshida paydo bo'ldi. Ko'p o'tmay qovurilgan piyoz, go'sht hidi dimoqqa urildi. Men beixtiyor o'sha tomonga qaradim. Ayol ikkinchi qozon ostiga ham o't yoqib yuborgan edi.

Juvonning ochiq chehrasidan, ko'rsatayotgan iltifotidan erkalanib ketib, o'zimizni qo'yib yubordik. Avval ayollar bir-birlari bilan shivirlashib, hovliga tushishdi. Juvon yugurib ularning oldiga keldi, nimalarnidir gapirib kuldirdi. Hammalari qayoqqadir g'oyib bo'lishdi, keyin ularni shoxlari tirogovich bilan ko'tarib qo'yilgan oq zarg'aldoq shaftolilarning tagida ko'rdik. Biz ham birpas hangomalashib, tashqariga chiqdik.

Umid juvonning oldiga, o'choq boshiga bordi.

- Yordamlashib yuboraymi? Qo'sh qozonda nimalar qilayapsiz? Juda katta harakat qilib yubordingiz-ku?!

- Hali hech harakat qilayotganim yo'q. Ozib-yozib kelibsizlar, oyoqlaring ostida qo'y so'ysam arziydi!..

- Xo'jayinsiz o'tirganimiz qiziq bo'layapti.

- Kelganinglarni bilib, boshlari ko'kka yetadi u kishining. Qani ovqatni suzaman. Yuringlar!

Juvon gapirtirgani qo'ymay, bizni yana ichkariga boshladи.

- Chaqirib qolishgan bo'lsa kerak-da xo'jayinni? Oti nima, Tolibjonmidi? - dedim Umidga.

- Shunaqaga o'xshaydi. Jamoa xo'jaligining jogniga oro kiradigan yigit-da! Qo'li gulligi uyidan ham bilinib turibdi.

Men unga qo'shildim. Umidning o'rtog'iga xotindan ham buyurgan ekan. Uning ham qo'li gulligi shunday, har bir harakatidan sezilib turardi. Juvon ikkita chur-qur laganda sellik, serpiyoz kurka go'shtini olib keldi. Umid ishtaha ochadigan go'zal ovqatni ko'rib, o'zini tutolmadi.

– Kelin bu, Tolibjonning yashirib qo'ygan dori-laridan bormi?

– Voy, esim qursin! Hozir!

Juvon zum o'tmay aroq, konyak to'la shishalarni ko'tarib kirdi.

– Marhamat. Boya esimga kelmaganini qarang! Olinglar! Ovqat sovumasin. Men hozir!..

U shoshib chiqib ketdi. Ko'p o'tmay men uni yana o'choq boshida ko'rdir. «Xo'jayinining yo'qligini hisobga olmaganda hammamiz xursand edik. Ayolning mehmondo'stligidan va ko'nglimizni olganidan Umid hammamizdan ko'proq xursand edi. Ikki gapning birida Tolibjonne, uning ajoyib usta ekanligini maqtar, shunday odamning shu juvondan boshqa xotini bo'lmasligini, ikkalovlari xuddi uzukka tushgan ko'zdek ekanlarini qayta-qayta takrorlardi. O'sha kuni qanday kech kirganini bilmay qoldik. Ayollarning esiga uyda qolgan bolalari, bizning esimizga esa ertaga qiladigan ishlarimiz tushdi. Ayolning qistashiga qaramay, to'ydagidek ajoyib oshdan so'ng, o'rnimizdan turdik.

– Bu hisobmas, boshqa kelasizlar, – dedi ayol fotihadan so'ng. – Shoshib qoldim...

– Iyya! – hayron bo'ldi Umid. – Tolibjon ayt-movdilarmi?

Ayol hayron bo'lib, boshini ko'tardi.

– Tolibjon? Qaysi Tolibjon?

Hammamiz yalt etib Umidga qaradik. U ko'zlarini katta ochib, ayolga tikilib qolgan edi.

– Avto... avtomobilchi Tolibjon-da? – so'radi ni-hoyat.

– Voy! Tolibjon Haydarovmi? Zavgarimiz? – ayol darhol javob berdi. – U kishi ikki ko'cha narida turadi.



- Shuni nega boy aytmadningiz? - jindek zarda va o'kinch bilan so'radi Umid.

- Voy mehmondan aziz odam bor ekanmi? Omon bo'lganlarida, o'n chandon yaxshi kutardilar. Hali ham kelganlaringdan ruhlari shod bo'ladi, bilaman.

Umid hammamizni o'tirishga taklif qildi. Shivirlab tilovat qildi. Ko'chaga chiqqanimizda ayolning ismini so'radi.

- Umida, - dedi ayol.

- Adash ekanmiz. Aka-singil bo'ldik endi, Umidaxon. Biznikiga albatta borasiz. O'zimiz Surayyo bilan kelib olib ketamiz.

Ayol boshini egib jilmaydi.

Hammamiz u bilan ham uyalib, ham g'ururlanib xayrplashdik. Katta yo'lga chiqqanimizda, Umid mashinasini to'xtatib, tushdi-da, mening mashinam oldiga, ayollar bilan maslahat qilgani keldi.

- Bo'lar ish bo'ldi. Meni kechiringlar. O'n minutga bo'lsa ham Tolibjon zavgarnikiga kirib ketaylik. Men-dan ko'ngli qolmasin.

Ayollar rozilik berishdi. Avtomobilchi Tolibjon hech qayoqqa chiqmay, ertalabdan beri bizni kutib o'tirgan ekan. Yangidan mehmonorchilik boshlandi. Hech kim ovqatga qaramadi, hamma biri olib, biri qo'yib, umrlarida birinchi marta ko'rganlari begona ayolning mehmondo'stligini gapirardi.

Umida hammamizning eng yaqin odamimiz bo'lib ketgan. Tez-tez uchrashib turamiz. Umid xotini bilan uni uzatishni o'ylab, ko'p harakat qildi, ammo Umida ko'nmadi. Bitta qizi bor. Biz mehmonga borganimizda u lagerda edi. Hozir universitetni bitirayapti. Bizning yordamimiz shu bo'ldi. Umidaning fikri-zikri qizida, uning kelajagida. Qiz xuddi onasining o'zi - harakatlari,

qarashlari, zehni va aqli bilan biz bundan yigirma yil burun ko'rgan juvonni eslatadi.

1992

## QAYTAR DUNYO

**Y**aqinda yuz bergen bir voqeа sabab bo'lib, otamni eslab ketdim, uni bevaqt o'limga olib kelgan kulfat, kasalmand onam boshliq oilamiz chekiga tushgan og'ir kunlar to'g'risida o'ylab, yuragimdagи jarohat yangilandi.

Otam asli parkentlik, uch aka-ukaning kenjasи edi. Kenjaligi tufayli otasidan, ya'ni bobom Do'simbek polvondan qolgan uyda turar, amakilarim esa, shu uyning ikki qanotidan o'zlariga hovli-joy qilib olishgan edi. Qarindosh-urug'larning aytishlaricha, otam ham, amakilarim ham inqilobdan oldin, o'sha davr sharoitiga chaqib aytganda, o'zlariga to'q yashagan ekanlar, har birining bitta-ikkitadan sigiri, besh-o'ntadan qo'yи bo'lgan ekan, ota kasblari dehqonchilikda esa, butun qishloqning ularga havasi kelar ekan. Har yili shirinligidan tilni yoradigan bozorning old qovun-tarvuzi ularniki bo'larkan. Qurbilari yetganidanmi, yo tasodif yordam berdimi, ikki amakim uylarining tomini oq, yaltiroq tunuka bilan yoptirib olishgan ekan. Usta o'zbek bo'lmasa kerak, baland tomdan yo'lkalargacha tushgan oppoq tarnovlarning tepasiga bittadan tunuka xo'roz qoqib qo'yibdi. Bunday xo'rozli tarnov Parkentda boshqa yo'q ekan.

Amakilarimni men ko'rmanman. Otamdan, hali aytganimdek, qarindoshlarimiz hikoyalaridan bila-man. Hamma ularni hurmat bilan polvon, der ekan. Shu jumladan, otamni ham. Bilishimcha, gap faqat hurmatda emas edi. Otamni ko'rgan odam uni chindan ham polvon derdi. Bo'yi baland, ko'krak, yelkalari



keng, qadam bosganida, yer gursillardি. Bir to'йda qop-qop unni ustma-ust gardaniga qo'yib, boloxonaga olib chiqqanini o'zim ko'rghanman. Amakilarim otamdan ham tikroq, yo'g'onroq ekan. Ularni «polvon» deyishlariga yana bir sabab bor edi. Muhtojlik sezganda, Toshkentga borib, janggohda kurash tushib kelishar, shu bilan, kam-ko'stlarini butlab olishar ekan. Qanchalik rost, bilmayman, lekin aytishlaricha, amakilarimning kurash tushib yelkalari yerga tegmagan. Faqat bir marta, katta amakim mashhur Saksovul polvonga o'zi yiqilib bergen ekan. O'shanda Parkentda oq tunuka Saksovul polvondan yiqilgani evaziga, degan gap tarqalgan ekan. Bu, albatta, shunchaki mish-mishlardan. Lekin katta amakimning Saksovul polvondan yiqilgani rost. Shundan gap ochilganda, otam tutaqib ketardilar: «Tunukani Saksovul polvon olib kelib bergen bo'lsa bergandir. Bilmayman. Ammo-lekin akam shu tunukani deb yiqilmaganlar. Yerdan dast ko'tarib Saksovulga qarasalar, ko'zları yoshmish. Rahmlari kelib, shundoq ustilariga tashlabdilar-ko'yibdilar!»

Lekin oftobda ko'zni qamashtirib, olis-olisdan yaltirab ko'rinaridigan shu oq tunuka tomli, sinch devor uylarda uzoq yashash amakilarimga nasib qilmadi. To'ntarish shamoli Parkentni ham alg'ov-dalg'ov qilib yubordi. Xalq ikkiga ajrab ketdi. O'z qo'li, mehnatiga ishongan amakilarimga oshiqcha mol-mulk kerak emas edi, yarim och yashashni ham istashmasdi. Shuning uchun u tomonga ham, bu tomonga ham o'tmay, o'z ishlari bilan yuraverishdi. Ammo bu ko'pga cho'zilmadi. Yigirma uchinchi yili kechasi don-dun qidirib tog'dan tushgan qo'rboshining yigitlari bilan olishuvda katta amakim - To'laganbek polvon halok bo'ldi. Yigirma to'qqizinchи yilda Qoplombek amakimning ham bo-



shiga tashvish tushdi. O'z yerida qovun uzib turgan paytida qishloq faoli va miliitsiya kelib, uni qamoqqa oldi. Otam o'shanda oyog'iga eski mahsi tortib, og'ilxona tomiga qamish bosayotgan ekanlar. Eshitibdilar-da, mahsida miliitsiya idorasiga yuguribdilar. Ammo u paytda kim kimga quloq osardi? Hamma o'zicha haq edi. Buning ustiga kamdan-kam odamda ikkita sigir, o'nta qo'y bor edi. Mardikor ishlatmay, o'z xo'jaligini o'zi tebratib kelgan amakim jamoa xo'jaligiga kirma-gan, shuncha qoramoli bo'lgani uchun quloq qilinib, mol-mulki, uy-joyi xo'jalikka o'tib ketdi. O'zi, xotini, ikki bolasi bilan Ukrainianadagi Nikolayev degan shahar-ga surgun qilindi. O'sha tomonda amakim kartoshka, yeryong'oq ekishni o'rganadi. Daryoning qirg'og'ida sholikorlik qiladi. Uncha-muncha paxta ham ekib turadi. Uch-to'rt yil deganda yangi sharoitga ko'nikib, turmushini tuzatib oladi, tanish-bilish orttiradi. Mehnatkashligi, mirishkor dehqonligi mahalliy xalq-qa yoqib, ancha obro'-e'tibor qozonadi. Otamga uning oxirgi xati urushning ikkinchi yili kelib tekkan. Partizan otryadidan yozgan ekan. Urushdan keyin otam uni ko'p qidirdilar. Hatto Nikolayevga borib ham keldilar. Ammo na o'zidan, na oilasidan darak topildi. Hatto uyidan ham nishon qolmagan edi. Qarindosh-urug', tanish-bilishlar janoza ochishni bir necha bor maslahat berishdi. Otam ko'nmadilar. Birontasining daragi chiqib qolsa, yo o'zi kirib kelib qolsa, ko'ziga qanday qarayman, deb turib oldilar.

Oradan, mana, shuncha yil o'tib ketdi, ammo hech qanday darak chiqmadi. Ba'zilarning taxmini bo'yicha, Nikolayevda qolgan barcha bolalarni Germaniyaga haydab ketishgan, ayollarni xutorlarning o'zida otib tashlashgan. Ba'zilar esa, bombardimon payti hammalari halok bo'lishgan, bo'lmasa uylar



bitta qolmay vayron bo'lmasdi, deyishadi. Amakim haqida yana bir taxmin yuradi. Go'yo, nemislar kelishi bilan ularga qo'shilgan emish. Ular bilan birga keyin Germaniyaga o'tib ketgan emish. Sayyoh bo'lib borganlar uni ko'rganmish. Lekin hech kim otamning oldida, bizning oldimizda bunday degan emas. Amakimning biron jangda halok bo'lgani haqiqatga yaqin edi. Lekin qaysi jangda, qayerda, qachon – hech kim bilmaydi.

Otam amakimni oilasi, ruxsat berilgan ikki bo'xcha yuki bilan temiryo'lga kuzatib kelgan kunlariyoq, yarim kechada arava qo'shadilar, oyimni, yetti yashar opamni o'tqazib, Toshkentga yo'l oladilar. Uydagi biron narsaga tegmaydilar, og'ilxonada sigir-buzoq, qirda qo'ylar qolganicha qoladi. Nega hech narsa olmadilar, qancha so'ramaylik, hech qachon otam aniq bir javob bergen emaslar. Nazarimda, u kishining bu ishida tobukash, bir lagandan osh yeb kelgan hamqishloqlariga zardasi, begunoh, qishloqning biron ma'rakasidan qolmaydigan, och-yalang'ochga doim yordam qo'lini cho'zib kelgan akasiga achinish bor edi. Balki xato qilayotgandirman? Balki yangi hokimiyatdan norozi bo'lganlardan shunday ish tutgandirlar? Lekin otamni yaxshi bilganimdan bunga qo'shilishim qiyin. O'lgunlarigacha boshlariga ne-ne kunlar tushmasin, otam hukumatga norizolik bildirganlari yo'q.

Xullas, qup-quruq aravada uch kishi tonggi g'ira-shirada bobomning singlisi, ammamiznikiga kirib kelishadi.

Ammam Toshkentning Mirobod mahallasiga, ziylolar xonadoniga kelin bo'lib tushgan, eri, qaynotasi yonida o'qituvchilik qilardi. Qaynotasi o'sha davrdagi ilg'or fikrli ziylillardan bo'lib, asrning boshida otabobosidan meros qolgan ichkari-tashqarilik katta



hovlining yarmini ajratib, yangi usulda maktab ochgan edi. Maktabda faqat o'g'il bolalar emas, qiz bolalar ham bepul o'qitildi. Ammam shu qizlarga rahbarlik qilar, bundan tashqari, hamma sinflarda o'zbek tilidan dars o'tardi. Uchinchi sinfni bitirgunimcha, men ham uning qo'lida o'qiganman. Ammamning olamdan o'tganiga yarim asr bo'lganiga qaramay, men hamon uni yaxshi eslayman. U ham otamga o'xshab novcha, burni katta, ammo o'ziga yarashgan edi, yirik ko'zlar doim kulib turardi. Bo'yи, jussasiga yarasha, ovozi ham bardam edi, shoshmasdan, so'zlarni dona-dona qilib gapirardi, uni eshitganimda, ko'z oldimda g'alati bir manzara jonlanardi: keng, bepoyon cho'l. Bo'ynilariga qo'ng'iroq osilgan qator tuyalar karvoni bitta-bitta bosib kelayapti... Bu manzarani eslatadigan, u o'rgatgan bir she'r haligacha esimda: Bu na kun bo'ldikim, quloq kar, tilim lol, Rus lisonin bilmayin ko'zimiz mo'ltrimo'ltil. Millat bari arbokashdir, yo hammol, Afti-angori qaro, kiygani juldir-juldir...

Ammam, uning qarindoshlari qochoqlarni yaxshi kutib olishdi. Darrov bitta xona ajratib berishdi. Qudaboboning taklifi bilan otam o'z ot-aravasi bilan maktabning xo'jalik ishlarni qiladigan bo'ldi. Keyin u shu maktabda qolib ketdi. Umrining oxirigacha xo'jalik ishlari mudiri bo'lib yurdi. Oradan ko'p vaqt o'tmay otam shu mahallaning etagida bo'sh yotgan yerni sotib oldi. Otasidan qolgan besh g'ishtlik mashhur polvon qolipda o'zi g'isht quyib, imorat soldi. Havas qilib qo'yanidanmi, yo o'rtancha amakimni quloq qilganlarga o'chakishgandanmi, o'rtasiga katta ayvon tushgan ikki xonali uyning tomini – qayerdan topdi, bilmayman – oq, yaltiroq tunuka bilan yoptirdi. Ayvonning chekkalaridan tushgan ikkita tarnovning tepasiga ikkita tunuka xo'roz ham qoqtirib qo'ydi.



Men shu uyda tug'ilganman. Uning har bir g'ishti, har bir yog'ochi menga aziz va qadrdon edi. Nonquti, idish-tovoqlar terib qo'yilgan keng va baland tokchalar, ikkala xonaning to'ridagi gulli dorpechlar bilan to'silgan taxmonlarni hozir ham ko'rib turgandekman. Har kuni ertalab o'rirlarni yig'ishtirib, shu taxmonlarga taxlash, opamning bo'ynida edi. Ko'rpalarmi ko'tarsa ham, bechora, to'shaklarga kuchi yetmasdi. Meni chaqirardi. Ikkalamiz inqillab, kuchanib yig'ish-tirardik. Men uyalardim, xotinlarning ishi, deb. Qo-chardim. Opam hovlini boshiga ko'tarib, orqamdan quvlardi. Tutolmasa, ayvonning ostonasiga o'tirib olib, kap-katta, bo'yi yetgan qiz yig'lardi. Oriq, ka-salmand oyim aralashganlaridan keyingina qara-shardim. Oyimning shu uydalik paytlari xotiramda qolgan. Qishda ayvonning o'rtasiga quriladigan tancha yonida o'tiruvdilar, yozda ostonaga yaqin joyda. Ol-dilarida doim sariq samovar shaqillab qaynab turardi.

Urush boshlanishidan bir-ikki oy oldin hovlimizning o'rtasidan vodoprovod o'tdi. Odam zo'rg'a xatlab o'tadigan zovur qazildi. Qulochga sig'maydigan quvurlar yotqizildi. Otam ishchilar bilan gaplashib, o'zimizga ham vodoprovod o'tkazib oldilar. Urush boshlangan kuni suv keldi. Men bunaqa shirin, muzdek suvni sira bilmayman. Nima uchun bizning hovlimizdan o'tkazilganini ham bilmayman. O'tkazishdi-yu, zovurlarning ustini yopish eslaridan chi-qib ketdi. Quvurlar ochiq qoldi, yozdan kelasi yili erta bahorgacha hovlida tog'-tog' bo'lib, tuproq uyulib yotdi. Otam bir necha marta turli idoralarga borib keldilar. Hech kim yopishni o'ylamadi. Yomg'irgarchilik tugashi bilan o'zlari yopdilar. Hovli yana ochilib ketdi. Suvning ta'rifi mahallaga yoyildi. Qo'ni-qo'shnilar ovqatga, choyga biznikidan suv olib

ketadigan bo'lishdi. Yoz kunlarining birida, o'qishdan kelsam, oyim vodoprovodni sharqiratib ochib, tagida o'tiribdilar. Meni ko'rib uyalib ketdilar.

- Parkentdan ketganimizdan beri oqar suvda cho'milgim kelardi. Bosimi yaxshi ekan, xuddi daryoga o'xshaydi.

Hali-hali ko'rib turgandekman, oyimning so'lg'in ko'zlarida orzusi ushalgan odamning iliq tabassumi, taskini bor edi.

Oyim, otam singari odamlarning arzimagan narsadan tinim, quvonch topganini shu voqealarni menga eslatib yuborgan, oilamizning kulfatlariga sababchi bo'lgan kishi umrida biron marta ko'rganmikan? Shunday tinim, quvonchlar o'sha odamlar uchun chinakam baxt bo'lganini tasavvur qilganmikan? Yo o'z niyatlari yo'lida hammani xor qilib, ustidan bosib, toptab ketaverganmikan? Shunday kishilarning chanqaganga bir piyola suv, ochqaganga bir burda non bergenini, o'lim chiqqan uydan borib hol so'raganini bilmayman...

Avval men uni tanimadim. O'ttiz yildan ziyod vaqt o'tgan, unutgan edim. Keyin ko'rimsiz edi. Rangi ham buzuq edi, endigina zaxdan chiqqan qurbaqanining rangiga o'xshardi. Ijroqo'mga ertaroq kelib, zarur hujjatlar bilan tanishib o'tirsam, uyalinqirab kotiba qiz kirdi.

- Sizni bir odam so'rayapti. Qabul qilarmishsiz.
- Qabul kuni kelsin, - dedim boshimni ko'tarmay.
- Juda iltimos qilyapti, - dedi yana kotiba. - Qabul qila qoling, veteran ekan.

Veteranlardan u qo'rqardi. Ularning ba'zilari bilan gaplashishga esa, mening toqatim yo'q edi.

- Hay, kirsin.



Shu zahotiyooq past bo'lyi, to'ladan kelgan, du-maloq yuzi ko'kimir bir kishi pildirab xonaga kirdi.

- Salamataykum, rais uka!

U uzun majlis stolini yosh yigitdek chaqqonlik bilan aylanib o'tdi-da, ro'paramga kelib, qo'lini uzatdi. O'rnimdan turib, qo'lini oldim. Nazarimda barmoqlari bir tekisda bolta bilan chopib tashlangandek, kichkina qo'lining suyagi yo'q edi.

- Keling, o'tiring.

U taklifimni kutmasdanoq ikki qo'li bilan stulni surib, o'tirib oldi. Tezroq maqsadga o'tish niyatida so'radim:

- Keling?

U munchoqdek kichkina ko'zlarini menga qadab iljaydi.

- Rais uka, sizni ko'rganimdan xursandman. Ko'p yaxshi gaplar eshitaman. Baraka toping. Martabangiz bundan ham baland bo'lsin.

- Otaxon!..

Uni bo'lmoqchi edim, ammo gap bermadi.

- Bir paytlar Qorasuv odam nazar-pisand qil-maydigan kichkina tuman edi. Endi qarang, bay-bay, bay!.. Ana qurilish, mana qurilish! Rais uka, men ham uzoq yillar ijroqo'mlarda ishlaganman. Elliginchchi yillarda hatto rayijroqo'm raisining muovini ham bo'lganman. Butun qurilish ishlari menda edi. Mehmonxona, yo'l, kombinat!

Shu payt uni tanigandek bo'ldim. Basharasiga tikildim.

- Frunze tumanida ishlagaganmisiz? - aniqroq bilish uchun so'radim.

Savolimdan u xursand bo'lib ketdi.

- Ha-da! O'sha eng og'ir tumanda, eng og'ir yillari ishlaganman. Mehmonxonani ko'rsangiz hozir, hava-



singiz keladi. Ko'chalar-chi? Ikki baravar kengayib ketdi. Lohutiy, Shota Rustaveli... Joniz rohat qiladi.

– Ha, bu o'sha, otam ne-ne qiyinchiliklar bilan qurgan, men tug'ilgan uyni buzdirgan odam edi. Qo'chqorov. Ali Qo'chqorov. O'zini unutibman-u, ismi-sharifi yodimda qolibdi. Nima qilish kerak? Yoqasidan ko'tarib, tepib-tepib, haydaymi? Haqqim yo'q. Bechora onamga, otamga ko'rsatgan hunarini eslataymi? Nima derdi? Topshiriqni bajarganman, deydi. Menda ayb yo'q deydi. Qiziq, meni u taniganmikan? O'sha, uyi buzilib, bevaqt o'lib ketgan devdek odamning o'g'li ekanimni bilarmikan? Taqdirni qarang, rayijroqo'm raisi o'rribosari buzdirgan uyning egasi hozir rayijroqo'm raisi bo'lib o'tiribdi, va o'sha, boshiga kulfat yog'dirgan odamni qabul qilayapti!.. Qaytar dunyo, deb shuni aytsalar kerak. Nima ish bilan kelgan ekan? Shu savol xayolimga keldi-yu, alamlarimdan chiqish niyatida uning gapini bo'ldim.

- O'rtoq Qo'chqorov! Vaqt ziq. Xizmat?
- I-ya!? Meni bilasizmi? – u sevinib ketdi.
- Sizni Mirobodda ko'pchilik biladi. Ayniqsa, uyi buzilganlar. Men mirobodlikman.

U kinoyani tushunmadidi. Dumaloq qo'llari bilan birpasda nam bo'lgan ko'zlarini arta boshladi.

- Barakalla! Barakalla! Rahmat sizga, rais uka!..
- Ishga o'taylik. Xizmat? – yana so'radim.

Bu gal qo'polroq so'raganimni u sezib, maqsadga o'tdi.

– Bizni uyni ustidan ko'cha o'tadigan bo'pti. Yo'q-yo'q, hech qarshi emasman. Ko'cha xayrli ish. Lekin... Lekin qariganimda bir parcha bo'lsa ham yerda bo'lay deyman. Opoqingiz ham shu gapni eshitib, tinchini yo'qotib qo'ydi. Domda turmayman, deydi. Tobutimni

qandoq olib chiqishadi, deydi. Bolalar boshqa gap. Ammo bizga, keksalarga rahm qiling, rais uka.

– Nima, ko'chani boshqa joydan o'tkazaylikmi? – jahl bilan so'radim. – Yo uchastka berishmayaptimi?

– Uchastka berishayapti, rais uka. Quloq soling. Ammo olisda. Innaykeyin qari odamni imorat qurishga qurbi yetarmidi? Yo'lniyam boshqa yoqdan o'tkazish kerak emas, joyida qolaversin...

– Nima deysiz, bo'lmasa? – hayron bo'ldim.

Qo'chqorov o'rnidan turib, stol ustidan men tomon egildi va sirli ohangda dedi:

– Arxitektor bola uzoq qarindosh chiqib qoldi. Yo'l sizning uyingizdan o'tishini bilganim yo'q, deydi. Agar rais rozi bo'lilar, bir metr chetga burib yuboraman. Shunda uyingiz ham qoladi, yo'lga ham ziyon yetmaydi, deydi. Ota-onangiz rohatingizni ko'rsin, rais uka, xo'p deng. Bir og'iz gapingiz. Umr bo'yi duoyingizni qilib o'taman.

U joyiga o'tirib, ko'zlariga yana yosh oldi. Chindan ham qaytar dunyo! O'ttiz yil burun, men, student yigit, xuddi shunday ko'z yoshi qilib, xuddi shunday iltimos bilan shu odamning oldida turgan edim. Ammo mening ko'z yoshlari achchiq alam yoshlari edi. Eslatsammikan?

– Arxitektor bilan gaplashaman, qani nima der ekan, – dedim zo'rg'a o'zimni bosib olib.

– Gaplashib ovora bo'lasizmi? – Qo'chqorov yana jonlanib ketdi. Kichkina ko'zlar o'ynay boshladni. Aftidan, meni, rozi bo'ladi, deb o'yladi shekilli. – Siz menga xo'p desangiz bo'ldi, uyog'ini o'zim tinchitaman. Baraka toping, rais uka.

– Baribir arxitektor bilan gaplashmasam bo'lmaydi, – o'z gapimda turdim men. – Yo'lni bir metr chekkaga surib yuborish nimaga olib kelishini bilmayman.

Surishtirishim kerak! Keyin bu loyiha ijroqo'mda tasdiqlangan.

– E, uka! Ispolkomni biz ham bilamiz, – men tomon egilib o'tirgan Qo'chqorov gavdasini rostladi, kalta panjalarini stol ustiga tirab, yelkalarini ko'tardi.

– Rais nima desa ispolkom a'zolari shuni qiladi. Qilmasa, keyingi safar saylanmaydi.

U miyig'ida kulib qo'ydi.

– Hozir ispolkomlar o'zgarib ketgan, davr boshqa.

– Mening gapimga qulq soling, rais uka! Rais-rais! Shunday bo'lib kelgan. Shunday bo'lib qoladi. Aks holda, hammayoq ostin-ustun bo'lib ketadi. Xo'p, deng, jon uka!

– Unga biron narsani tushuntirish foydasiz ekanini ko'rib, o'rnimdan turdim.

– Arxitektor sizga javobimni aytadi. Boravering.

U menga angrayib qarab qoldi. Qo'lini olib xayrlashayotganimda ham ko'zini mendan uzmadi. Undan o'girilib, joyimga o'tirganimdagina, sekin so'radi:

– Xo'p deysizmi? Ishonsam bo'ladimi? A, rais uka?

– Siz boravering. Maslahat qilamiz, – shunday deb, eshik tomonga qichqirdim. – Surayyo!

Kotiba qiz kirdi.

– Bularni kuzatib qo'ying. Meni, Po'latov – tuman arxitektori bilan ulang keyin.

Qo'chqorov eshik oldida to'xtadi.

– Rais uka, bir yaxshilik qiling. Savob bo'ladi.

Yaxshilik, savob... Men ham unga o'zim bilgan eng sara gaplarni topib yalingan edim. Kasal onamga rahm qiling, juda bo'limganda bir yil sabr qiling, degan edim.

O'shanda universitetning ikkinchi kursida o'qirdim. Leksiya ketayotgan mahali dekanatdan bir ayol kelib, meni chaqirib ketdi. Hayron bo'lib, dekanatga



kirsam, opam yig'lab o'tiribdi. Qo'rqib ketdim. Xayolimdan darhol onam o'tdilar.

- Nima bo'lди?

- Uyimizni buzishvotti! Oshxonani buzib bo'lishdi!

- Kim buzvotti? Nega?

O'zini yo'qotib qo'ygan opamning yelkalarini siltab so'radim.

- Raispolkommi odamlari.

- Dadam uydamilar?

- Ha, chaqirib keldim maktabdan. Lekin dadam indamay o'tiribdilar. Shuniychun senga keldim. Bir narsa qilish kerak. Endi qayoqqa boramiz.

Opam ho'ngrab yig'lab yubordi. Sudrab ko'chaga olib chiqdim. Zo'rg'a bitta mashinani tutib, uyga keldim.

Chindan ham uyimiz to'polon edi. Tomda, devorlarning ustida lom, bolta ko'targan odamlar yuribdi. Yana qandaydir odamlar hovlidagi daraxtlarni kesishayapti. Tomdan, hovlining burchagidagi yarim ag'darilib bo'lgan oshxonadan chang osmonga ko'tarilayapti. Barzangi-barzangi yigitlar ko'chirilgan tunukalarni bir chekkaga taxlash yo'q, taraqlatib hovliga otishayapti. Nima qilishni bilmay, angrayib qoldim. Keyin ovozim boricha, butun vujudimni titroq bosib, tomga qarab qichqirdim:

- To'xta! To'xtalaring!

- Foydasi yo'q, o'g'lim.

Shunday yonimdan sokin tovush eshitildi. Bu otam edilar. Ko'cha devorga yaqin o'rikning tagida o'tirgan ekanlar, ko'rmabman.

- Foydasi yo'q, - qaytardilar yana otam. U kishi ni men hech qachon bunday xomush ko'rmagan edim. - Melisa ham chaqirdim, hech narsa qilisholmadi. Qo'llarida qog'ozlari bor.



- Qayerda turar ekanmiz?

- Chilonzorga, domga borarmishmiz. Istamasak, Do'mbiroboddan olti sotix yer berisharmish.

Otam nihoyatda xotirjamlik bilan gapirdilar. Ammo sezib turibman, ichlari yonib ketayapti. Hali-hali esimda, o'zlarini ovutish niyatida yonlarida olib yuradigan o'zbekcha pichoqlari bilan xivich yo'nayaptilar. Dili vayron bo'lgan, hamma narsadan umidi uzilgan odamgina shunday ish bilan mashg'ul bo'ladi.

- Nima qilamiz?

- Oyingizni bilasiz, o'g'lim, - otam meni doim sizlab gapirardilar. - Oyingiz domga chiqmaydilar. Menga ham bir parcha yer bo'lsa bo'lardi.

Shu payt nimadir gumburlab ketdi. Ijroqo'm ishchilari tunuka aralash to'sinlarni ham buzib, hovliga tashlay boshlashgan edi.

Qanday qilib, tomga ko'tarilganimni, ikkinchi bir to'sinni ko'chirayotgan odamning boshini ko'tarib turib, ko'kragiga musht tushirganimni bilmayman. U gandiraklab tomning zihiga yiqildi. O'rnidan turib hujum qilsa kerak, deb o'ylab, qo'limga oyog'im ostida yotgan lomni oldim. Lekin ishchi engagini ushlab, sekin o'rnidan turdi, uning buyrug'ini kutib turgan sheriklariga, parvo qilmanglar, degandek qo'l siltadi, menga qaradi.

- Bekor urding, o'g'lim. Bizda ayb yo'q. Kichkina odammiz biz. Buyruqni bajaryapmiz. Sen raysovetga bor. Kattalar bilan gaplash. Qo'chqorov bilan gaplash. Shunday mustahkam imoratni buzib, biz ham ezilib ketayapmiz. Hali yuz yil qilt etmay turardi uylaring. Bor, vaqtни ketkazma. Poylab turamiz kelguningcha.

O'sha zahotiyoy pastga tushib, ko'chaga yugurdim. «Qo'chqorov, Qo'chqorov! Kim ekan Qo'chqorov?»

Hansirab ijroqo'm tomon ketayapman-u, o'zimdan o'zim so'rayman. Kim bo'lsa ham gapi gap bo'ladigan, ishni hal qiladigan odam bo'lsa kerak. Ishqilib o'zida bo'lsin. O'zida bo'lsa tushunishi kerak. Axir, nohaqlik, jinoyat yuz berayapti-ku? Tushunishi kerak? Shunday ishonch, shunday umid bilan rayijoqo'm binosiga yetib keldim. Qo'chqorov ijroqo'm raisining o'rino-sari ekan. Qabulxonasida yettitami, sakkizta odam o'tiribdi. Ularga parvo qilmay, hansiraganimcha, eshikni shartta ochib, ichkariga kirdim. Uzun xonaning to'rida qorachadan kelgan bir odam gazeta o'qib o'tiribdi...

- O'rtoq Qo'chqorov! Aka! - nafasim tomog'imga tiqilib turganidan zo'rg'a gapirardim. - Yordam bering! Uyimizni buzishayapti. Ispolkomning qarori bor emish. Yordam bering, jon aka! Onam kasal yotib-dilar. Hozir boradigan joyimiz yo'q. Dadam... Dadam...

- Qayerda uylaring? - so'radi gapimni bo'lib Qo'chqorov.

- Sapyornaya ko'chasida, - shoshib javob berdim. - Yigirma ikkinchi uy.

- Bekning uyimi? - u gavdasini rostlab, menga tikildi.

- Ha, men Sulaymonbek akaning o'g'llari bo'lamani. - Yuragimda qandaydir iliqlik paydo bo'ldi, shu odamning o'zini topganimdan sevinib ketdim. «Bu hal qiladi, jinoyatni to'xtatadi!» degan fikr yashin tezligida xayolimdan o'tdi. - O'qishda edim. Kelishibdi-yu, buza boshlashibdi. Tomning yarmini buzib bo'lishdi. Meni buyoqqa, sizning oldingizga kelganimni bilishadi. Javobingizni kutib turishibdi. Jon aka! Yordam bering. Shu yilcha qoldiring. O'zimiz buzib beramiz keyin.



Qo'chqorov indamadi. Qo'lidagi gazetani shildiratib, uyoq-buyog'ini ko'rghan bo'ldi-da, o'rnidan turdi, Shunda hayron qoldim. U pak-pakana, liliputdek odam edi. Buning ustiga semizligidan tep-tekis to'nkaga o'xshardi.

U keng stolni aylanib o'tib, xonaning burchagida turgan, o'zi kabi pakana seyf ustidagi ikki qulflik eski qora charm portfelini oldi-da, men tomon yurdi. Uning niyatini bilmay, ro'paramga kelgunicha yuragim ezilib ketdi. Ro'paramga kelganda, menga qaramadi ham. Jussasiga kelishmagan yo'g'on ovozda:

– Qani, yur! – dedi va eshik tomon yo'l oldi.

Yuragim qinidan chiqib ketay dedi, uning gapini eshitib.

– Rahmat. Rahmat, o'rtoq Qo'chqorov! – dedim sevinchim ichimga sig'may va orqasidan chiqdim.

Qabulxonadagilar gurr etib o'rirlaridan turdilar. Qo'chqorov hech kimga qaramadi:

– Ikki soatdan keyin kelaman.

Bironta odam so'z qaytargani yo'q.

Uyga yetay deb qolganimizda, Qo'chqorov kimnidir ko'rib qoldi. Ikkovlari quyuq ko'rishishdi, keyin gapga tushib ketdilar. Qo'chqorov ikki gapning birida qo'llarini beliga tirab, kichkina dumaloq boshini orqaga tashlab kulardi va har zamon-har zamonda bizning uy/tomonga qarab qo'yardi. Men esa betoqat edim, ichimni it timdalardi, tezroq uyga borib, otamni tinchitgim kelardi. Oxiri chidolmadim, yaqinroq kelib ruxsat so'radim. Qo'chqorov ham, uning sherigi ham hayron bo'lib menga tikilishdi, lekin hech narsa deyishgani yo'q. Men uyga yugurdim.

Otam hovlining o'rtasidagi yaqindagina suvoqdan chiqqan supaning zihida o'tirardilar. Supaning o'rta-sidagi xontaxta yonida esa, oyim ishchilarga choy

quyayotgan edi. Opam yozgi o'choqboshida ovqat qilayapti. Birinchi bo'lib meni haligi men urgan ishchi ko'rди.

- Keldingmi, o'g'lim? Mana, hech narsaga tekkanimiz yo'q. A, opa, to'g'rimi?

Oyim minnatdor bo'lib, jilmaydilar.

- O'rtoq Qo'chqorovning o'zлari kelayaptilar! - dedim men ham minnatdor ohangda. - Yaxshiyam meni ispolkomga yubordingiz. Hozir o'zлari keladilar. Ko'chada ushlanib qoldilar.

Otam mehribonlik bilan menga qaradilar.

- Rahmat, o'g'lim.

Ko'p o'tmay Qo'chqorov kirib keldi. Hamma beixtiyor o'rnidan turib ketdi.

Qo'chqorov hech kim bilan so'rashmadi. To'ppato'g'ri haligi men urgan ishchining oldiga kelib baqirdi:

- Samad! Nega yalpayib o'tiribsanlar? Bir hafta burun kelishlaring kerak edi, bu uyg'a. Plan nimaligini bilasanlarmi senlar?! Turlaring! Bugunoq tugatlaring!

Uning gaplaridan men hang-mang bo'lib qolgan edim. Makkorlik bilan meni yosh bola qilib aldagani ham mayli, ota-onam oldida, ishchilar oldida meni u bu gaplari bilan sharmanda qilgan edi. Hech kimga qarolmay, iliklarimgacha bo'shashib, supaga o'tirdim.

Qo'chqorov otamga o'girildi.

- Sulaymonbek! Bekligingizni tashlang. Sal yerga tushing. Bil'aks akangizning yo'lidan ketasiz. Faqat Ukrainaga emas, Sibirga. Hukumat sizga, bir oy burun qaror yubordi. Tamom-vassalom! Odamlarni o'rtaga qo'yib, o'g'lingizni ispolkomga yuborib nima qilasiz? Bilib qo'ying, uyingizning ustidan sovet ko'chasi o'tadi, sovet mehmonxonasi tushadi shu yerga!

O'zidan ikki baravar baland odamga bo'yни singudek bo'lib pastdan yuqoriga qarab, savlatliroq



ko'rinish uchun oyoqlarini yirib, dag'al muomala qilayotgan ko'rimsiz pakana bir kishining holati g'ayritabiiy, kulgili holat. Ammo o'shanda bunday ko'ringani yo'q. Hammamiz ichimizda g'azabimiz qaynayotgan bo'lsa ham jim uni eshitardik.

- Hamma to'polon qilsa ham, siz qilmang. - U hovridan tushgandek bo'lib maslahat berdi. - Urushda bedarak ketganlarning ko'pi qayerdaligini yaxshi bilamiz. O'shayoqlarda ham dushmanlik qilib yurishibdi. Akasi dushman bo'lgandan keyin, ukasi kim bo'lardi?

Men yalt etib otamga qaradim. Shu paytgacha, og'irlilik qilib, sukut saqlab turgan otamning yirik qo'llari musht bo'lib tugildi. Shundan keyingi uning harakatlarini aniq aytib berolmayman. Bir mahal Qo'chqorovning kalta oyoqlari tepamizda, boshimiz ustida pildiray boshladi. Otam uni boshlari uzra dast ko'targanlaricha, ko'cha eshik tomon uch-to'rt qadam bosdilar, keyin bir siltanib uloqtirdilar. Qo'chqorov uchib borib, somon tiqilgan qopdek, do'p etib yo'lkaga tushdi. Bir-ikki dumalab o'rnidan turar ekan, yo'tal aralash «melisa! melisa!» deb qichqirdi va oqsoqlanib, ko'chaga qochib chiqib ketdi.

- Haromi!

Otamning aytgan gaplari shu bo'ldi. Birdan gandraklab ketdilar. Yugurib borib qo'ltiqlaridan oldim. Bir amallab supaga o'tqazdim. Ammo o'tirolmadilar, yotib, oyim uzatgan yostiqqa boshlarini qo'ydilar. Opam muzdek vodoprovod suvida sochiq ho'llab keldi. Peshonalariga qo'ydik. Doktor chaqirishga ko'nmadilar. Esimni taniganimdan beri birinchi marta, u kishini shunday, betob holda ko'rishim edi, xo'rligim kelib ketdi. Ichimda yig'ladim ham. Hovlida esa taqiratuqir yana boshlangan, ijroqo'm ishchilari endi hech



ikkilanmasdan, hech narsani ayamasdan uyni buzishga tushgan edilar.

– Kamolbek, – chaqirdilar bir mahal otam. – Shu yerdamisiz?

– Shu yerdaman, dada!

Ko'kraklariga qo'limni qo'ydim. Otam ko'zlarini ochmoqchi bo'ldilar, ammo ocholmadilar. Timirskilanib, tirsagimdan ushladilar,

– Bitta ishingiz bor, o'g'lim...

– Xo'p bo'ladi, dada! – dedim qo'llarini silab.

– Ahmadjon tunukapurush degan odam bor. Maktabning ro'parasida turadi. Shundan ikki yarim ming qarzim bor. Uzib qo'yish kerak.

– Xo'p bo'ladi, dada, – dedim men, ammo gapimni eshitdilarmi, yo'qmi, bilmayman. Tirsagimni ushlab turgan qo'llari shilq etib, ko'rpancha ustiga tushdi.

– Dada!!

Bor ovozim bilan qichqirib yuborganimni o'zim bilmay qoldim. Birpasda uyimizni qiy-chuv bosib ketdi. Otam o'shanda oltmishtga kirgan edilar. Mahalla imomi, keksalar ikki yosh qo'shib, payg'ambar yoshida, deb chiqarishdi. Yettilarini ham shu, o'zlar qurgan, endi esa yarmi buzilib vayron bo'lib yotgan uyda o'tkazdik. Ertasiga ammamning o'g'illari yana o'z hovlilariga bizni ko'chirib olib ketishdi. Ijroqo'mning ikki xonalik kvartiraga bergen orderi supada, eski sholchaning tagida qolganicha qoldi. Otamizga yil oshi berganimizdan so'ng, oyim, tog'alrimning qistovi bilan opam ammamizning nevarasiga turmushga chiqdi. Turmushlari yaxshi. Pochcham ikkalovi bobolari dan qolgan, ammo endi ancha kengaygan maktabda o'qituvchilik qilishadi. Beshta farzand ko'rishgan. Hammasi o'g'il. Qonga tortar ekan. Jiyanlarim ham gavdali, polvon yigitlar. Endi oila qurib, bola-chaqalik



bo'lib ketishgan. Oyimning maslahati bilan bo'lsa kerak, amakilarim, otam bir joyda yashaganlarini maqtab-maqtab gapirardilar, o'sha hovlining o'zida, opam bilan yonma-yon turishadi.

Opamning to'yidan keyin yil o'tmay, oyim ikkala-  
miz Do'mbiroboddagi uchastkaga ko'chib bordik.  
Kanikul payti zominlik kursdoshim Abdukarim degan,  
xuddi mening jiyanlarimga o'xshagan pahlavon yigit  
bilan otamdan qolgan polvon qolipda g'isht quydik.  
Eski uydan deyarli butun g'isht chiqmadi. Buldozer  
solib ag'darilgandan keyin butun chiqarmidi? Tunu-  
kalarning ham yarmidan ko'pi qoqishga yaramadi,  
lom bilan ko'chirib, ilma-teshik qilib yuborilganidan  
chiqindiga chiqib ketdi.

Oyim imorat bitganini ko'rma dilar. Hovlining  
etagida omonat qurilgan hujrada otamning o'limidan  
o'n yil o'tgach, qanday tinch yashagan bo'lsalar,  
shunday tinch qazo qildilar. Uyni xotinim ikkimiz  
bozordan bittadan yog'och, bittadan taxta tashib, qurib  
oldik. Hali ham bitdi deyish qiyin, hali ham chalasi  
ko'p. Ammo uyning ikki chetidan yo'lkalarga tushgan  
ikkita tarnovni tom yopilgan yiliyoq qoqtirib qo'y-  
ganmiz. Ikkalovining tepasida otamdan qolgan ikkita  
xo'roz turibdi. Shamol ko'tarilgan paytlari ikkalovi  
tebranadi. Qanot yozib, qichqirgandek bo'ladi. Ular-  
ning ovozini eshitaman, otam ko'z oldimga keladilar,  
balaligim o'tgan eski hovlini eslab ketaman.

Uchinchi kursga o'tganimda dilimda turgan otam-  
ning vasiyatini bajarish imkoniyati tug'ildi. Mate-  
matikadan o'tkazilgan konkursda g'olib chiqib, ikki  
ming so'm mukofot oldim. Bo'lajak xotinim bilan  
Ahmadjon tunukafurushning uyiga bordik. Otam ten-  
gi odam ekan. Shunga qaramay, biz borganimizda,  
baland paxsa devorga minib olib, tunuka karnizni

tuzatayotgan edi. Ezilib ketdim. Hech ish qilmasalar ham, otam o'z tengdoshlari qatori yursalar bo'lmasmidi?! Ahmadjon ota avval olmayman deb turib oldi. Qistaganimizdan so'ng olib, duo qildi, bizga baxt tiladi.

– Otangiz yaxshi odam edi, – dedi ketayotganimizda, – Mabodo, zarurat bo'lib qolsa, keling. Men yo uyda bo'laman, yo otangiz, Sulaymonbekning choyxonasida.

Hayron bo'lib, unga qaradim.

– Ha, otangiz bosh bo'lib, choyxona qurganmiz, – dedi usta meni tushunib. – Shundoq Mirobodning belida. Har kuni qari-qartanglar o'shatda bo'ladi...

Mana shunga chorak asrdan oshdi. Ahmadjon tunukafurush o'lib ketdi. Otamning tengqurlari, tanishbilishlaridan deyarli hech kim qolmadi. Qo'chqorov yuribdi. Yurish-turishidan, gaplaridan hali tetik. Men unga o'lim istaganim yo'q. Yashasin, bola-chaqasining rohatini ko'rsin. Lekin nega yaxshi odamlar kam yashaydi? Nega ularning hayoti ko'pincha azob-uqubatda o'tadi? Kimningadolatsiz hukmi, qanday bemantiq qonun shunday qoladi? Yaxshiga kun, yomonga o'lim yo'q. Kim buni to'qigan?

O'sha, Qo'chqorov kelib-ketgan kuni arxitektor bilan gaplashdim. Yo'l biroz surilsa bo'lar ekan. Shunday qiling, dedim. Dedim-u, o'zimdan xafa bo'lib ketdim. Chap yuzingga urganlarga o'ng yuzingni tut, deganlari shu bo'lsa kerak. Nima zarurati bor edi? Kim meni urishardi yo'l loyihadagidek qolsa? Hech kim. Lekin bilaman, o'zim azob chekardim.

Ertasiga ertalab ishxonaga kelsam, ijroqo'm eshigi oldida Qo'chqorov turibdi. Meni ko'rib, qarshimga yurdi.

– Sizni kutib turuvdim. Rais uka, rahmat! Martabangiz bundan ham baland bo'lsin, dard ko'rmang.

Men indamay yonidan o'tib ketmoqchi edim,  
to'xtatdi.

- Uka!... Sizga aytadigan zarur gaplarim bor...  
Tuman...

O'zimni tutolmadim, tutoqib ketdim:

- Xalq dushmanining o'g'liga qanday gapingiz  
bo'lishi mumkin? Men Sulaymonbek akaning o'g'liman.

- To'xtang, to'xtang, uka! Qaysi Sulaymonbek? - U  
yakkam-dukkam qoshlarini chimirib, menga yopish-  
di. - Hali-gi...

- O'sha, o'sha! - dedim zarda bilan va yumshoq  
qo'llarini siltab qo'limni bo'shatdim-da, ichkariga kirib  
ketdim.

Kun bo'yi o'zimni bilmay, qilgan ishlarimda tayin  
bo'lmay yurdim. Shu kichkina, badbashara, do'ppisini  
olib kel desa, boshi bilan olib keladigan beshafqat  
odam tufayli ko'rgan kulfatlarimizni xayolimdan hay-  
dayman, lekin yana bo'lmaydi. Qaytar dunyo! Nimasi  
qaytar? Yaxshining bevaqt o'limi-yu, yomonning umri  
boqiyligimi? Qaytar emas, vafosiz dunyo. Shunday,  
noxush xayollar bilan kunni kech qildim. Uyga ketay  
deb turganimda, kotiba qiz kirdi.

- Bir guruh qariyalar siz bilan uchrashishni iltimos  
qilishayapti.

- Kimlar?

- Mirobodliklar. Borishga qiynalamiz. Iloji bo'lsa  
o'zları kelsalar, deyishayapti. Sulaymonbekning choy-  
xonasida kutisharmish. Borasizmi?

Bu gapni eshitib, yengil tortib ketdim, ko'kra-  
gimdan tog' ag'darilgandek bo'ldi. Sulaymonbekning  
choyxonasi... Demak, otam tirik. Yaxshilik qolar ekan,  
toptab bo'lmas ekan uni.

- Boraman, albatta boraman. Qaytar dunyo!

- Nima? - hayron bo'lib so'radi kotiba.



- Xalqda shunday gap bor, - tushuntirdim o'zim-cha. - Qaytar dunyo. Bir kun gapirib beraman.  
U hech narsani tushunmadi.

1990

## YER YONGANDA

**T**onggi g'ira-shirada shaharga tushib ketgan kelinini Solihabibi bu gal qandaydir umid va sabrsizlik bilan kutdi. Ammo kun o'tishi qiyin bo'ldi. Peshingacha hovlida g'imirlab yurdi: og'ilxona oldida g'ujanak bo'lib yotgan pomidorni tirgovich qo'yib taradi, bo'yi kelib tursin deb, ayvonga yaqin ekilgan bo'yradek joydag'i oshrayhonning tagini chopdi. Chorsigina, uch sotix yerda yana nima qilish mumkin edi?

Molga qaray desa, yo'q, sotilib ketgan. Nevarasining to'yiga atab boqib qo'yilgan dumbasi hali taxtakachdek qo'chqorni ham bir oy bo'ldi, xo'jalikka olingan qarzlar hisobiga topshirib yuborishdi, tirik mol-holdan qolgani bitta kalonnur tovuq. Uning nimasiga qaraydi? O'zi suv, o'zi don topsa?.. Peshindan keyin qo'shnisining beqasam ko'rpasini qavishga o'tirdi. Yaxshi ham shu hunari bor ekan, koriga yarab turibdi. Ko'rpaning bahosi bir chelak kartoshka bo'ldi. So'ragani yo'q. Qo'shnisining o'zi tashlab ketdi. Shu kartoshka bilan kun o'tib turibdi. Ertaga bitadi ko'rpa, bir burchagi qoldi, xolos. Keyin nima qiladi? Qavig'i ma'qul kelsa, talabgorlar chiqib qolar. Qavig'i ma'qul kelishi turgan gap. Solihabibi ko'rpara bu gal palak nusxasini berdi. O'rtasida oftob, to'rtala burchagida to'rtta qo'qonguli. To'g'ri qaviganida uch kundayoq bitardi. Mayli, baxtli bo'lsin qiz. O'g'li qaytsa, keliniga ham shunday ko'rpa qilib beradi. Hozirgisi titilib, paxtasi koptok-koptok bo'lib qolibdi. Bir qarichda kamida ellikta qaviq



bo'lishi kerak. Ana o'shanda qancha tutma, tep-tekis turaveradi, paxtasi siljimaydi.

Tovuqning qaqlagani eshitildi. Solihabibi beixtiyor hovliga nazar tashladi. Kun botdi. Nega kelinidan darak yo'q? Hech mahal u shaharda bunchalik qolib ketmas edi. Yaxshilikkanikan? Ajab emas, tuzuk xabar bilan kelsa! Qishloqqa oxirgi avtobus kun botganda keladi. Shunga ulgurarmikan? Ulgurmasa qo'lidagi emiziklik bolasi bilan qiynalib ketadi, bola boyaqish.

Solihabibi ehtiyotlik bilan ko'rpani tizzasidan olib qo'ydi-da, hovliga tushdi. Nevarasi mакtabiga kitob almashtirgani ketgan edi. Halizamon keladi. Nima yedirsa ekan unga? Yana tovuq qaqladi, bir-ikki qanot qoqib, boshini sarak-sarak qildi-da, og'ilxonaga kirib ketdi. Solihabibining yaxshi ko'rgan ovqati esiga tushdi. Og'ilxonaga kirib, huvillab turgan oxurning burchagidagi tovuqning inidan moyakni olib chiqdi. «O'rniga piyoz qo'yib qo'ysa ham bo'ladi. Bola boyaqish bir haftadan beri go'sht ko'rgani yo'q, rangi ketib qoldi. Dadasi qamaldi-yu, ilgarigi sho'xligi yo'qoldi, ko'chaga chiqmaydi, qachon qaramang, uyning u yoki bu burchagida xayol surib o'tiradi, kitob varaqlaydi. To'qqiz yoshlik bola ham shunchalik eziladimi?!»

Solihabibi qozon tagiga o't yoqib, ozgina piyoz, bitta pomidor to'g'radi, sopol tovoqning yuqidagi yog'ni qozonga solib, non olib kelgani ayvonga o'tdi. Rahmatli onasi ramazon oylarida saharlikka ko'pincha shunday qovurdoq qilardi, pomidor bilan hali qotmay xil-xillab turgan tuxumning mazasi nonga o'tib, juda shirin bo'lib ketardi. Dadasi ham ishtaha bilan yerdi, u ham. Shu-shu o'rganib qolgan, vaqt tig'iz bo'lса, yo uyda boshqa narsa bo'lmasa, darrov shunday qovurdoq qiladi.



Tuxum chaqib turgan payti hovlidan nevarasining tapir-tupir oyoq tovushlari keldi:

– Oyi!?

– Kelavermaysanmi, buyoqdamani!..

Solihabibi shoshilib qovurdoqni bir-ikki ag'dardi, tuxum non burdalariga yopishib, oq-sariqqa ajradi.

– Ovqat qilib turibman, senga, kelaver!.. Tursunboy!

O'choqboshining eshigi oldida Tursun paydo bo'lди.

– Muncha ichikmasang? – so'radi Solihabibi sopol tovoqqa qovurdoqni olarkan.

Tursun javob bermadi. Uning ko'zlarini o'ynar, ter bosgan yuzlari qip-qizarib ketgan edi.

– Oyi! To'lagan... To'laganning dadasi olib ketishdi. Solihabibining qo'lidan kapgiri tushib ketdi.

– Nega olib ketishadi? Qachon?

To'lagan nevarasi tengi bola edi, u bilan bir sinfda o'qirdi. Otasi jamoa xo'jaligi buxgalteri edi.

– Nega olib ketishadi? Qachon? – qayta so'radi Solihabibi.

– Hozir! – dedi Tursun.

– Maktabdan kelayotgandim. Bunday qarasam, darvozalari oldida militsyaning mashinasi turibdi. Yugurib bordim. Shundoq oldimda olib chiqib ketishdi Mirvali akani. Oyi! Bilasizmi?! Qo'llarini... qo'llarini orqasiga qayirib olib ketishdi!

Tursunning ovozida ham qandaydir xursandlik bor edi. Solihabibi ichida zil ketdi, ammo hech narsa demadi. Nevarasining o'zi xursandchiligining sababini hayajon bilan aytib berdi:

– Dadam qamalganlaridan keyin To'lagan boshqa partaga o'tib olgan edi, aytmovdim sizga. Innaykeyin, men bilan o'ynamay qo'ygan edi. Endi baravar bo'l-dik!..



– Nima qilgan ekan Mirvali? – xayolchan so'radi Solihabibi.

Tursun yelkasini qisdi.

– Prpiska qilgan bo'lsa kerak, – o'zicha xulosa qildi Solihabibi. – Uyidan biron narsa chiqibdimi?

– Bilmadim, – dedi Tursun.

– Ishqilib chiqmasin.

– Solihabibi tintuvdan qo'rqib qolgan edi.

– Chiqsa ko'pga kesib yuborishadi. Yur, ovqatingni yeb ol.

– Keyin!

Tursun yana yugurib ko'chaga chiqib ketdi.

Solihabibi: «Hoy! To'xta!» deganicha qoldi. To'voqni qozonga qo'yib, tuvog'ini yopdi-da, hovliga chiqdi. To'laganlarnikiga borib kelish ko'nglidan o'tdi, yo'lak tomon yura boshladi ham, ammo o'zini to'xtatib qoldi. O'g'lini olib ketishayotgan kun esiga tushdi. Militsionerlar haydamaganda eshikning oldi uyoqda tursin, hovli ham odamga to'lib ketardi. Hamma narsa odamning yuzida yozug'lik bo'lar ekan. Buni Solihabibi alam, azob, uyatdan ichini it timdalayotgan bo'lsa ham o'sha kuni yaqqol ko'rdi. Tintuv boshlanishi bilan o'z uyiga begona bo'lib qolib, tintuvchilarining yonida soyadek yurar ekan, yer ostidan odamlarga – qo'ni-qo'shnilar, allaqayoqdan paydo bo'lib qolgan notanish basharalarga qarab qo'yardi. Shunda bildi, achinganlar bor. Ammo tomoshaga kelganlar ko'proq edi. Ular uchun tintuv qancha cho'zilsa, qancha ko'p narsa chiqsa, shuncha yaxshi edi. Bu istak, bu niyat shunday yuz, ko'zlariga yozib qo'yilgan edi. Bu ham mayli, harakatlarida ham, shivir-shivirlarining ohangida ham niyatları aniq edi. Militsionerlar haydaydi, nari turinglar, xalaqit bermanglar, deydi, zum

o'tmay avvalgi joylariga qaytib kelishadi, undan ham yaqinroqqa o'tishga intilishadi.

Shuning uchun o'zini ushlab qoldi, bormadi. Ammo borishi kerak edi. Dardmand odamgina birovning dardini tushunadi, achinadi. Borib, uydagilaridan holahvol so'rashi kerak edi. Mayli, kelini qaytsin, qorong'i tushsin, shunda o'tib keladi. Turg'un qamalganidan beri, o'zi sezib-sezmay qorong'ini yaxshi ko'radigan bo'lib qolgan edi. Tong saharda turib, tezroq kun botishini tilaydi, zaruratdan ko'chaga chiqmasa, o'zicha chiqmaydi, uy ichida, hovlida g'imirlab kunni kech qiladi. Kelini, nevaralari uxlashi bilan o'rnidan turadi, hovliga tushib, o'g'li yurgan yo'llarga tikiladi, ko'chaga chiqadi, qop-qorong'i onda-sonda fonarlari miltillab turgan qishloq ko'chasida yo'l poylaydi, yana hovliga qaytib, ayvon zinapoyasiga omonatgina o'tiradi-da, osmonga qaraydi, yulduzlarga, oyga tikilib kun sanaydi. Yet mishga yetib, u shunday kulfat boshiga tushishini bilmagan edi. Ba'zi-ba'zida Xudodan o'lim tilab, qo'llarini cho'zadi, ammo keksalik aql-idroki bilan niyatidan qaytib, qo'llarini yuziga surtmaydi, aksincha, o'g'li eson-omon qaytgunicha, nevaralarini yo'lga solib olguncha, sog'lik, quvvat tilaydi. O'n uch oydan beri shunday qorong'i kecha uning maslahat-chisi, ovunchi. Kechalarigina u o'zini odamdek his qiladi, rejalar tuzib chiqadi. Kun tug'ishi bilan yana tunni kutadi.

Kelini namozshom payti Tursun bilan birga kirib keldi. Solihabibi uning avzoyidan bu galgi safari ham natijasiz bo'lganini sezdi. Buning ustiga Tursun Mirvali voqeasini aytib bergen bo'lsa kerak, kelini uning qo'liga bolasini tashladi-yu, eshiklarni tars-turs ochib, ichkariga kirib ketdi. Tursun orqasidan bormoqchi edi, Solihabibi to'xtatdi:

– Opang charchagan, o'ziga kelsin.

Ikkalovi issiqda pishib ketgan, olis yo'l elitib uxbol qolgan chaqaloqni yechintirib, quruq choyshabiga o'rashdi. Otasi qamalgandan keyin tug'ilgan, endigina sakkiz oylik bo'lgan bolaga ular otasisiz, o'zlarini ism qo'yishgan edi. Kichkina To'lqin qosh-ko'zlarini, burnining kichkina bugri bilan otasiga, buvasiga o'xshar edi. Solihabibi uning tug'ilganidan qanchalik quvonmasin, dilida unga achinar, otasi qamoqdaligida tug'ilgan, shumqadam, degan gap umr bo'yi unga yopishib qolishidan qo'rqrar, kechalari uxlamay o'tirgan paytlari Xudoga yolvorib, o'g'lining tezroq qaytishini, sho'r peshona nevaralariga baxt, uzoq umr tilardi.

Ko'p o'tmay Rahima ayvonga chiqdi. Shishgan qovoqlari, chimirilgan qoshlaridan hali asabidan tushmaganligi bilinib turardi. Solihabibi nevarasiga qilgan ovqatni olib keldi, choy qo'ydi. Tursunning ikkala ko'zi opasida edi.

– Muncha tikilasan?! Ovqatingni yesang-chi! – jerkip berdi Rahima. – Ertaga shuyam bormi – Xudo biladi!

U tovoqqa qo'l uzatdi. Bir burda yog'liq nonni qotib qolgan tuxumdan ajratdi, tuxumni o'g'lining oldiga surib, nonni og'ziga soldi. Ammo yutolmay chaynalib o'tirar ekan, qaynonasiga qaradi:

– Haqiqat yo'q dunyoda oyi. O'g'lingiz hech kimga kerakmas. Biz ham. Birov kimsan, odammisan demaydi. Nega tug'dim bularni, oyi? Nega erga tegdim?!

Rahimaning ko'zlariga yosh keldi. Zo'rg'a yutinib, yonida yostiq ustida uxbol yotgan To'lqinni qo'liga oldi, bag'rige bosib, nam ko'zlarini choyshabga surtdi.

– Yig'lamang opa, – yalindi Tursun.

– O'zingni bos, bolam, – Solihabibi uni yupatdi. – Hech kimga kerak bo'lmasalaring o'zlaringga ke-



raksizlar, menga keraksizlar. Qo'yvorishmasa qo'yvorishmas. Sakkiz yil xash-pash deguncha o'tib ketadi. Tursuning o'n beshga to'ladi, tappa-tuzuk yigit bo'ladi. Ering qaytadi. Ana o'shanda, ikkalamiz to'rt qavat ko'rpaning ustida o'tiramiz. Tashvishimiz bo'lmaydi.

– Ovqatlarniyam o'zim qilaman! – dedi Tursun.

Rahima labining chetida jilmaydi.

– Tog'angga uchrashdingmi?! – uning biroz tin-chiganini ko'rib so'radi Solihabibi.

– Ha, – dedi Rahima. – U kishiga ham bizzi keragimiz yo'q. U kishigayam biz o'g'rimiz, poraxo'rmiz. Bizdan jirkanadi u kishi. Iloji bo'lsa bizni ko'rmasa!

– Urishib qoldingmi? – Solihabibi xavotir oldi.

– Urishadigan holim bormi, oyi? – istehzo bilan javob qildi Rahima. – Nimamga ishonib urishaman u kishi bilan? Tilanchiman-ku man, oyi!

– Unaqa dema, bolam. Avvalambor, jigaring. Qolaversa, buvang ko'p qarashgan unga. Menam... Menam qarab turmaganman. Uylanganda bir sidra ko'rpayostig'ini man qilib bergenman. Nima bo'ldi o'zi?

– Birinchi oblsudga bordim, – o'ziga kelgan Rahima ohista gapira boshladi.

– Yozilib qo'yganimni bilisharkan, ikkinchi ekanman raisning qabuliga. Birinchi g'azalkentlik chol-kampirlarakan. Xo'p dedim. Faqat rais bugun har gal-gidek o'n birda emas, ikkidan keyin qabul qilarkan. Shoshilinch yuqoriga, majlisga chaqirib qolishibdi.

Mayli, dedim, ishqilib qabul qilarkan-ku, dedim ichimda. Pastga tushib, oblsudning oldidagi boqqa o'tdim. Sho'tta kutay, dedim-da.

– Tog'angnikiga borsang bo'lmasmidi, issiqda ko'-chada o'tirmay? – so'radi Solihabibi.

Rahima bir chimirildi-yu, lekin o'zini tutib oldi:

- Shu paytda u kishi ishda bo'ladilar. Ishxonalariga borgani uyaldim. Qo'limda bola, qanday boraman? Bog'da skameyka ko'p, bittasida o'tirib kutdim. Haligi chol-kampir ham kelib yonimda o'tirishdi. Bir joyga ish tushgandan keyin yaqin bo'lib qolarkansan odam. Bechoralarga yuragim achidi. O'g'illari to'rt yarim yildan beri qamoqda ekan. Uchta bolasi, xotini bor ekan. Esi pas odam gapga qo'shilib qolgan ekan. Navbat kelib gap beribdi. Xotini yaxshi dasturxon yozibdi. Quyuq-suyuq tortibdi. Oshnalari ketgandan keyin, kayfi baland, bechorani tutvolib uribdi, o'rtoqlarimni yaxshi kutmading, deb. Ko'r bo'lasiz meni bilmasayiz, deb yig'labdi xotini. Bilmayman, taloqsan, debdi eri. Uchta bola bilan qayoqqa boraman, undan ko'ra, o'ldirib qo'yaqoling, deb xotin boyaqish mast erining qo'liga pichoq uzatibdi. Er o'lqur o'y lab-netib o'tirmasdan, mast-da, qorniga pichoq tiqib yuboribdi.

- Voy yashshamagur! - Solihabibi hayron bo'lib, keliniga tikilib qoldi.

- O'ldirib qo'yibdimi?

- Yo'q, qo'lini tutib qolishgan ekan, yuragiga tegmabdi.

- Voy yashshamagur!

Solihabibining hayrat va g'azabdan yuzlari cho'zilib ketdi. Tursun ham opasiga hayron qarab qolgan edi. Ichida adasi qamoqda yotgan bo'lsa ham bunday odam emasligidan, hech mahal u bunday qilmasligidan, opasini yaxshi ko'rishidan xursand edi. Uning ko'z oldida opasi qamoqxonaga olib borgan kun paydo bo'ldi. Adasi ozib, rangi ketib qolgan, ilgarigi qoshlarigacha tushib turadigan quyuq qora sochlari olingan edi. Ammo o'sha-o'sha, o'zi bilgan, o'zi ko'rjan

adasi. Uchrashuv xonasiga kirishi bilan uni ko'tarib oldi, yuz-ko'zlaridan, boshidan o'pdi. Keyin To'lqinni qo'liga oldi. Ana o'shanda, adasi opasi bilan qanday yaxshi gaplashganini ko'rди. Opasini ham quchoqladi, sekin o'pdi, qo'llarini qo'llariga olib yuziga surtdi. Yo'q, adasi yaxshi odam, hech mahal bunday qilmaydi, hech kimga pichoq urmaydi.

- Qanchaga kesilibdi?

Buvisining savoli uning xayolini bo'ldi.

- To'qqiz yilga. Chol-kampir ilgari kelishmagan ekan. Yarmi o'tgani uchun kelishibdi. Chol juda dono odam ekan. Menga shunday yoqdi, shunday yoqdi! Kampir ham yomon emas. Ammo ancha ko'ngli bo'sh ekan. Salga yig'laydi. Ro'molini ikkala uchi jiqqa ho'l. Ayb o'g'limizda, deydi chol, o'ldirib qo'yishi mumkin edi. Uchta bolasi yetim qolardi. Qamalgani bir hisobda yomon bo'lmadi. Esini yig'ib oldi. Xotin nimaligini, bola-chaqa, ota-onha nimaligini o'sha yerda bildi. Tavbasiga tayanib o'tiribdi hozir. Endi kechirishsin, aytинг, dermish. Endi qo'liga pichoq olgan odam nomard, dermish. Hikoyatning soyasiga salom berib o'taman endi, dermish. Hikoyat kelinlari, - tushuntirdi qaynanasiga Rahima. - Yigit kishining tavbasi yan-gitdan dunyoga kelgani bilan baravar, deydi chol, inobatga olmaslik gunoh. Kelin baraka topkur ke-chirdi uni, hukumat ham kechirsin, deb keldik, deydi. Kampir nima deydi deng? - Rahima beixtiyor kulib yubordi. - O'g'limning qo'liga kelinni o'zi pichoq tutqazdi, gunohni yarmi uni bo'ynida, mast odammi qo'liga pichoq berib bo'lami? - deydi. To'rt yarim yil ikkalovi - biri qamoqda, biri uyda baravar azob chekdi. Qo'shsa to'qqiz yil bo'ladi, yetadi shu, - deydi. Mundoq qaraganda to'g'rimasmi, oyи?

Rahima qandaydir umid va o'zini yupatish istagi bilan qaynanasiga qaradi. Solihabibi uning niyatini sezdi.

– To'g'ri, bolam. Kampir to'g'ri gapiribdi. Erxotinning orasida nima o'tmaydi? Erning azobi – xotinning azobi. Kelin erining gunohidan o'tib yaxshi qilibdi. Yaxshi juvon ekan. Senam ko'p ezilaverma. Ajab emas Turg'unboyam tez qaytsa!

– Koshkiydi?.. – Rahima yana jiddiylashdi, quyuq qora qoshlari chimirilib, lablari titray boshladи.

– Sud nima dedi? – uning xayolini bo'ldi Solihabibi.

– Nima derdi?! Yana o'sha gap. – Rahima xayolchan javob berdi. – Chol-kampir kirib chiqqandan keyin kirdim. Qovoq-tumshug'i osilib o'tiribdi raisni. Biladi, nimaga kelganimni. Ko'rishiminan o'zi gapirib ketdi. Paxta bo'yicha qamalganlarni boshqatdan ko'rib chiqishayapti. Eringizga ham navbat keladi. Sabr qiling. Lekin hech narsa va'da berolmayman, dedi. Aybini bo'yniga olgan, dedi. Shuni inobatga olishsin, ikkinchi qilmaydi, bolalariga, menga rahmingiz kelsin, dedim. Yig'ladim. Parvoysi palak. Bez bo'lib o'tiraverdi. Shu tob To'lqin big'illab yig'lab berdi. Ovutay deyman, bag'rimga bosaman, qani endi tinsa! O'zimmi bosolmay so'radim. Qanday bag'ritosh odamsiz, ayting, nima qilay? Qo'lidagi qalamini o'ynab manga tikilib turdi-da, keyin o'rnidan turib, yonimga keldi. Xafa bo'lmang, dedi, rostini aytay. Eringizning ishida o'zgarish bo'l-maydi, dedi. Muz bo'b ketdim. Bilardim, shundoq deyishini. Ammo shundoq deydi, deb o'ylamagan edim. Oyi! Bu qandoq ko'rgilik?! Sakkiz yil sakkiz kun emas, chidolmayman oyi, chidolmayman!..

Rahima yig'lab yubordi. Unga qo'shilib, allaqachon uyg'onib ketgan, ko'zlarini shiftga qadab yotgan chaqaloq ham yig'lay boshladи. Rahima beixtiyor



uni bag'riga bosdi, allalab tebrana boshladi, lekin anchagacha o'zi ham, bola ham yig'idan tinishmadi. Solihabibining yupatishlari, Tursunning yalinishlari kor qilmadi.

Tun kirdi. Yulduzlar charaqlay boshladi. Haligina oqarib turgan oy sariq handalakdek to'lishib, qo'shni tom ustiga keldi. Shabboda ayvонни aylanib esa boshladi. Tungi salqin ta'sir qildimi, yo charchadimi, To'lqin onasining qo'lida uxlab qoldi. Rahima ham o'ziga kelgandek bo'ldi. Bolasini yoniga yotqizib, o'rн solgani turdi. Tursun xontaxtaga boshini qo'yanicha mudrab o'tirar edi. Uni joyiga yotqizdi. Kiyimlarini yechar ekan, yuz-ko'zlaridan o'pdi. Keyin tog'asini ko'rganini aytib berdi. Uni ham tasodifan uchratibdi. Uyga ovqatlangani kelgan ekan. Kelinoyisining ensasi qotsa ham indamay gaplashtiribdi. Tog'asi yanagi haftaga bir kelib ket, surishtirib ko'raman, debdi.

Solihabibi kelinining birmuncha tinchiganidan xursand bo'lib, hovliga tushdi. Eshikdan xabar olib, vodoprovod tagida tahorat qildi. Ayvonga ko'tarilar ekan, birpas quloq soldi, uy jimjit edi. Kelinini yotibdi deb o'yladi u. «Bechora, qanday quvnoq edi, – xayolidan o'tdi uning, kulgisidan dil yashnardi, bir yilda to'kildi-qo'ydi, sochigayam oq tushibdi. Ko'rdimikan o'zi? Ko'rsa yana eziladi».

Rahima u qaytguncha ayvonning biqiniga o'rnini solib qo'yibdi. Ko'rpa ustiga cho'zildi. Shu tob ichkaridan ichki oq ko'ylagini kiygan Rahima chiqdi.

- Ha, bolam? – so'radi Solihabibi.
- Yuvinmoqchiman, – dedi Rahima.
- Ichim yonib ketayapti.
- Qarashvoraymi? – Solihabibi boshini ko'tardi.
- Yo'q, o'zim. Shunday, vodoprovodning tagiga o'tiraman.



Rahima oyoqyalang hovliga tushib ketdi.

Ko'p o'tmay Solihabibi suvning sharqirab ochilganini, kelinining avval seskanib, keyin huzur qilib, hammayoqqa suv sachratib yuvinayotganini eshitdi. «Nimani ko'rди bechora, - xayolidan o'tdi uning. - Shundoq quvnab-yashnab yashashi o'rniga, boshi tashvishdan chiqmay qoldi».

Rahima qaynanasini bezovta qilgisi kelmadimi, yo uyaldimi, oyoq uchida ayvonga chiqdi. Solihabibi beixtiyor unga tikilib qoldi, kelini xushbichimligini bilardi, ammo anchagina ko'hlik ekan. Bo'yi baland, sarvdek tikka ekan. Sochlari ham uzun ekan. Shunday yoyilib beligacha tushib turibdi. Nozik badaniga taram-taram bo'lib yopishgan jiqqa ho'l ko'ylagidan chak-chak tomayotgan suv tomchilaridan bir tomchisi sachrab Solihabibining labiga tushdi. Bahor nafasi, binafshaningmi, yalpizningmi yoqimli isi dimog'iga urilgandek bo'lib ketdi. «Ishqilib baxti ochilib ketsin», - yashin tezligida xayolidan o'tkazdi Solihabibi.

Rahima ichkariga kirib ketdi.

«Ishqilib baxti ochilib ketsin», - dedi yana ichida Solihabibi. Keyingi paytlarda u o'g'lidan ham ko'ra ko'proq kelinini o'ylaydigan bo'lib qolgan edi. Birovning bolasi, yakka yolg'iz qizi. Unikiga kelin bo'lib tushib, nima ko'rди? Endi biri ikki bo'lay deganda yosh boshi bilan tashvishga qoldi. Tag'in ham fil ekan, kasal-pasal bo'lib, yotib qolsa nima bo'ladi? Bolalarining holi nima kechadi?

Solihabibi shunday og'ir xayollar bilan yotar ekan, tun yarimlab qolganini sezmadni. Ammo uning hamon uyqusи kelmasdi. Hammayoq jimjit. Osmon tinch, yulduzlar tinch. Tom orqalab yurgan oy tikkaga ko'tarilgan. Faqat olisda, qishloqning oldidagi katta



yo'l tomondan itlarning vovullagani, paxsa devorlarining kovaklaridan chigirtkalarning chirqillagani onda sonda qulqoqa chalinardi. Boshqa hamma narsa, bor tirik jon tin olayapti, uyquda. Hammamikan? Bugundan boshlab qishloqning yana bir uyida tinchlik yo'qoldi. Mirvalilarnikida. Kelini og'iz ochmadi bu haqda. Uning ham gapirgisi kelmadı. Yaraga tuz sepib nima qiladi? Beayb parvardigor. Lekin nahotki shuncha odam aybdor bo'lsa? Shuncha odam harom yashasa? Said oqsoqol o'n sakkiz ming, dedi. Nahotki o'n sak-kiz ming kishidan insof, diyonat ketgan bo'lsa? Ichkari uyning eshigi sekin ochilib, Rahima paydo bo'ldi.

– Oyi? – chaqirdi u bo'g'iq ovozda.

Solihabibi nima qilishini bilmay qoldi. Ha desa, yana uxlamayapsizmi, deb xafa bo'ladi. Indamasa, dardini yozolmay, tonggacha ezilib chiqadi. Yaxshisi, indamagani ma'qul. Yotsin, birpas bola boyaqish dam olsin. Shunday qildi, ovoz bermadi. Rahima oyoq uchida hovliga tushdi. Solihabibi ko'zlarini ochdi. Kelini egnida shaharga kiyib tushgan tovar ko'ylagi bilan og'ilxona tomon yurib borardi. Kechasi hovliga chiqib yuradigan odati yo'q edi uning, qo'rqardi. Qorni ochdimikan? Qozonda hech vaqo yo'q-ku?! Solihabibi boshini ko'tardi. Rahima o'choqboshiga kirmadi, birpas eshik oldida turdi-da, devordagi qoziqda osig'liq turgan arqonni oldi. Keyin qayoqqadir g'oyib bo'ldi. Shaftoli shoxlari to'sib turgan og'ilxona eshigi «g'iyq» etib ochilib-yopilgani eshitildi. Solihabibining yuragi orqasiga tortib ketdi. Dahshatli gumon xayolidan o'tdi. «Rahima!» deb qichqirdi. Lekin qo'rquv va hayajondan ovozi chiqmadi. Shoshib o'rnidan turdi-da, ayvondan qanday tushganini bilmay, og'ilxonaga yugurdi. Eshikni ochganda, Rahima g'isht oxurning ustiga chiqib, bo'yniga sirtmoq solayotgan edi.

Solihabibi «Hoy!» dedi-yu, yugurib borib, qo'lla-  
riga chang soldi.

- Nima qilayapsan, ahmoq?!

Rahima bo'shashib oxurga o'tirdi.

- Jinni bo'ldingmi? - qichqirdi yana uni yelkala-  
ridan silkitib Solihabibi.

- Bollarni o'ylamadingmi? Manda nima qasding  
bor? Sharmanda qilmoqchimisan hammamizzi?!

- To'ydim, - Rahimaning ovozida na alam bor  
edi, na g'azab. - To'ydim, oyi. Hamma mendan yuz  
o'girdi. Ertaga bolaga nima beraman? Ishga chiqay  
desam, To'lqinni qayoqqa qo'yaman? O'g'liz hali-beri  
qaytmaydi. Nima qilay? O'zimmi bozorga solaymi?

Solihabibi uning yoniga o'tirdi, yelkalaridan qu-  
choqlab, bag'rige tortdi.

- Bolajonim! Sho'rpeshonam! Qo'y, o'ziyni bos.  
Ikkita kap-katta xotin jo'jadek bollarni boqolmay-  
mizmi? Boqamiz. Qo'g'irchoqdek yasatib ham qo'yam-  
miz. Sabr qil, bolam, sabr qil. Oyning o'n beshi qorong'i  
bo'lsa, o'n beshi yorug'. Odam boshidan nimalar o't-  
maydi? Otilib ketganlarning ham bola-chaqasi yuribdi.  
Innaykeyin, sanda nima gunoh? Nimangdan uyalasan?  
Parishtaning o'zisan. Ering qaytadi. Undan uyalayotgan  
bo'lsang, men onasiman, bilib qo'y. Unda gunoh yo'q.  
Uning boshini aylantirishgan. Bir balolarni va'da  
qilishgan, yo qo'rqtishgan. Ochiladi bu hali. Tinch bo'l,  
bolam. Ikkinchchi bunaqa ish qilma. Qani, manga qara-  
chi? Manga qara!

Solihabibi kelinning boshidan, yuzlaridan silab,  
o'ziga qaratdi.

- Oppog'im! Beg'uborginam!..

Shu alpozda ular bir-birlariga suyanib, oxur ustida  
o'tirishganicha tong ota boshlaganini sezishmadi.

Rahima kampirni ayasa, Solihabibi uni uydami, shu yerdami, yolg'iz qoldirishdan qo'rqedi.

Tong otib, qishloqdan chiqaverishdagi bozorchanidan Solihabibi bir tovoq qaymoq va ikkita issiq non olib kelgan-da, Rahima go'yo hech narsa bo'limgan-dek, ko'ylagining etagini lippasiga qistirib, hovli supurardi.

– Muncha erta turmasang, bolam? Hovliyam chinidek edi!

Rahima boshini ko'tarmadi:

– Kun isiydiganga o'xshaydi. Uyning ichi yonayapti. Uxlolmadim. Qalin qilib suv sepmoqchiman.

U nimanidir xirgoyi qila boshladi. Keyin birdan to'xtadi:

– Oyi! Tog'am harakat qilarmikanlar?

– Nega harakat qilmasakan? Jigaring-ku! Qiladi, – ayvonda dasturxon yoza boshlagan Solihabibi keliniga o'girildi. – Turg'unni u yaxshi ko'rardi. Ishi chiqib qolsa, hovlisiga chaqirib turardi. Harakat qiladi.

U shunday dedi-yu, o'z gapiga o'zi ishonmayotganini sezdi. Turg'unni olib ketishgan kuni o'zi borib keldi, jiyaninikiga. Keyin ikki marta Rahima bordi, kecha mana, yana kirib kelibdi. Ammo Toshkentda kattakon ishdagi jiyanidan aniq gap eshitgani yo'q. Nahotki, shunchalik bemehr bo'lsa? Yo u ham qo'rqayotganmikan? Nimadan qo'rqedi? Turg'unda ayb yo'q. Aybi boshlig'ining aytganini qilgani. O'ziga nima olibdi? Tintuvda chiqardi olgan bo'lsa? Innaykeyin, u yo bo'lmasa kelini bilardi olgan narsasini. Buning ustiga, uyiga harom narsa, o'g'irlilik narsa keltirarmidi?! O'zi boradi, o'zi borib, gaplashadi. Solihabibi minnat qiladigan odamlardan emas. Innaykeyin, tug'ishgan akasi, qoni bir odamning bolasidan minnat qilarmidi?! Adhambek urushda bedarak ketgandan keyin er-xotin



topishganini ukasining oilasi bilan bo'lib yeishdi. Ravshanbek buni yaxshi biladi. O'zi gapirgan necha marta. Nahotki, boshlariga shunday og'ir tashvish tushganda, o'zini chetga olsa?

Bugunoq boradi, nonushta qiladi-yu, jo'naydi.

Shu fikr miyasiga kelib, Solihabibi ancha yengil tortdi, tungi dahshatli voqeani unutdi. Kelini oldiga non ushatib qo'yar ekan, yana uni o'zicha yupatdi:

– Xudo poshsho, bolam. Hech mahal bandasini zor qilib qo'ymaydi. Choyingni ichib bo'lib, manga kichkina chelakda pomidor terib ber. Tursunboyni yasantir.

– Nima qilmoqchisiz?

Rahima hayron bo'ldi.

– Shaharga tushib chiqaman, – Solihabibi gap qaytarib bo'lmaydigan, qat'iy ohangda gapirdi. – Ravshanbekka o'zim uchrashib kelaman...

Qoraqishloq Yangiyo'lning shunday biqinida. Ellik yil muqaddam Andijonning Naymanchasidan quloq qilinganlar shu, Toshkentning yuqorisidagi, Sariog'ochga tutash tashlandiq joyga ko'chib kelishgan. Ular orasida Solihabibining otasi Hamrobek aka ham bor edi. Soliha o'shanda xuddi Tursundek yosh, endigina to'qqizga kirgan, Ravshanbek hali tug'ilmagan edi. Urush boshlanishidan bir oy burun uni uzatishdi. Eri Obidjon urushga ketdi. Solihabibi u yillarni eslashni yomon ko'rardi. Ketma-ket otasini, onasini ko'mdi. Buning ustiga hali tanib-bilib ulgurmagan erining xonadoniga kulfat tushdi. Qaynatasi ham urushga ketib, yil o'tmay halok bo'ldi. Ikki oilaning tashvishi uning yelkasiga tushdi. O'qishni tashlab, fermaga ishga kirdi. Qorong'ida ketib, qorong'ida qaytadi. Qaytganida ham tinchlik yo'q, kechasi bilan kiyim tikadi. Yengsiz paxtalik nimchani o'sha yillari u o'ylab

topdi. Qo'shni qishloqlardan kelib buyurib ketishadi, Qoraqishloqning yarmi qishni uning shu paxtalik nimchalarida o'tkazadigan bo'ldi.

Obidjon bir qo'lidan ajrab urushdan qaytgan yili Kalinin o'ldi-yu, Qoraqishloqqa uning nomi berildi. Lekin haligacha qari ham, yosh ham bu nomga ko'nikkani yo'q. Rasmiy qog'ozlardagina yoziladi, xolos. Og'izda hamma Qoraqishloq deydi. Butun vodiya dong'i ketgan Naymanchaning qora anjiri bu yerda ham bitadigan bo'lganidanmi, yo quloq qilingan qora kunlardan xotirami, yo urush yillari qora xat ko'p kelganidanmi, hech kim aniq bilmaydi, bu tashlandiq joy Qoraqishloq bo'lib ketdi, hamma shunga o'rganib ham ketdi. Obidjon jamoa xo'jaligiga ishga kirdi, xotini bilan fermada ishlay boshladi, keyin mudirlik qildi. Uchinchi farzandlari, Turg'unboy tug'ilganda (oldingi ikkitasi turmadi, qizamiqdan o'lib ketishdi) Obidjon fermada edi. Xushxabarni eshitishi bilan otga minib, uyga jo'nadi. Qattiq hayajonga tushib, ko'rmay qoldimi yoki ot hurkdimi, temiryo'ldan o'tayotganda poyezd urib yubordi. Ot omon qoldi, to'rt yillik dahshatlri urushdan o'tib kelgan odam esa uyining oldida jon berdi. Solihabibining eng katta alami shu edi. Otasi singari, ko'pchilik tengqurlari singari urushda halok bo'lganida bunchalik alam qilmasdi. Omon qaytsa-da, pishqirib kelayotgan poyezdni ko'rmay, uning tagida qolib o'lsa?! Bundan ham qattiq alam, dard bo'lishi mumkinmi?

Otasining yettisi kuni, chaqaloqqa Turg'un deb ism qo'yishdi. O'shanda Solihabibi o'ttiz uch yoshda edi. Turmush qurmadi, ne-ne joylardan sovchilar keldi, yo'q dedi. Bitta bola bilan qoldi. Mana endi shu bolani deb, shaharga ketayapti. Akasining o'g'li Ravshanbek shaharda o'qib, shaharda qolib ketdi.

Uch-to'rt yildan beri ministr o'rribosari bo'lib ishlaydi. Nimjon, kasalmand bola edi, otasiga ikkita keladigan bo'lib ketgan. Solihabibi uni yaxshi ko'rardi, bola-ligida ko'tarardi, katta ariqda oyoqlaridan, qo'llaridan ushlab, cho'miltirardi. Obidjon ham «godovoy» chiqqa-nida, bir arava-bir arava sabzi, piyoz qilib tashlab kelardi. Nahotki shularni unutgan bo'lsa? Ammo odam bolasini bilish qiyin. Ichiga kirib bo'lmasa! Davlat kelib, aqli ketganlar, bosar-tusarini bilolmay, bu dunyoga omonat ekanlarini unutganlar oz emas. Keliniga juda qat'iy gapirsa ham, Solihabibining dilida shunday shubha g'imirlab turardi. Turg'un kesilganidan beri Ravshanbek tayinli bir gapni ularga va'da qilgani yo'q.

Shaharga tushishidan, tag'in buvisi bilan tushishidan Tursun ham xursand edi.

– Oyi, adamlarniyam ko'ramizmi?  
– Ko'rsatsa, – dedi Solihabibi.  
– Ko'rsatmasa, opang bilan tushganingga ko'rasan.  
– Oyi! To'laganniyam adasi poraxo'rmi? – so'radi Tursun.

– Qaydam? – ikkilanib javob qildi Solihabibi.  
– Pora olganmi, pora bergenmi, bilmayman. Ikka-loviyam bir go'r. Gunoh. To'xta! – hushyor tortdi birdan u. – To'laganniyam adasi, deganining nimasi? Adangni poraxo'r deb o'ylayapsanmi?

Tursun uyalib, boshini qimirlatdi.  
– Yo'q, adang poraxo'r emas. Poraxo'rlarning pichog'i moy ustida bo'ladi. Adang labarant edi. Labarantda nima bo'lardi? Adangni aldashgan. Manavini xo'jayinizga berib qo'ying, deyishgan. Adangam bu gazetaga o'rog'liq narsa nima ekan, deb surishtirmay-netmay olib qolgan. Xo'jayiniga berguncha milisa bosgan. Adangni gunohi shu. Adang poraxo'rmas, o'g'riyammas.



Solihabibi ishonch bilan gapirdi. Nevarasini ham, o'zini ham u aldashni istamasdi. Agar o'g'li chindan pora olganida bunday demasdi. Yolg'on ham poraxo'rlikdan battar gunoh. Rostini aytardi, nevarasini boshqa gaplar bilan ovutardi, boshqacha nasihat berardi. Ammo o'g'li faqat unga emas, sudda ham shunday dedi, qog'ozga o'rog'lik narsa pulligini bilganimda, poraligini bilganimda olmas edim, dedi. Sud ishonmadi. Nega u, ona, o'z bolasiga ishonmas ekan? Innaykeyin, shunday og'ir paytda bola onasini aldarmidi?!

– Katta bo'lsam, man hecham buxgalter bo'l-mayman, laborantam bo'lmayman.

Uning xayolini bo'ldi Tursun.

– To'g'ri qilasan, – ma'qulladi Solihabibi. – Olim bo'gin, yo do'xtir bo'gin. Olimlar har xil kitoblar yozi-shadi, odamlarni yaxshilikka o'rgatishadi. Do'xtirlar shifo keltiradi. Yosh-u qarining duosini oladi. Pora nimaligini bilmaydi. Kim bo'lasan? Do'xtir bo'lasanmi?

– Mayli, do'xtir bo'laman, – buvisini xafa qilgisi kelmay rozi bo'ldi Tursun. – Tish do'xtiri bo'laman. Anavi g'it-g'it mashina bilan To'laganni adabini beraman.

– Undog' dema, qo'y, – Solihabibi nevarasini yomon niyatidan qaytardi. – Bechora bola adabini yeb o'tiribdi, otasi qamalib. Seni mazax qilmaydi endi. Ular shunday gaplar bilan katta ko'chaga chiqaverishdagi tolzorga yetishdi. Avtobusning so'ngi bekati shu yerda, choyxona ro'parasida edi. Solihabibi qo'lidagi usti doka bilan yopilgan chelakni yerga qo'yib, qaddini rostladi. U ham nevarasi kabi birdan qaror qilib, shaharga tushayotganidan xursand edi. Har holda bir gap topib keladi, xotiri jam bo'ladi. Kelinidan ham ko'ngli tinch edi. Yomon fikr odamning



xayoliga kechasi keladi, qorong'ida keladi. U esa qorong'i tushguncha qaytadi.

Choyxona tomonda, yoz bo'lishiga qaramay, ko'k movut chakmon kiyib olgan bir chol ko'rindi. U hassaga tayanib, bitta-bitta yurib keladi. Solihabibi tanidi. Qishloq mutavvalisi Saidoqsoqol edi. Aytishlaricha, denga qarshi yurish avjiga chiqqan yillari Shirinsoy-dagi machitni buzishga qaror qilishibdi. Ammo hech kimning yuragi dov bermabdi. Shunda yaqinda komsomolga o'tgan Said machitning tomiga chiqib birinchi ketmon urgan ekan. O'shandan ko'p o'tmay o'ng tarafi, yuzidan oyog'igacha qotib qolgan. Ne-ne doktorlar ko'rmadi. Qo'li, oyog'i harakatga keldi-yu, ammo yuzi qotganicha qoldi. Shundan bo'lsa kerak, xalq uni orqasidan Saidqiyshiq ham deydi. Anchagina o'qimishli bo'lganidan, va'zxonligidan uzoq yil qishloq kengashida ishladi. Urush yillari xalq uning gunohidan o'tib, mutavvali qilib qo'ydi. Shu-shu biron ma'raka usiz o'tmaydi, kattalar qatori uyning to'ri uniki. Obid akaning yiligacha hamma ma'rakalarida o'zi bosh bo'lib turdi, Turg'un qamalgandan keyin ham bir necha marta kelib, hol so'rab ketdi.

– Ha, chevar, yo'l bo'lsin? Shahargami? – so'radi yaqinlashganda.

– Shundoq, – Solihabibi iymanib javob qildi, xayrli ishga ketayotib birinchi ko'rgan odami Said oqsoqol bo'lganidan, yaxshilikkamikan, yomonlikkamikan, bilolmay xavotirlandi. – Aylanib kelaylik ona-bola.

– To'g'ri qilasiz, chevar, – Said oqsoqol to'xtadi. – Ko'rgan eshitgandan ma'qul. Turg'unboyga salom ayting. Sabr qilsin. Yaxshi ishlasin. Yaxshi ishlaganga bir kun uch kunga o'tarmish.

– Ko'rsatadimi, ko'rsatmaydimi, bilmayman, – javob qildi Solihabibi. – Bugun ko'rsatadigan kunimas.

– Ko'rsatadi! Shunday pahlavon bilan borasiz-ku, ko'rsatmaydimi?!

Said oqsoqol Tursunning boshidan siladi. Avtobus keldi. Solihabibi chelakni qo'liga oldi.

– Salomni unutmang, chevar! – bir yuzi bilan jilmayib qichqirdi Said oqsoqol. Solihabibi nevarasini mashinaga chiqarish bilan ovora edi, indamadi.

Bir yarim soat chamasi har yer-har yerda to'xtab, avtobus ularni Oloy bozoriga olib keldi. Shu yerdan u orqaga qaytardi. Solihabibi bir qo'lida chelak, bir qo'li bilan nevarasini mahkam ushlaganicha avtobusdan tushdi. Jiyaniga uchrashish zarurligini tushunsa ham avval turmaga borishga qaror qildi. Bozor darvozidan sal narida tramvay to'xtardi. Shu yoqqa yurdi. Tursun uning niyatini sezdi.

– Adamlarni ko'ramizmi oldin? – so'radi u quvonib.

– Boraylik-chi, bolam. Zora ko'rsatsa!.. – Solihabibi buyog'iga yo'lni yaxshi bilardi.

Turg'unni suddan keyin to'g'ri shu yoqqa olib kelishganda, orqama-orqa u ham kelgan edi. Sud hukmini yaxshi eshitgan bo'lsa ham, o'g'lining qamal-ganiga ishonmay, uch kun turma oldida qolib ketdi. Go'yo xato tuzaladi-yu, Turg'un mana, hozir bo'shab chiqadi! Qorni och chiqadi hoynahoy. U shu fikr bilan uch kun turmadan bozorga, bozordan turmaga qatnab, issiq-issiq narsalar olib kelib o'tirdi. Ammo turmaning beso'naqay temir darvozasi uning o'g'liga ochilmadi.

Tramvay tez keldi. Odam kam edi. Ikkalovlari yumshoq kursilarda o'tirib, turmaga yetib borishdi. Ammo orzulari ushalmadi. Solihabibi qancha iltimos qilmasin, ichkariga kiritishmadi. Pogoniga qo'sh yulduz taqqan o'g'li tengi yosh militsioner chiqib, hatto koyib berdi. Mumkin emas, dedi. Yakshanba kuni

kelinglar, dedi. Tursun yig'lab, jon amaki, deb yalinsa ham ko'nmadni, haqqim yo'q, dedi.

**SV** Suvi qurigan ariq labida, qovjiragan o't ustida ketolmay o'tirishar ekan, Tursun baland temir darvozaga sim-simdek taraq-turuq qilib har ochilganda qizargan ko'zlarini mo'l tiratib qarar, ichkariga kirib ketayotgan usti berk mashinalar ortidan yugurgisi, dadasingin bo'yniga yopishib: «Ada! Sizni judayam sog'indim, tezroq uyga qayting!» degisi kelardi. Ertalab onasi kiyintirayotganda ham, avtobusda kelishayotganida ham dadasinga aytadigan ko'p gaplarni o'y-lab qo'ygan edi, arifmetikadan oxirgi chorakka besh olganini, sinf rahbari uni maqtab, hammaga o'rnak qilib ko'rsatganini aytmoqchi edi, yana ancha o'ylagan gaplari bor edi, hammasi ichida qoldi.

– Xafa bo'lma, bolam, – yupatdi uni Solihabibi. – Dam olish kuni opang bilan kelasan, ko'rasan adangni. Bularga ham qiyin, har kim xohlagan kuni kelaversa, turma turma bo'ladimi? Tartib bo'lishi kerak, ayniqsa, shunaqa joyda. Kelasanmi otdix kuni?

Tursun yoshga to'lib turgan ko'zlarini mushtlari bilan artib, boshini qimirlatdi.

– Xafa bo'lma. O'zim chetlariga gul solib patir non yopib beraman. Adang patir nonni yaxshi ko'radi. Sanam yaxshi ko'rasan-a? – Tursun yana boshini silkitdi. – O'rgulay sandan, qoqindig'im. Chanqama-dingmi? Chanqagan bo'lsang, gazsuv oberaman. Qana-qasini oberay? Qizil suvmi, yo sariq suvmi?

– Qizil, – dedi o'pkasi to'lib Tursun va birdan o'zini tutolmay, yig'lab yubordi.

Solihabibi uni o'ziga tortib, bag'rige bosdi. Yelkalaridan, bosh-ko'zidan silab, o'pdi. Tursun anchaga-cha o'ziga kelolmay, bo'g'ilib-bo'g'ilib yig'ladi-da,

charchadimi, yo buvisining erkalagani elitdimi, uxbab qoldi... Kun tikkaga kelganda, ular qarindoshlarini-kiga yetib borishdi. Hayvonot bog'iga yaqin sokin va salqin ko'chadagi eshiklari ham hovliga, ham ko'-chaga chiqadigan to'rt qavatli g'isht uyning keng zinalaridan ko'tarilishar ekan, Tursun xavotir olib, so'radi:

- Uyda hech kim bo'lmasa-ya, oyi?
- Unda hayvonot bog'iga olib kiraman sani, - dedi Solihabibi yuragi g'ulg'ulaga tushib. - Uzoqmas, hov ana, ko'chaning oxirida.
- Bilaman, opam olib tushganlar. Tog'amni ko'r-ganimiz yaxshi.

Tursun yugurib uchinchi qavatga ko'tarildi va tanish eshikning qo'ng'irog'ini bosdi. Allambalo mu-siqa chalinib bo'lishi bilan eshik ochildi.

- Voy, Tursunmisan?
- Assalomalaykum!

Tursun uzun gulli xalat kiyib olgan xushtabiat ayolga qo'lini uzatdi. Ayol uni quchoqlab, peshonasiдан o'pdi.

- Kim bilan kelding? Opang qani?
- Tursun javob berib ulgurmadi, pastdan buvisining ovozi keldi:

- Zumradxon! Man keldim, bolam!..
- Ular quyuq ko'rishishdi. Ichkariga kirishganda, Tursun kelinoyisisiga yaxshi ko'ringisi keldimi, yo ochiq chehra bilan kutib olganidan xursand bo'lib ketdimi, shoshib buvisining qo'lidagi chelakni ko'r-satdi:

- Biz sizga pomildori olib keldik. Dorisi yo'q. Oyim o'zлari ekkanlar! Qarang!
- Voy, oyingdan aylanay! Ovora bo'lib nima qilar-dinglar shu issiqda?

Zumradxon shunday dedi-yu, Tursun bilan birga Solihabibining qo'lidan chelakni olib, ustini yechdi.

- Muncha chiroyliz?!

- Mazasini ayting, bolam, mazasini! - Solihabibi ham kelinning chehrasi yorishib turganidan yengil tortib, gapga aralashdi. - Shakar, shakar!..

Zumradxon bir xil, qip-qizil olma nav pomidordan bittasini olib hidldadi.

- Hidiyam boshqacha! - maqtadi u va ichkari xonalardan biriga kirib, bir hovuch zar qog'ozli konfet olib chiqdi-da, Tursunning qo'llariga soldi. - Katta yigit bo'lib ketibsan-ku, Tursun?!

Tursun uyalib jilmaydi.

Fotihadan so'ng Zumradxon dasturxon yozayotgan edi, Solihabibi to'xtatmoqchi bo'ldi.

- Birrov ko'rgani keldik. Ovora bo'lmaning, bolam. Ravshanbek yaxshi yuribdimi?

- Yaxshilar, rahmat. - Kelin baribir dasturxon tuzadi, non, qand-qurs olib kelib qo'ydi. - E, opa, uzzukun ishdalar. Shanba yo'q, otdix yo'q, uzilib qolasiz bunaqada, sal o'zingizga qarang, deyman. U kishini bilasiz-ku, onalari ishga tuqqan. Hammaning ishi, tashvishi u kishining boshida. Ministr bor, boshqa o'rinnbosarlar ham bor-ku, deyman jahlim chiqib. Yo'q, o'z bilganlaridan qolmaydilar. Koshki odamlar qadriga yetsa, yetmaydi.

Solihabibi Zumradxonning gap orasida gap qisitrib ketish odatlarini bilardi, hozir ham uning nima demoqchiliginи sezdi, lekin boshqa iloji yo'q edi, shuning uchun maqsadga o'taqoldi.

- Baraka topsin Ravshanbek. Hojat chiqarish ota kasbi. Birovlar qadriga yetmasa yetmas. O'zi xursand bo'lsa bo'ldi. Bolam, manam Turg'unboyni gaplashib



- Dori solinmagan, tog'a, - qo'shib qo'ydi Tursun.

Ravshanbek achchiq-chuchukni ham, oshni ham ishtaha bilan yedi. Solihabibi chaynalib o'tirdi. Ko'z oldiga o'g'li, tungi qilig'i bilan yuragini tilka-pora qilgan kelini keldi-da, tomog'idan o'tmadi, nevarasini undadi. Ammo Tursun ham chaynalib o'tirdi. Hashamatli uy, tog'asi, ikki gapning birida olinglar, deb qistagan kelinoyisining salobati bosdi.

Ovqatdan so'ng, Ravshanbekning o'zi gap ochdi, Rahimaga kecha yana bir surishtirishni va'da qilgанинни аytди. «Turg'unda ayb yo'q. Albatta qonun nuqtayı nazaridan pora olgan ham, pora bergen ham jazoga tortilishi kerak», - dedi u. Turg'un o'rtada turgan, xolos. Paxta punktining boshliqlari bilan poraxo'rga chiqarib qo'yishganiga u ham qo'shilmaydi. Bir narsa qilish kerak. Maslahatlashib ko'radi, tanish-bilish qidiradi.

Shu tob oshxonada yurgan Zumradxon erini chaqirdi. Ravshanbek anchagacha yo'q bo'lib ketdi. Ular nimani gaplashishdi. Solihabibi eshitmadni. Ammo jiyani o'zgarib qaytdi.

- Tanishlarni surishtiraman, - dedi u gapga xulosa qilgandek. - Lekin bilasiz-ku, opa, hozir qanaqa davr, qamalibdimi, demak biron gap bo'lsa kerak, deb o'ylaydi hamma. Nima qilish kerak, bilolmadim. Quruq gapdan boshqa biron isbot yo'q.

- Isbot uning rost gapi, - e'tiroz bildirgan bo'ldi Solihabibi. - Yo'q dema, bolam. Bir unnab ko'r. Obis qilishdi, obisda hech narsa chiqmadi, shu isbotmasmi?

- Harakat qiladilar. - Yangi choy ko'tarib kelgan Zumradxon gapga aralashdi. - Tanish-bilishlari sud idoralarida yo'q-ku, lekin harakat qiladilar. - U eriga murojaat qildi. - Solhapammi gaplari to'g'ri. Rost gap isbotamasmi, Ravshan aka?

- Isbot-ku, ammo... - Ravshanbek o'ylanib qoldi. Soatiga bir qarab qo'yib, Solihabibiga o'girildi. - Harakat qilaman.

- Shunday qil, bolam. Qachon xabar olay? - so'radi Solihabibi.

Eri uchun Zumradxon javob berdi.

- Voy, siz ovora bo'lib nima qilasiz? Taglarida mashina. O'zлari xabar beradilar. Ilojlari bo'lmasa, mashina berib turadilar, men g'ir etib borib kelaman.

- Ha, siz ovora bo'lmaning, - uni quvvatladi Ravshanbek o'rnidan turar ekan. - Men endi boray. Tursunboy, xayr, jiyani. Kelib turgin, xayr, opa. O'zimiz xabar beramiz.

U shoshilib, orqasidan birov quvayotgandek, eshikka otildi.

«Harakat qilmaydi», - xayolidan o'tkazdi Solihabibi.

U jiyaning hech mahal sud idoralariga ishi tushmaganini, bunday ishlardan mutlaqo chetda ekanligini bilmasdi. Gap jiyanimning o'zida, deb o'ylardi.

Shu mulohaza bilan noumid shayton, yuziga tabassum yurgizib, erini kuzatib kelgan keliniga murojaat qildi:

- Zumradxon, manavi divanizga ko'rpacha yozib qo'ysa bo'lar ekan. Beqasamdan. Qavib beraymi? Yosh narsa qiynalmang, aytib turing shunaqa ishla bo'sa.

Zumradxon suyunib ketib:

- Voy rahmat, opa! Jiyanz ko'rpachani yaxshi ko'radilar. O'zimam bitta xonani shunaqa, o'zbekcha qilib qo'ymoqchiman. Xontaxtada, atropida ko'rpa-chala.

- O'zim qilib beraman. Mayda qaviq qilib, yengil qilib!..



Solihabibi gapi ma'qul tushganini ko'rib, maqsadga o'tdi.

– Jon bolam, ayting! Ravshanbek harakat qilsin, bitta-yu bitta o'g'lim-a!

Zumradxonning o'zi sezmagan holda qoshlari chimirildi.

– Va'da qildilar-ku, opa! Mayli, yana aytaman.

– Ayting. Umr bo'yi duoyilani qilib o'taman!

\* \* \*

... Avtobus qishloqqa kirib kelganda, kun hali yorug' edi, issiqning tafti tushmagan, mashinaning ko'kish tutuni changga qo'shilib, havoda jimirlardi.

– Oyi, qornim ochdi, – dedi Tursun yerga tushishganda.

– Uyga keldik, bolam, – yupatdi uni Solihabibi. – Opang hoynahoy biron ovqat qilayotgandir. To'xtachi! – uning esiga qo'lidagi chelak tushdi. – Qaraylik, kelinposhsha nima solib qo'ydiykin...

U shunday deb, yo'l yoqasida yotgan xarsang tosh ustiga o'tirdi.

– Charchadim-a jindak.

U chelak ustidagi dokani ko'tardi. Zumradxon ikki quti pechenye, har xil konfet solib qo'yibdi. Bitta qutini yirtib, nevarasiga uzatdi.

– Ol. Yaxshiga o'xshaydi.

Tursun yupqa, cheti gullik sap-sariq pechenyedan olib, bittasini tishladi. Qars-qurs qilib chaynar ekan, hayron bo'ldi:

– Bulani pechennisiyam boshqacha-ya, oyi? Shirinmas. Yeb ko'ring.

Solihabibi nevarasi uzatgan pechenyening bir chetini sindirib, og'ziga soldi.



- Ulani hamma narsasi boshqacha. Ula shirinlik  
yeyishmaydi.

- Nega? - qiziqdi Tursun.

- Shirinlik semirtiradi, deyishadi. Achchiq nar-  
sayam yeyishmaydi. Tuz kam ishlatishadi. Boya  
achichuvdan yedingmi?

Tursun yo'q, deb boshini qimirlatdi.

- Yaxshi qipsan. Tuzsizidi. Kelinposhsha mayli,  
pigurasidan qo'rqedi. Ravshanbekni nima jin urdi?  
Achichuvni tuzsiz yeb bo'larkanmi?! O'z nomiminam  
achchiq-chuchuk.

Solihabibi jiyanini tilga olib o'ylanib ketdi. «Na-  
hotki harakat qilmasa? Nima qilarkan, shunday tele-  
fonni olib, bir yildan buyon qamalib yotgan Turg'un-  
boy jiyanim bo'ladi, boshqatdan tekshiringlar, uni  
juda katta aybi yo'q, desa? Aybi o'rtada turgani.  
Mayli, shungayam jazo kerak bo'lsa, jazosini tortdi.  
Bir yildan buyon qamalib yotibdi. Uyida ikkita bolasi  
qolgan. Ikkaloviyam yosh. Bittasi, qamalgandan keyin  
tug'ilgan. Xotini, onasini borishmagan joyi qolmadni,  
yaxshilab boshqatdan tekshiringlar, desa? Yo o'zidan  
qo'rqa yaptimikan? Solihabibi shunday o'ylab, nima  
uchun harakat qilmasligining sababini topgandek  
bo'ldi. Zumradxonga o'xshaganlar birovga yordam  
qo'lini cho'zmaydi. Gap bilan avrab, o'zini olib qochadi,  
ular o'zini o'ylaydi. Ravshanbek ham boshini og'ritib,  
tinchligini buzib nima qiladi? Nimadir guvillagandek  
bo'ldi. Solihabibi hushyor tortib, atrofiga qaradi.  
Hammayoq tinch edi. Bekatga birin-ketin yig'ilgan  
odamlar xotirjam avtobus kutishardi, choyxona to-  
monda, tolzorning tagida tizgini shoxlariga o'rav  
qo'yilgan targ'il sigir erinib kavshanardi. Nima gu-  
villadi? Solihabibi toshga qo'lini qo'ydi. Tosh yonardi.  
Yana guvillagan tovush qulog'iga chalindi. U tanidi

bu tovushni. Naymanchadan ko'chishayotgan payti yaqin qo'shnilaridan biri uyiga o't qo'yib yuborgan edi. Qiy-chuv bo'lgani yo'q, hech kim to'polon qilgani yo'q, o'shanda. Yosh-u qari indamay uyning yonishiga tikilib turishdi. Qamish yopilgan loy tom, yog'och ustunlar ana shunday, tovush chiqarib, guvillab yongan edi.

Solihabibi xavotirlanib, yana atrofiga qaradi, qimir etmay turgan daraxtlarning uchiga, osmonga tikildi. Hech qayerda yong'in nishonasi yo'q, hammayoq tinch edi.

– Yer yonayapti, – xulosa qildi o'zicha u. – Bu yerning yongani.

– Nima dediz, oyi? – so'radi Tursun.

– Yer yonyapti, – qaytardi Solihabibi.

– Qani?

Tursun qiziqb atrofiga qaray boshladi. Ammo hech narsa ko'rmadi.

– Hech narsa yo'q-ku? – hayron bo'ldi u.

Solihabibi bolani qo'rqtib qo'yayotganini sezdi.

– Issiq bo'lganda shunaqa deyishadi, bolam. Hech narsa yonayotgani yo'q.

Qani, ketdik!

– Chelakni manga bering, og'irmas.

Solihabibi yo'q demadi. Ikkalovi yana yo'lga tushishdi. Yo'llari endi yaqin edi. Uylarigacha bir qadam. Hali zamon yetishadi. Solihabibi kelinini tinchitadi. Ravshan tog'ang astoydil va'da qildi, deydi. Keyin qolgan-qutgan narsalarni yig'ishtirib, bir kosa bo'lsa ham issiq ovqat qiladi. Bolalarga issiq ovqat kerak. Yosh bolalik keliniga ham. U shunday o'ylab, bitta-bitta yurib borar ekan, ichi yonib ketayotganini sezdi, tomog'i, og'zini kuydirib, yuragidan olov gurillab chiqayotgandek bo'ldi. Yarim kechada o'g'lini olib

ketishganda ham, sudning hukmi o'qilganda ham, u bunday ahvolga tushmagan edi. Nima bugun uni bunchalik qiyonoqqa soldi? O'g'lini ko'rsatishmaganimi, yo jiyanining soxta muomalasimi? Hammasi qo'shilgan, bugungi azoblari ham, kelinining tungi qo'rqtishlari ham, hammasi yuragiga tugilib qolgan edi. Uning nazarida issiqdan havo jimirlab, yer yonayotgandek bo'lsa, yig'ilib-yig'ilib, yorilay deb turgan dardlaridan o'zi yonayotgandek edi.

Uyga kirishganda, Rahima ayvon zihida bolasini emizib o'tirardi. Tursun yugurib borib, chelakni tutqazdi.

– Qarang!

Solihabibi jilmaydi.

– Eringni ko'rolmadik. Qo'yishmadi. Ammo tog'ang baraka topsin, va'da qildi. Katta-katta odamlaminam zud gaplashaman, dedi.

Tursun og'zi qulog'iga yetib, kelinoyisi osh qilib kelganini, tog'asi qo'liga ko'tarib, peshonasidan o'pganini gapirib berdi.

– Oldinroq borsangiz bo'lar ekan, – jindek o'pkalandi Rahima.

– Shuni ayt, bolam! – qo'shildi unga Solihabibi va kelini boshqa gapga tutmasligi uchun o'choq boshiga yo'l oldi.

Rahima hech narsaga unnamagan edi. Kim biladi, balki kechagi voqeadan keyin bu tomonga kelishga cho'chigan hamdir?

Solihabibi qozonning tuvog'ini ko'tardi. Nima qilsa ekan?

U tandirning yonida qog'oz qopda kartoshka borligini bilardi. Yana nima bor ekan? Sabzi bor. Bitta tovoqda oq yog'ning jizzasi bo'lishi kerak. Shu jizzaga kartoshkani parrak-parrak qilib to'g'rab, pomidor



bilan qovursamikan? Solihabibi supaning burchagida turgan xumlarni qaramoqchi bo'ldi. Bir paytlar shu katta-kichik xumlarda un, yog', don turardi. Nimadir balki qolgandir? Anchadan beri qaramagan edi. U supaga ko'tarilib, birinchi xumga qo'l soldi. Bo'mbo'sh. Bitta-ikkita guruch donalari qo'liga botdi. Ikkinchchi xumga qo'l soldi. U ham bo'sh edi. Yog' turgan ekan unda, panjalari yaltirab chiqdi. Uchinchi xumda nimadir bor edi. Unmi, kepakmi, bilolmadi. Qo'lini sug'urmasdan kovlab ko'rdi. Kepak bo'lsa kerak, panjalariga tikan botgandek bo'ldi. Umid bilan yana kovladi. Qattiq bir narsa qo'liga tegdi. Nima bo'ldi ekan? U yana kovladi. Xamirturush bo'lsa kerak. Lekin kim solib qo'ydi uni? U eslolmadi. O'zi solmagani aniq edi. Rahima soldimikan? Kepakka ham xamirturush soladimi, tentak? Xamirturush kaftiga zo'rg'a sig'di.

Qo'lini sug'urganda ko'rdi, bu xamirturush emas, sellofanga o'ralib ustidan kanop bilan tang'ib tashlangan bir narsa edi. Nima bo'ldi ekan? Solihabibi kanopni yechib, sellofanni ocha boshladi. Ochdi-yu, hang-mang bo'lib qoldi. Sellofanning ichi bir hovuch Nikolay podshoning suvrati solingan tilla tanga edi. Sanadi. O'nta ekan. Yuz so'mdan bo'lsa ming so'm. Bundan ham qimmatdir balki? Qayerdan kelib qoldi bu tilla pullar? Kim berkitib qo'ydi bu yerga?

Solihabibi o'yladi-yu, yuragi orqasiga tortib ketdi. «Turg'unjon bolam! Nima qilib qo'yding?! - dedi ichida tizzalariga tayanib cho'kkalar ekan. - Nima qilib qo'yding, bola tushmagur?!» Turg'undan boshqa bu ishni hech kim qilmasdi. Bir ko'ngli kelinidan so'ramoqchi bo'ldi. Lekin o'zini tutdi. U bu ishni qilmaydi. Tiyinga zor o'tiribdi-yu, shu ishni qiladimi? U farishtaning o'zi. Bu ishni qilish u yoqda tursin,



eshitsa, o'zini bir balo qilib qo'yadi. Bu Turg'un. Demak, xo'jayinlarining qing'ir ishlariga u sherik. Ular bilan birga. Tintuv bo'lismi bilib, buyoqqa yashirgan. Militsyaning xayoliga kelmagan bu yoqni ko'rish. Nega aytmadni, oyisiga, xotiniga? Ulardan ham yashirdimi? Yo omonatmikan? Omonatligi uchun aytmadimikan? Baribir, omonat bo'lsa ham o'g'irlik bu. Uning Turg'uni, yakka-yu yagona, gard yuqtirmasdan, yetimlikni sezmasin, deb, tul o'tib o'stirgan bolasi o'g'ri. Nima qilish kerak? Keliniga qanday aytadi? Odamlarning ko'ziga, Ravshanbekka qanday qaraydi endi? Tursunga nima deydi?

Solihabibi miyasini chulg'ab olgan shunday o'y, xayollar bilan ancha o'tirdi. Keyin tangalarni bitta-bitta taxlab, qog'oziga o'radi. Yo'q, aytolmaydi keliniga, tili bormaydi, aytishga or qiladi. U shu qarorga kelib, qog'ozni xumga soldi, negadir ustidan yana kepak ham sochib qo'ydi. Pastga tushib butun vujudi bo'-shashib ketgan bo'lsa ham, bir amallab ovqatga unnadi. Kartoshka qovurdi. Ish bilan ovora fikrini jamlab olgandek bo'ldi shekilli, bir-ikki kelib xabar olib ketgan Rahima ham, nevarasi ham undagi o'zgarishni sezishmadi.

– Ertalab, sizlardan keyin ispolkomga borib keldim, – dedi ovqat mahali Rahima.

– Rais borakan, jamoa xo'jaligi bilan gaplashib, sigirni qaytarib beradigan bo'lishdi.

– Yaxshi qipsan, – ma'qulladi Solihabibi va ichida: «Sigir endi judayam kerak bularga», – deb qo'ydi. Shunday dedi-yu, cho'chib ketdi. To'satdan, hech o'ylamay u o'zini ulardan ajratib gapirgan edi. Nega shunday dedi, u hali aniq bilmasdi. Boshida g'uvillab turgan ming xil fikrlar ichida shu qaror ham paydo bo'lgan edi, qariganida gunohga botgan odamdan

o'zi sezmagan holda, onalik, ayollik hissi bilan pokiza kelinini, norasida, g'uborsiz nevaralarini ajratib olgan edi.

Rahima joy solib, bolalarini ichkariga olib kirib ketganda, u odatdagidek tahorat qilib keldi-da, joyiga yotdi. Ammo uyqu yo'q edi. Shunday bo'lsa ham uxbab qolishdan qo'rqb, o'rnidan turdi. Hovliga tushib, tungi yengil shabadadan silkinib turgan shaftoli shoxlariga, nimrang oy nurida dam yaltirab, dam qorayib shitir-  
lagan barglarga, tolyog'ochlarga o'zi bir tekisda kecha terib chiqqan pomidorlarga suq bilan tikildi. Vodoprovod yonidagi oshrayhondan bir shox sindirib olib, kaftiga urdi. Yoqimli hid dimog'ini qitiqladi. Ko'chaga chiqdi. Ko'cha jimjit, hamma yotgan edi. U yer-bu yerda xuddi yulduzlardek fonarlar miltillab turibdi. Ertalab ular o'chadi, yulduzlar ham o'chadi. Kun yoriydi, oftob chiqib, yer yuzini qizdiradi. Hamma uy-uyidan chiqib, o'z nasibasini tergani ketadi. U ham yaqin-yaqingacha shu odamlarning biri edi. Umid bilan turardi, umid bilan kunni kech qilib, yana tongni kutardi. Endi unga tong kerakmas, tong odamlarning nazari, vijdoni, odamlarga qarolmaydi endi. Ichkaridan tovuqning bezovta qaqlagani eshitildi. Solihabibi eshikni tambalab, orqasiga qaytdi. Og'ilxonadan katta qora mushuk chiqdi, paxsa devorni timdalab-timdalab tomga ko'tarildi. Cho'g'dek ko'zlarini ayvon tomonga birpas tikib turdi-da, g'oyib bo'ldi. «Bekorga ovora bo'lding, jonivor, - xayolidan o'tkazdi Solihabibi. - Tuxum bo'lganda ovqatga solardim. Piyoz turibdi tuxum o'rnida». U ayvon zihiga o'tirdi.

- Xudo-ey! Manda nima qasding bor edi!

U ovozini chiqarib shunday deb yuborganini o'zi bilmay qoldi. Xavotirlanib ichkariga quloq soldi. Yo'q, hech kim eshitmadni uni. Eshitmagani ma'qul.



Uyqulari bezovta bo'ladi eshitishsa. Ordona qolgurni nega yana xumga solib qo'ydi? Ko'z ko'radigan joyda turgani yaxshi emasmi? Tezroq topishadi. U o'zi aytolmaydi. Ojizlik qiladi aytishga. O'z og'zi bilan o'z bolasini o'g'ri, deydimi? Yo olib, uyoq-buyoqqa tashlab yuborsinmi? Hech kim bilmagani ma'qulmi? Shunday o'yladi-yu, kaftlari yongandek bo'lib ketdi. «Turg'unboy, bolam, nima qilib qo'yding? Nega qari onangga rahming kelmadi?»

Solihabibi oshxonaga bordi, timiskilanib, xumdan sellofanni oldi-da, o'choq yoniga qo'yib qo'ydi. Shu joy ma'qul. Rahimadan boshqa hech kim ko'rmaydi. U ham darrov ko'rmaydi, anchadan keyin ko'radi.

Oshxonadan chiqib osmonga qaradi. Oy tikkaga kelgan edi. «Hali vaqt bor, – xayolidan o'tdi uning. – G'ira-shiraga yaqin tuzuk».

U ayvonga qaytdi. Ichkari xonada qator yotishgan nevaralari, kelini ustiga keldi. Tursun isib ketibdi shekilli, ustini ochib tashlabdi. Rahima To'lqinning bosmini bilagiga qo'yanicha, yonboshida uxbab qolibdi. Hech kim uning kirganini sezmadni.

Solihabibi engashib, Tursunning peshonasidan o'pdi. Keliniga tekkani cho'chidi, uyg'onib ketadi deb. Birpas mehr bilan tikilib turdi-da, hovliga tushdi. Nazarida kun yorishayotgandek bo'ldi.

– Vaqt bo'pti, – dedi o'zicha u va oshxona tomon yo'l oldi.

Kerosin solig'liq temir kanistrning qayerdaligini u yaxshi bilardi. Darrov topdi. Tandir tagida edi. Hovliga olib chiqdi. Qo'lida qayerdan gugurt quti paydo bo'lib qoldi, bilmaydi. Demak, bo'ldi. Shunday chaqsa tamom, guvillab, o'sha, bolaligida ko'rgan Nayman-chadagi uydek yonadi-ketadi. Dardlari, tashvishlari shu bilan tugaydi. O'zining, o'g'lining gunohlarini shu



bilan yuvadi, nevaralari, kelinining yuzi yorug' bo'ladi.

U qancha o'ylamasin, to'g'ri ish qilayotganiga ishonchi komil edi, boyta, o'choqboshida charsillab yonayotgan g'o'zapoyaga tikilib turganida shu qarorga keldimi, yo tilla tangalarni ko'rGANidami, buning endi ahamiyati yo'q edi. Bu dunyoda endi u bosh ko'tarib yurolmaydigan bo'lib qolgan edi. Yer bekorga yonmagan ekan, unga xabar bergen ekan, chaqirgan ekan o'z bag'rige...

Shu payt: «Oyi!» degan ovoz qulog'iga chalingandek bo'ldi. Tanidi, bu Turg'unning ovozi edi, «Oyi! Nima qilayapsiz? To'xtang!» degandek bo'ldi o'g'li yana.

Solihabibi umid bilan eshik tomonga qaradi. U o'g'lining kelib qo'lidan tortishini, niyatidan qaytarishini istagan edi.

Ammo qorong'i hovlining boshida hech kim ko'rINMADI. Olov avval «gup» etib, yuziga urdi. U beixtiyor ko'zlarini yumdi, boshini orqaga tortdi. Shu zahoti jizg'anak, kuyundi hidi dimog'iga urildi, sochlari chirsillay boshladi. Bir amallab ko'zlarini ochganda, olov guvillab, oshxonaning qamish tomiga o'tayotgandek bo'ldi. U xavotir olib, o'zini pomidor ichiga otdi.

– Xudo o'zing kechir! Kechir mani Xudo!

Uning oxirgi gaplari shu bo'ldi.

\* \* \*

Said oqsoqol tuproq tortilib, go'rkov bir-ikki ketmon urib qo'yguncha kutib turdi. Keyin so'radi:

– Xaloyiq! Marhuma qanday odam edi?

Hozirgina g'ala-g'ovur bo'lib turgan qabristonga sukunat cho'kdi. Hech kimdan sado chiqmadi. Said oqsoqol yana so'radi:



– Marhuma qanday odam edi, xaloyiq?

Ketmon sopiga qo'llarini tirab, xomush turgan go'rkov boshini ko'tardi.

– Yaxshi odam edi! – dedi u tiniq ovoz bilan.

– Yaxshi odam edi! – qichqirdi orqa qatordan yana kimdir.

Said oqsoqol qo'llarini yozdi:

– Omin! Joyi jannatda bo'lisin!

Ish kuni, boshni yoradigan issiq bo'lishiga qaramay, qabristonda odam ko'p edi.

1989

## ОYНИНГ ОЛТИН О'РОГ'И

«Samarqand – Toshkent» avtoekspressti Yangi-yo'lidan o'tganda to'xtab qoldi. Haydovchilardan biri ruldag'i sherigi bilan allanarsalarni gaplashib, mashinadan tushdi. Yo'lovchilarning ko'pchiligi olis yo'l elitib, avtobusning bemavrid to'xtaganiga e'tibor ham berishmadi, ko'zlarini yumganlaricha kreslo yostiqchasidan boshlarini ko'tarishmadi. Faqat Sano-bar Kamolovagina ornida bir qo'zg'alib oldi-da, beixtiyor soatiga qaradi. Kechki o'ndan qirq minut o'tibdi. Avtobus grafik bo'yicha o'n birdan chorak soat o'tganda Toshkent avtostansiyasiga kirib borishi kerak edi. U pastga tushib, orqaga o'tdi, dvigatelni ochib tekshirayotgan shofyorning oldiga bordi.

– Tinchlikmi, uka?

– Hozir bilamiz-da, opajon, – deb javob qildi yigit fonarni ichkariroq tutib. – Avtobus yangi. Biron kontakti bo'shagan bo'lsa kerak-da.

Sanobar Kamolova xotirjam tortib, katta yo'lidan chekkaroqqa chiqdi-da, beixtiyor tepaga qaradi. Kuzgi osmonda son-sanoqsiz yulduzlar charaqlab



yotar, ular orasida cho'gari tilimidek oltinrang uch kunlik oy ohista suzar edi. Sanobar Kamolova yangi oyning o'ng tomoni bilan suzib borayotganini ko'rib, suyunib qo'ydi. Pushkinning qaysidir asarida, yangi oyni o'ng tomondan ko'rigan odam baxtli bo'ladi yo uning hayotida quvonchli bir voqeа yuz beradi, degan gap bor. Aytishlaricha, o'zi ham shu ta'birga ishongan ekan. Sanobar Kamolova beixtiyor yana bir marta oyga qaradi. Nazarida, Pushkinning ta'biri to'g'riday edi. Uning ham uyidan ko'ngli tinch. Eri qo'shni mamlakatdagi olis komandirovkasidan omon-eson qaytdi. O'zining safari ham yaxshi qariyapti. Samarqand meditsina institutining studentlari, o'qituvchilar kollektivi uning ma'rzasini juda yaxshi qabul qilishdi. Rentgen va EHM imkoniyatlari... Bu mavzu Sanobar Kamolovaning ilmiy ishi bo'lib, besh yil burun himoya qilgan doktorlik dissertatsiyasining davomi edi. AQSH, GFR, Moskva, Sankt-Peterburg va Toshkent tibbiyat olimlari mustaqil ravishda shu yo'lda olib borayotgan ishlar amalga oshsa, deyarli hamma miya kasalliklarini davolash imkoniyati ochilishi mumkin edi. Ma'ruzadan so'ng, ancha vaqt savol-javob bo'ldi. Shu bilan kechagi kun nihoyasiga yetdi.

Bugun esa ertalabdan boshlab, ToshMIda birga o'qigan kursdosh o'rtoqlari ixtiyorida bo'ldi. Bozorga tushishdi, Registonga borishdi. Bir necha marta ko'rigan bo'lsa ham, yana Ulug'bek rasadxonasiga kirib chiqdi. Qandaydir orombaxsh ko'ngil to'qlik bilan ekspressga o'tirdi. To'rt soat nima degan gap, tag'in, ish kuni bo'lmasa? Buning ustiga, Sanobar Kamolova mashinada yo'l yurishni yaxshi ko'rardi. Eri bilan dam olish kunlari ko'pincha shahardan chiqib ketar, «Volga» mashinalarining orqa o'rindig'iga o'tirib, lip-lip o'tayotgan baland-past imoratlar, mevazor,

ekinzorlarga qarab, yosh boladek suyunar, hatto yangi haydalgan yerdan ham allaqanday zavq olar edi. Yer isi unga murakkab, ammo mazmunli hayotni eslatardi. Ular, er-xotin shunchaki – hech qanday ish, maqsadsiz ba'zan kun bo'yi mashinada yurishardi. Lekin medik bo'lgani uchun ularning o'sha kungi olgan damlari butun kelasi hafta uchun beqiyos quvvat ekanini yaxshi bilardi u. Shuning uchun ham uyg'a oz qolganda avtobusning to'xtab qolgani uning kayfiyatini buz-madi. Yana osmonga qaradi. Yangi oyning tagida dumli yulduz paydo bo'libdi. Hozirgina u yo'q edi. Yo bormidi? U yulduzga tikilib qoldi. Mashinadan yana bir ayol tushdi. U ham xuddi Sanobar Kamolovadek avval mashinaning orqasiga – yigitlarning oldiga bordi. U yodqa endi ikkala haydovchi timirskilani-shardi.

– Yaqin orada ketamizmi? – dedi ayol bo'g'ilib.  
 – Kim biladi, deysiz, opajon? – boyagi haydovchi tag'in javob berdi. – Tili bo'lsaki, aytса, manavi yerim... deb. Xavotir olmang, uzog'i bilan bir soatda yo'lga tushamiz. Bu mashinaning karbyuratorini nozikroq. Zapas berib qo'yinglar, desak, berishmaydi.

Ayol Sanobar Kamolova tomon yurdi. Fonar yorug'ida uning hali yoshligi – qirq-qirq beshlar atrofidaligi qomatidan ham, yuzidan ham bilinib turardi. Sanobar Kamolova uning egnidagi belbog'lik paltosiga e'tibor berdi. Quyuq qora qunduzli uzun duxoba palto unga juda yarashib turardi.

– Kechirasiz, Toshkentga yaqin qoldikmi? – deya so'radi u Sanobar Kamolovaga yaqinlashib.  
 – Olis emas, yigirma-yigirma besh kilometrcha qoldi shekilli. – Keyin soatiga qarab, qo'shib qo'ydi: – Agar hozir tuzatishsa, o'n ikkilarda yetamiz.

Ayol indamadi.

Avtobusdan yana besh-olti kishi tushdi.



- Keldikmi deyman? - deb so'radi bir kishi.
- Yo'q, hali bor, - dedi ikkinchisi. - Ancha mizg'ib oldilar chamamda, turtsam ham sezmadningiz?
- Ho'v haydovchi og'aynilar! Tinchlikmi yo shu yerda tunaymizmi?

Yana qandaydir savol-javoblar, hazil-mutoyiba gaplar boshlanib ketdi. Kimdir qaysi bir yili qahraton qishda yo'lda yolg'iz qolib ketib, bo'rilarga yem bo'lishiga oz qolgani haqida, kimdir olis yo'llarda navbatchi avariya mashinalari yo'qligi bemazagar-chilik ekani haqida gapirardi.

Ayol ulardan chetroqda edi, aftidan gaplarni eshitmas, o'z xayoli, o'ylari og'ushida edi. Keyin chuqur bir esnab, qo'llarini cho'ntaklariga soldi-da, Sanobar Kamolovaga razm solib, u tikilib turgan tomonga qaradi.

- Nimani kuzatayapsiz? Yangi oynimi? - Uning ovozi bo'g'iq bo'lsa ham ancha shirali, kishini darhol o'ziga tortadigan edi.

- Oyni ham, - deb javob qildi Sanobar Kamolova. - Ko'proq uning yonidagi yulduzni. Qarang, dumi yerga tegay deb turibdi.

- Rostdan ham! - Ayol hayratga tushdi. - Dumli yulduzlarni eshitgan edim-ku, lekin bunaqasini ko'rmagan ekanman. Oti nima bu yulduzni, bilasizmi?

- Bilmadim, - dedi Sanobar Kamolova. - Aftidan, bu yulduz emas.

- Voy! Anavi... uchar tarelkami yo?

Sanobar Kamolova kuldi.

- Uchar tarelka biz tomonlarda nima qilsin? Bular hammasi yo'q gaplar. Nazarimda, bu yo yerning sun'iy yo'ldoshi, yo kosmik kema...

- Jonibekovlar uchib yurgan kema, deng? Muncha kichkina?



- Kichkina emas, shunday tuyulyapti-da olisdan.  
Avtobusimizdan qolishmas.

Ayol ham Sanobar Kamolova ham beixtiyor avtobusga qarashdi. Keyin yana osmonga tikilishdi. Dumli yulduz harakatga tushib, Oyning ustidan uchib o'tdi-da, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

- Qanday kunlar keldi-ya?.. - dedi hayrat ichida ayol.

Sanobar Kamolova uni quvvatladi:

- Nimasini aytasiz! Agar kosmik kema bo'lsa, balki kosmonavtlar bizni ko'rishgandir? Sizni ham, meni ham...

Lekin ayol birdan o'zgarib:

- E, mening kimga keragim bor, o'zi odamlardan qochib yuribman-ku, - dedi-yu, avtobus oldiga o'tib ketdi.

Avtobus bir soat deganda ham tuzalmadi. Ba'zilar ikkita-uchta bo'lib, yo'lovchi mashinalarda keta boshlashdi, ba'zilar avtobus ichiga kirib, uplashga tushdilar.

Sanobar Kamolova zerikdi. U uxlayolmasligini bilardi. Shuning uchun bironta mashina to'xtasa, keta qolishni mo'ljallab, avtobusdan sumkasini, dugonalari qo'yarda-qo'ymay berib yuborgan Samarqand noni, sho'r danak solingan paketni olib tushib, mashina oldiga o'tdi.

Notanish ayol avtobusga suyanib yig'lardi. Sanobar Kamolova nima qilishini bilmay, turgan joyida to'xtab qoldi. Ko'ngil so'rab borsa, jerkib bersa-chi? Ayollarning nimasi ko'p, siri ko'p. Ba'zan o'zlari yolg'iz bo'lgilari keladi. Shunday bo'lsa ham Sanobar Kamolova bu kelishgan, anchagina yoqimli, ammo ba'zi harakatlari bolalarnikidek sodda ayolga dalda bermoqchi bo'ldi.



- Kechirasiz, - dedi yaqinroq borib, - men ham yo'lovchi mashina tutib ketmoqchiman. Avtobusning qachon tuzalishi hali gumon. Istanasangiz birga ketaylik.

Ayol yuz-ko'zlarini artib, jilmaydi.

- Shoshadigan joyim yo'q. Mayli. Ketamiz, desangiz, ketamiz. Sumkamni olvolay.

U erinibgina orqasiga qaytdi va tezda havorang qo'l sumkasi bilan Sanobar Kamolovaning yonida paydo bo'ldi.

- Siz qayerda turasiz?

- Bogdan Xmelnitskiy ko'chasida. Shunday «Shodlik» atelyesining orqasida.

- Bo'ldi, yaqin ekan. Men S-12da turaman.

- Sizning uyingiz ham olis emas ekan, - dedi Sanobar Kamolova. - Men oldin sizni tashlab ketishim mumkin.

Ikkita yengil mashina ko'zlarni qamashtirib, vizillaganicha o'tib ketdi. Uchinchi mashinaning chiroqlari ko'ringanda, ikkala ayol baravar qo'l ko'tarishdi.

Qizil «Jiguli» ro'paralariga kelib to'xtadi. Sanobar Kamolova rulda o'tirgan yigitga adresini tushuntirdi.

- O'tiringlar, - dedi yigit. - Bironta militsioner to'xtatsa, qarindoshimiz deysizlar-da. Otim Islom.

Ayollar «xo'p» deb mashinaga chiqishdi. Haydovchi yigit magnitofon tugmachasini bosib qo'ydi. Mashina ichini mayin dutor ohangi bosib ketdi. Musiqaga berilib, shaharga kirib kelishganini bilmay qolishdi. Shota Rustaveli ko'chasiga yetganda, Islom:

- Avval Bogdan Xmelnitskiyda to'xtasak, nima deysizlar? S-12 dan qaytish qiyin. O'zim o'sha tomonda turaman.

Sanobar Kamolova ayolga qaradi.

– Mayli, – dedi ayol, keyin Sanobar Kamolovaning o'zigagina eshitarli qilib, qo'shib qo'ydi. – Siznikida qolaqolsam, maylimi?

Sanobar Kamolova avval hayron bo'ldi. Lekin tappa-tuzuk ayolning ra'yini qaytarmaslik uchun:

– Ixtiyorингиз, – dedi. – Xavotir olishmaydimi, ish-qilib?

– Xavotir oladigan o'zim-da.

Ayol shunday deb, kinoya bilan jilmaydi va xo'r-sinib qo'ydi.

Uyga yetib kelishganda, ko'cha chirog'idan boshqa barcha uylarda chiroq o'chiq, hamma uyquda edi.

Sanobar Kamolova eshikni ochib, ayolni ichkariga taklif qildi. Ayvonga o'tib, chiroqlarni yoqdi. Erining harbiy kiteli osib qo'yilgan stulni chetroqqa surib:

– Bemalol yechinib o'tiring, – dedi-da, o'zi ichkari xonaga kirib ketdi.

Yotoqxonaga o'tib, erining peshonasidan o'pdi.

– Zabixilla aka! Men keldim. Xavotir olmadingizmi?

Zabixilla aka yotgan joyida uyqu aralash xotiniga qo'llarini cho'zdi.

– Qozonda ovqat bor... Muncha kech?

– Avtobus yo'lda buzilib qoldi. Men bir o'zim-masman. Bugun endi yolg'iz yotasiz. Bir ayol bor. Biznikida yotib qoladi. Kabinetningizga joy solamiz. Maylimi?

Zabixilla aka hafsalasi pir bo'lib, teskari o'girilar ekan, mayli, deb boshini qimirlatdi va yana uyquga ketdi.

Sanobar Kamolova ro'paradagi yo'lak orqali qo'shni xonaga kirib, ikkala o'g'liga qaradi, ustilari-dagi choyshabni yaxshilab yopdi, yana yotoqxonaga qaytib kirdi. Javondan ikkita tungi xalat olib, ayvonga chiqdi.



- Pochchangizning kabinetlarida yotamiz ikkalamiz. Hozir choy qaynataman. Bir oshandan osh yeymiz.

Sanobar Kamolova ko'zlarini bir nuqtaga qadab, xomush o'tirgan ayolga murojaat etdi.

- Nega yechinmayapsiz? Paltongizni anavi qoziqqa iling. Judayam chiroyli ekan. O'zingizga biram yarashibdiki... Ayvonimiz issiq, keyin hech kim kirmaydi, pochchangiz ham; ikkala o'g'lim bo'lsa dong qotib uxlab yotishibdi. Ko'ylagizingizni yechib, manavi xalatni kiyib oling. Menden uyalmassiz?

Ayol jilmaydi.

- Yo'q...

- Bo'ling bo'lmasa!

Sanobar Kamolova jo'rttaga sho'xlik bilan qo'lidagi pushtirang xalatni ayolga otdi. O'zi ham shu yerda apil-tapil yechinib, yaxshi ko'rghan zangori xalatini kiyib oldi.

- Ana! Opa-singil bo'ldik-qo'ydik. Men Sanobarman.

U shunday deb, ayolga qo'lini uzatdi. Ayol ham qo'lini cho'zdi. Uning barmoqlarida qo'sha-qo'sha javohir uzuklar bor edi.

- Irodaman.

- Xush kelibsiz, Irodaxon.

Sanobar Kamolova, olis yo'lga bunday qimmat-baho narsalarini taqib nima qilardingiz, tag'in bir o'zingiz yo'lga chiqqan ekansiz, deb so'ramoqchi bo'ldi-yu, yana iymandi. To'g'rirog'i, havasi kelibdi, deb o'yamasin, dedi.

- Sizni bilmayman-u, Irodaxon, mening qornim ochqab ketdi. Buning ustiga, pochchangiz o'zлari osh qilsalar yemagan odamdan xafa bo'ladilar. Yuring. Men oshni isitaman. Siz choy damlaysiz.

Ikkovlari ayvonning biqiniga tushgan qulaygina oshxonaga o'tishdi. Ayolning anchagina ruhi ko'tarildi shekilli, xuddi o'z uyidek yumushga berilib ketdi. Uning uy ishlariga epchil, ozoda, mehnatkash ayol ekanini Sanobar Kamolova darhol sezdi. Nima tashvish tushgan ekan bechoraning boshiga?

Ammo shu zahoti o'ng qo'lidagi uzuklarni, qu-loqlaridagi har bir toshining o'zi hatto bir boylik bo'l mish, nihoyatda nozik ishlangan javohir isirg'alarni ko'rib, uning o'zi birovchlarni bechora qilib qo'yaganmikan, degan xayol Sanobar Kamolovaning miyasiga urildi, kimni olib keldim uyimga, deb biroz o'zini koyigan ham bo'ldi. Lekin iloj qancha, bo'lar ish bo'ldi. Shu fikr bilan u o'zini chalg'itdi-da, avvondagi stolga dasturxon yozdi.

Osh shirin ekan, isitilgan bo'lsa ham yaxshigina yeishidi. Choydan so'ng kabinetga o'tishdi.

Sanobar Kamolova qo'yarda-qo'y may mehmonni divanga yotqizdi. O'ziga yig'ma karavot olib kirib, joy soldi.

– Siz divanda yotsangiz bo'lardi, – dedi Iroda. – Baribir men uxlayolmayman. Sizni bezovta qilaman ag'darilaverib, eshikka chiqaverib...

Sanobar Kamolova ko'nmadni.

– Hechqisi yo'q. Men ham kam uxlayman. Ammo, Iroda... meni kechiring-u, nima sizni qiynayapti? Men yordam berishim mumkinmi? E'tiboringiz uchun: men – vrachman.

– Rahmat. Menga vrach kerak emas. Menga hozir hech narsa kerak emas. Bir haftada hayoti ag'dar-to'ntar bo'lgan odamman men. Baxtsiz, yuzi qaro...

Iroda jimb qoldi. Sanobar Kamolova uning yuragi to'lib, piq-piq yig'layotganini eshitdi.

– Suv olib beraymi? – dedi boshini ko'tarib.



- Yo'q, rahmat, - dedi Iroda yig'i aralash. - Menga shunchalik iltifot ko'rsatdingiz, uyingizda olib qoldingiz, rahmat. Men... men, kiritmassiz, deb o'ylagan edim.

- Nega kiritmas ekanman? - deya hayron bo'ldi Sanobar Kamolova. - Odam odamga do'st bo'lishi kerak, mehr-oqibatli bo'lishi kerak.

Iroda o'zini tutolmay, yig'i aralash yo'taldi.

- Yo'q. Mening kimligimni... menga nima bo'lganini bilganingizda edi!.. - Iroda hiqillab, ancha yig'ladi.

Sanobar Kamolova hozir uni ovutish foydasiz, deb o'ylab, biroz jim turdi. Keyin choy quyib uzatdi.

- Manavini ichib yuboring.

Iroda piyolani oldi, oxirigacha ichdi. Og'ir bir tin olib, Sanobar Kamolovaga o'girildi.

- Bilasizmi, Sanobar opa... men... men to'rt bolaning onasiman. Katta o'g'lim Baxtiyor yigirmada, keyingisi Eldor, o'n sakkizda. Qizim Saida to'rtinchisinfda, Xolyor ikkinchi sinfga o'tdi yaqinda. O'zim qirq beshga kirdim. Asli Jomboyda tug'ilganman. Otam men tug'ilgan yili urushga ketib, halok bo'lganlar. Urush, urushdan keyingi yillarni bilasiz, ancha qiyinchilik ko'rib o'sganman. Lekin meni o'qitishdi. Maktabni bitirgach, Samarqand meditsina institutiga kirdim. Ko'ryapsiz, hamkasbmiz. Lekin kasbim foydasiz qolib ketdi. A'lo bitirdim institutni. Orzum Toshkentga kelib, aspiranturaga kirish edi. O'qituvchilarim bolallargi tutqanoq kasaliga oid diplom ishimni maqtab, shu mavzuda ilmiy ish qilsangiz arziydi, deyishdi. Toshkentga kelib aspiranturaga kirdim ham. Afsuski (albatta, endi afsus deyman), onam, tog'alarim meni uzatish dardiga tushib yurishgan ekan. Yigitni aytishdi. U ham samarqandlik bo'lib, ustozи ortidan Toshkentga ko'chib kelgan, yaxshi ishda ekan. Obro'yi

ham binoyi, topishi ham. Yo'q deyishimga qaramay, bizni Toshkentda bir tanishimiznikida uchrashtrishdi. Rostini aytsam, yigit menga yoqdi. Baland bo'yli, qoraqosh, qorako'z, quyuq sochlari biroz jingalak bo'lib ketgan, ochiq havoda ko'p yurganidanmi yo o'zi shunaqami – rangi qizilmag'iz nondek... Qandaydir bir qurilish boshqarmasida injener bo'lib ishlar ekan. Birpas choy-poy ichib, gaplashib o'tirgandek bo'ldik. Tili burro. Bilmagan narsasi yo'q. Ustiga ustak, mediklarni hurmat qilar ekan. Oshnalari ko'p ekan mediklardan. Gap orasida, har bir yangi tushayotgan massivda alohida poliklinikasi, medpunktı bo'lishini talab qilyapmiz, dedi. Xullas, menga u yoqdi. Men ham yoqdim, shekilli, bir hafta o'tar-o'tmas, to'yimiz bo'ldi. Ikki joyda – oldin Samarqandda, keyin Toshkentda. Samarqanddagisini nomiga o'tkazdik. Ammo Toshkentdagi to'y... men bunaqa dabdabali to'ylarni kam ko'rghanman.

«Toshkent» restorani sotib olindi. Stollarda yo'q narsaning o'zi yo'q. Artistlar-chi? Butun Samarqand, Qarshidan eng dovrugli sozandalar, ashulachilar keliшган. Toshkentdagilarni aytmaysizmi? Adashmasam, Faxriddin Umarov ham bor edi. O'shanda uning eng gurillagan payti edi.

Kuyovning ustozlari Sotimxon aka shunaqangi gapga chechan odam ekanlarki, bir qarasangiz, dunyo voqealaridan tushib hammani o'ylatib qo'yadilar, bir qarasangiz, kutilmagan hazil gaplarni topib, hammani kuldiradilar. Men ham o'zimni zo'rg'a tutib o'tirdim.

Yarim kechada bizni mashinaga solib, olib ketishdi. Qorong'ida qayerga kelganimizni bilmayman, har holda uzoq yurmadik. Mashinadan tushganimda Sotimxon aka Norboy aka bilan mening oldimga keldilar. Qolganlar orqaroqda turishdi.



- Norboy, uka! Mana, oila ham qurding. Go'zal bir pari hayot yo'ldoshing bo'ldi. Irodaxon! Kuyov bola men uchun o'g'ildan ham aziz. Bir jon, bir tan bo'lib yashanglar. Keksalar, oilaning boshi er bo'lsa, tanasi xotin, deb bekorga aytishmagan. Qo'sha qaringlar. Manavi kalit, kelin, sizga. O'z qo'lingiz bilan o'z uyingizni oching. Uchinchi qavat, 14-xona. Shu jez kalit keyinchalik oltin bo'lib ketsin.

Sotimxon aka kalitni menga berib, peshonamdan o'pdilar. Norboy akani quchoqladilar. Qo'ltiqlashib yo'lakka kirib ketmagunimizcha hamma ortimizdan qarab turdi.

Uy, Sanobar opa, men sizga aytSAM, ertakdagidek edi. Albatta men uchun. To'ylar ham, uy ham. Uch xona, poli parket. Ikkita lodjiya. Hamma xonalarda bir xil qizil mebel. Boshim aylanib ketdi. Norboy aka meni quchoqlab ko'tardi-da, ikki kishilik karavot chetiga o'tqizdi.

- Charchadingizmi? - deb so'radi u o'ta muloyimlik bilan. - Bir bokaldan shampan ichaylik, hammasi o'tib ketadi. Uyning kamchiliklari bo'lsa, kechirasiz. Tanlagunimizcha vaqt o'tib ketdi. Sotimxon akamlarga rahmat, shu uyni keyin o'zlar olib berdilar.

- U kishi kim? - dedim yosh bolalar onasidan sehrgar kim deb so'ragandek.

- Sotimxon akami? Soddarоq tushuntirsam, yigirmanchi asr kishisi. Hamma narsani biladi, hamma narsaga qo'li yetadi. Yo'limizda shu odamning uchrab qolgani bizning baxtimiz.

Uch kundan keyin Yaltaga ketdik. «O'zbekiston» sanatoriysida dam oldik. Biz tushmagan biron ta tephloxd qolmadi, eng yaxshi restoranlarning hammasiga kirib chiqdik. Aspirantura xayoldan ko'tarildi.

- Yaxshi vrach bo'laman degan odam, aspiranturasiz ham bo'laveradi, - dedi meni ovutib Norboy

aka. – Qiyos qiling men sizning bemoringizman. Qarang, boqing... Bor tajribalaringizni menda o'tkazing. Aspirantura qochib ketmaydi. Hozir o'ynab oling.

Rostini aytganda, Norboy aka taklif qilgan hayotda aspirantura men uchun ortiqcha edi. Tushgacha bozor, magazin... Nima istasam olaman. Tushdan keyin kechqurunga tayyorgarlik... Keyin televizor, kino, teatr... Xullas, o'rtoqlarimning ko'pi menga havas qilishardi. Ba'zan o'zim ham o'zimga havas qilib qo'yardim. Shu alpozda kunlar o'taverdi. Yaltadan qaytib kelganimizdan keyin ko'p o'tmay, Norboy aka ko'tarildi. Boshqarmaning bosh injeneri bo'ldi. Yana biroz vaqtidan so'ng, yangi bir boshqarmaga boshliq bo'lib o'tdi. U nihoyatda xursand edi. Kunduz kuni shu xabarni aytgani keldi-da, kechqurun Sotimxon akam keladilar, tayyorgarlik ko'rib qo'ying, dedi.

U ketishi bilan uyga yashik-yashik meva-cheva, so'yilgan qo'y ko'tarib kelishdi. Ikki kishi kabob, mantiga unnab ketdi. «Irodaxon! Oshni o'zingiz qilarmishsiz!», dedi ulardan biri.

Qorong'i tushganda kelgan Norboy aka oshpazlarning ishlaridan mamnun bo'lib:

– Bo'ldi, bu yog'ini o'zimiz qilamiz, – dedi-da, ularga javob berib yubordi. Menga esa:

– Sotimxon aka katta o'tirishlarni yoqtirmaydilar. Notanish odamlarni ham. Qo'raga six terishni o'zim qotirib yuboraman. Manti vaqtidan o'tib ketmasa bo'lgani. Qarab turing, – deya ta'kidladi.

Keyin ikkalamiz dasturxon tuzay boshladik.

– Oz-ozgina keragidan qo'ysak bo'ldi. To'la das turxon ishtahani bo'g'adi.

Norboy aka shunday deb turgan edi, qo'ng'iroq jiringladi.

– Keldilar! – dedi suyunib Norboy aka. – O'zingiz oching. Xursand bo'ladilar.



Darhol fartugimni yechib, eshikni ochdim. Sotimxon aka bir o'zlari edilar.

- Barakalla! Mana, haqiqiy uy bekasi bo'libsiz-qo'yibsiz. Salom!

U shunday deb, ikkala qo'li bilan piyoz yuqi qo'limni labiga olib borib o'pdi.

- Ayol uchun eng aziz va mo'tabar kasb - uy kasbi. Er uyga ming xil kayfiyatda keladi. Bir kayfiyatda ikki og'iz shirin gap, tabassum yetarli. Bir kayfiyatda bir osham oltindek palov boshni ko'kka yetkazadi. Xullas, erni er qiladigan ham xotin, kechirasiz, bu sizga mutlaqo taalluqli emas, yer qiladigan ham xotin. Bir ko'ray, deb keldim. Bu, bizning kuyov bola, Norboy Norbo'tayevichdan shikoyat yo'qmi?

- Yo'q, rahmat. Qani, ichkariga kiring, Sotimxon aka!.. - dedim-u, uyalganimdan o'zimni oshxonaga urdim.

Oshxonada boyagi hayajondan o'zimni bosolmay, yuz-ko'zimga muzdek suv sepdim, u-buga unnadim, xullas, bir amallab, sal o'zimga keldim. «Norboy Norbo'tayevich!..» Endi uni shunday deyishar ekan-da?! Chindan ham katta ishga o'xshaydi, Sotimxon akaning o'zi uni shunday deyapti. Sevinganimdan bu odamga qo'limdan kelgan yaxshilikni qilishga, Norboy akani esa, u bilan uchrashganimdan, yarim och, yetim o'tgan bolaligim evaziga shunday, baxtli hayotga yetishganimdan bo'ynidan quchoqlab, o'pib-o'pib olishga ahd qilib qo'ydim.

Qazi, qirilgan turp olib chiqib qo'yayotganimda, Norboy aka shishalarni ochayotgan ekan. Sotimxon aka menga kulib bir qarab qo'ydi-da, Norboy akadan so'radi.

- Iy-ya! Norboy Norbo'tayevich! Bizning suyganimiz qani? Yo'q, u bo'lmasa ko'ngil joyiga tushmaydi.

Norboy aka qip-qizarib ketdi. Men nima haqda gap ketayotganini tushunmadim.

- Buni qarang, shu esdan chiqibdi-ku. Kechirasiz, hechqisi yo'q, besh minutda hozir bo'ladi. Aybga buyurmaysiz, o'zingizni yolg'iz qoldiraman-da?

- Topmasangiz bo'lmaydi. Bugungi kayfiyatimiz o'nta «Napoleon»ga arziydi! - dedi Sotimxon aka. - Boring!

Norboy aka yugurib eshikka chiqib ketdi. Men oshxonaga o'tib, o'z ishlarimga unnab ketdim. Oshga sabzi, piyozni bostirib, suv solib turganimda, oshxonaga Sotimxon aka kirib keldi.

- Iya, iya! Bu, qo'lga nima qildi?

- Nima qilibdi? - deya qo'rqib ketdim.

- Kesib olibsiz-ku! Shunday qo'lni ham kesib bo'ladimi?

Cho'michni qozon yoniga qo'yib, tirsagimgacha shimarilgan qo'llarimga qaradim.

- Qani?

Sotimxon aka o'ng qo'limni bilagimdan ushlab, boshmaldog'imdan bilagimgacha borgan ingichka qizil chiziqni ko'rsatdi.

- Mana! Buning oldini olish kerak.

U qo'limni qo'yib yubormay, yuziga yaqinlashtirdi va do'rdoq lablarini cho'zib, puflay boshladi.

- Yod surish kerak, - dedim men.

- Yodning keragi yo'q. Eng yaxshi davo labning shirasi.

U shunday deb, bilagimni o'pa boshladi. O'zimni yo'qotib qo'ydim. Buni u rozilik, deb tushundi, shekilli,



belimga qo'l yubordi. Bir siltanib chiqib ketdim, qo'limni tortib oldim.

– Nima bo'ldi, qizim? Faqat baniyati shifo, deb, faqat shifo deb. Yoshlar-ey, yoshlar, yaxshilikni tushunmagan yoshlar...

U chiqib ketdi. Meni ter bosib ketgan edi. Nima qilsam ekan, chiqib urishsammi, haydab yuborsammi? O'zi yopishdi, desa nima bo'ladi? Kim menga ishonadi? Norboy aka ishonarmikan? Bilasizmi, Sanobar opa, nazarimda o'sha kuni, o'sha topda, ko'zim ochildi. Norboy aka bilan oramizga sovuqlik tushdi, munosabatimiz darz ketdi.

Yer yutgur «Napoleon» keldi. Norboy aka qaysi bir restorandan topib keldi. Allamahalgacha ikkalovi ichib o'tirishdi. Men chiqmadim. Kabob ham eslaridan chiqdi, manti ham. Osh dam yeganda, tishimni tishimga qo'yib suzdim. Bir lagan olib chiqdim.

– Barakalla! Qizimning qo'li gul... Norboy Norbo'tayevich! Qizimning qo'li gul! Unga ozor bersangiz, bizga ozor bergen bo'lasiz. Qani, bitta quying-chi!

Men ham ryumkani ko'tarishga majbur bo'ldim. Sotimxon aka gapirdi.

– Norboy Norbo'tayevich! Sizni men o'g'lim deganman. Irodaxon – qizim. Shu kishining salomatligi uchun.

Ichishdi. Men labimga tekkizib qo'ydim.

Sotimxon aka o'rnidan turdi. Norboy aka yugurib ichkari xonadan diplomat-sumkasini olib chiqdi. Undan katta bir paketni olib, ustoziga uzatdi.

– Aytganingiz, Sotimxon aka. Bu yog'iga biz qarzdor.

– Omon bo'linglar.

Sotimxon aka paketni qo'ltig'iga qistirib, chiqib ketdi. Men yo'lakda qoldim. Norboy aka uni kuza-tib qaytib kelganida og'zi qulog'ida edi.



– Bilasanmi, ertadan boshlab men kimman? Eng yaxshi trestning boshlig'imani!

– Muborak bo'lsin! – dedim, lekin shashtim pastligini Norboy aka sezdi.

– Nima bo'ldi?

– Shu odam ikkinchi biznikiga kelmasin.

– Nega endi? Bu hech mumkin emas! – deya hayron bo'ldi Norboy aka. – Nima bo'ldi o'zi, ayt.

Aytib berdim. Norboy aka xaxolab kuldii.

– Shumi? Sharti ketib, parti qolgan chol-ku bu odam! Mayli, bitta masalada kelishib olamiz. U kelganda, men doim yoningda bo'laman. Kelishdikmi?

Iloj qancha edi? Indamadim.

– Lekin bilib qo'y, – dedi qat'iy ohangda Norboy aka. – Bir afsona bor. Antey degan grek pahlavoni tovoni yerga tegib turgan paytda hech kimdan yengilmas ekan. Yerdan uzib olingan Anteyda hech qanday kuch qolmas ekan. Sotimxon aka mening tovonim. Sotimxon akani qo'zg'atib qo'yishsa, mening ishlarimdan putur ketadi.

Norboy akaning ko'zlarini muzdek qotgan, ovozi dag'al, menga e'tiborida mehribonlikdan asar ham yo'q edi shu topda. Shuning uchun paketdagi nima edi, deb so'ramadim. Keyin bilsam (bir marta emas, ikki marta emas, bunday paketlar biznikiga tez-tez kelardi, bizdan Anteynikiga ketardi), ular hammasi pul ekan.

Yillar o'tdi. Ketma-ket farzand ko'rdik. Uy Norboy akaga torlik qildi. Yunusoboddan hovli olganlarini bir kuni aytdilar. Lekin hali u yerda turib bo'lmaydi. Picha remont qilish kerak. Yanagi yozga ko'chib boramiz, dedi. Yozda ko'chib bordik. «Sim-sim»ning o'zi. Hatto kayfim uchib ketdi. Bunaqa hovli, bunaqa uyni sira ko'rmaganman. Bir tomoni gulzor, bir tomoni



mevazor, uzun peshayvonining oldi tokzor. So'risi oq tunuka tomga chiqib ketgan. Hovlining etagida ichi marmardan ishlangan, ikki tomonidan zinapoya tushgan hovuz. Har yer-har yerda, go'yo betartib-u, lekin did bilan o'rnatilgan favvorachalar oftobda atlas nusxa suv purkab, otilib yotibdi.

– Adashmadimmi? – deb hayron bo'ldim.

– Meni tanlashda adashmagan bo'lsang bo'ldi. Tovonim hali yerda ekan, hamma narsa kaftingda bo'ladi. Sotimxon akaning nusxasidan. Faqat men ayvoning ustunlarini o'yma qildirmadim. Kattadan sal pastroq yurish kerak.

Norboy aka meni garajga boshlab, mashina ustidagi oq choyshabni tortdi. Eski «Jiguli» o'rnida yangi oq «Volga» turardi.

– Shunday xotin... Ustozing ishbilarmon bo'lsa, senga ham yuqadi. Sassiq cholning bitta bilagingdan ushlaganiga xunob bo'lib yuribsanmi? Anteyga o'nta bilak ham kam. Men senga aytsam Anteyda «bun-qalar» tiqilib yotibdi. Ne-ne bilaklar uning soyasiga salom beradi, uni ko'rganda baliq bo'lib ketadi.

Lekin men sizga aytsam, Sanobar opa, odam hamma narsaga ko'nikib ketar ekan. Ilgarilari uyga kelgan har bir yangi narsadan quvonar edim. Mehmon kutganda, erim aytgan taomlardan ziyodroq biron narsa pishirsam, odamlar uni maqtab yeyishsa, boshim osmonga yetardi. Keyinchalik o'zim bilar-bilmas hamma narsadan ko'nglim qoldi. Hech narsa quvontirmaydigan, dilni ochmaydigan bo'lib qoldi. Mabodo, biron yumush bilan qo'shnilar nikiga chiqib qolsam, oddiy qovurilgan kartoshkani ham huzur qilib yeydigan bo'lib qoldim.



JU Muhimi – Norboy aka oy sayin emas, kun sayin o'zgarib ketadigan bo'ldi. Unga ham hech narsa tatimaydi.

JU Pishirgan ovqatlarimni ilgarigidek ishtaha bilan, maqtab yemaydi. Bir ikki cho'qilaydi, qo'yadi. Televizor ko'rib o'tirib, uqlab qoladi. Sezyapman, unga bir balo bo'lgan. Faqat mehmonlar, ayniqsa, Sotimxon aka kelganda chehrasi yorishadi, avvalgidek o'zini sho'x, betashvish tutadi. Ular ketishi bilan yana qovoq tumshug'i osilib qoladi. Bir kuni hatto undan so'radim:  
– Sizga nima bo'ldi? Shashtingiz past? Avvalgidek yorishib o'tirmaysiz. Yo boshqa xotinni ko'nglingiz tusab qoldimi? Bemalol. G'iq etmayman.

U jilmaydi.

– Ish ko'p. Hammaga ham ishonib bo'lavermaydi. Ko'p narsa o'zimga qolib ketyapti.

JU Uyqusidan ham halovat ketdi. Eshik tiq etsa, o'rnidan sapchib turib ketadi. Tomdan mushuk o'tib qolsa ham yuragi taka-puka. Hovliga chiqadi, hujralarda nimalarnidir tintiydi, garajga o'tadi. U yerda ham o'g'riga o'xshab g'imirsilaydi. Chang-chung bo'lib kelib, o'rniqa cho'ziladi, «uh» tortadi. Ba'zi kunlari chidayolmay bolalarning xonasiga chiqib yotaman.

JU Ilgari qanday paytlar ekan, oyim bitta bo'z ko'ylak olib kelsa ham boshim ko'kka yetardi, quvonchimga chek yo'q edi. Endi hech narsa tatimaydi...

JU – Zerikmadingizmi, Sanobar opa? – deb so'radi Iroda.

JU – Yo'q, yo'q, – deya og'ir xo'rsinib javob qildi Sanobar Kamolova. – Aytavering. Juda g'alati, aql bovar qilmaydigan gaplar...

JU – Lekin, rost. Men sizni aldab nima qilaman, yetti yot begonaman, – deya gapida davom etdi Iroda. –



Yangi joyda ham turmush avvalgidek. Kunora ziyoferat. Keldi-ketdi ko'p. Kimlardir, men tanimayman, ammolarning hammasi meni biladi, «Irodaxon opa», deydi, nimalarnidir tashlab ketishadi. Kimlardir kelib, «Irodaxon opa!», deydi-da, olib ketadi. Shu alpozda kunlar o'taverdi, bolalar katta bo'ldi, ikkala kattasini institutga joylab qo'ydik.

Ikki yildan oshdi, chamamda, bir kuni Norboy aka to'rt kishini yetaklab keldilar. Xolyor bilan Saida mактабдан kelib, hovuzda cho'milishayotuvdi.

– Chiqlaring! – dedi Norboy aka sabrsizlik bilan. – Suv aynibди. Kasal bo'lib qolasanlar.

Xolyor chiqqisi kelmay gap qaytardi:

– Top-toza-ku?!

– Chiq deyman! Bo'lmasa pes bo'lib qolasan.

Bolalar hovliqib suvdan chiqishdi. Avzoyi buzuq Norboy aka odamlarga nimalarnidir buyurdi. Haligilar birpasda hovuzning ustini taxta bilan yopib, tuproq tortib yuborishdi. Haligina bolalarni quvontirib turgan hovuz gulzor bilan tep-tekis bo'ldi-qoldi. Ustiga gulbeor ekib tashlashdi. Favvoralarning ham besh-oltitasi tagidan sug'urib tashlandi. Shundan keyin Norboy aka oylab minilmay turgan «Volga»ni minib chiqib ketdilar. Yarim kechada, darvozani o'zim ochdim, shirakayf holda, qandaydir pachoq «Jiguli»da qaytdilar.

– Hozircha shuni minib tursin o'g'illaring, Sotimxon akaning bir shoxi lat yedi. Ammo tovoni ostidagi yer hali baquvvat, patak bosib yotibdi. Qayog'iga ketmon urma, ko'pchib chiqaveradi. Taqinchoqlaringning eng zo'r larini yig'ishtir, biron joyga ko'mib qo'yamiz.

Yarmidan ko'pini yig'ishtirib berdim. Qo'lim-dagilar-u qulog'imdagilar qoldi. Shularni ham yech-

tirdi. Yoqut ko'zli tilla uzugim bor edi, o'zimniki, onamdan qolgan, shuni ham barmog'imning sirqirab og'riganiga qaramay sug'urib oldi. Yarim kechagacha garajda ivirsib, bir mahal halloslab kirib keldi.

– Bo'ldi. Iskovich it ham topolmaydi, – dedi o'r-niga yotar ekan.

– Muncha qo'rmasangiz? Sotimxon akadan qar-zingiz bo'lsa, berib qo'ya qoling.

Norboy aka, ahmoqsan, deganday yostiqqa og'zini tirab ingradi.

– Hech kimdan qarzim yo'q. Topganim o'zimniki. O'zimning aqlim, qo'lim bilan topganman.

– Bo'lmasa tinchlaning, – dedim yupatgan bo'lib.

Ammo tinchlik qayda? O'zini qayoqqa qo'yishni bilmaydi. Birpasda adoyi tamom bo'ldi. Bunday odamga o'xshab gaplashishlari yo'qoldi. Azonda ketadi, kechasi qaytib, nomiga ovqat yegan bo'ladi-da, hovlini aylanadi, garajda soatlab yo'q bo'lib ketadi.

Taxminan bir oylar o'tdi shekilli, Sotimxon aka – o'sha yer yutgur ajdaho qamaldi. Norboy akaning rangida rang qolmadi.

– Sotib qo'ymasa bo'ldi, – dedi bir kuni u.

– Shuni poylab o'tirasizmi? – dedim men. – Shu ham hayot bo'ldimi? Hammamizni qiy nab yubordingiz-ku. Bolalar, kattasidan tortib, kichigigacha ko'zingizga duch kelgani qo'rqishadi.

– Nima qil, deysan?

– Nimani sotib qo'yishidan qo'rqsangiz, shularni borib ayting o'zingiz. Olib borib bering. Tinchisiz.

– Meni qamatmoqchimisan? – deb kinoya bilan kuldi u. – Keyin bor topganimni o'ynashlarling bilan yeb ichmoqchimisan?

– Voy, nima deyapsiz o'zi? To'rtta bola bilan menda o'ynash nima qilsin? – Tutoqib ketdim men



ham. – Topgan narsalaringiz o'zingizga buyursin. Menga tiyiningiz ham kerak emas. Agar borib o'zingiz aytmasangiz, men boraman. To'rtala bolamni yetaklab boraman.

Burnimga musht tushdi. Peshonabog'im bilan og'zi burnimni berkitganimcha, oshxonaga chiqib ketdim.

Shu kecha ming xayolga borib, tong ottirdim. Sanobar opa, men bir narsaga hech tushuna olmayman. Qashqir ham qorni to'qligida inida yotar ekan. Odam shunchalik ochofat bo'ladimi? Hidlanib qolgan go'shtlar, qurt tushgan qazi-qartalarni qo'shnilar, qarindosh-urug'ga berolmay, kechalari itlarga tashlab yashashning nimasi yaxshi?

Yillab zax yerda yotaverib chirib ketgan pullarni ishlatib bo'lmagandan keyin nima keragi bor? Kelini yo kuyovi, xotini yo qiziga yozdirilgan ikkita-uchta mashinani odamlar nima qiladi? Qorin to'ysa ham, ko'z to'ymaydi, degan gap faqat odamlarga, nomini, zotini, kimligini unutganlarga taalluqli ekan.

Ertalab xuddi hech narsa bo'lmagandek, Norboy aka oldimga kirdi.

– Kechir meni. Agar biror nojo'ya ish qilgan bo'lsm, ishon, avvalo, seni deb qildim, keyin bolalarni deb. Menden keyin ham, hech narsaga zor bo'lmganlar, deb jonimni jabborga berdim, ishladim.

– Ishlash bunaqa bo'lmaydi...

– Bilaman, ishslash bunaqa bo'lmaydi. Qani, to'g'ri ishlab ko'r-chi, noning butun bo'larmakin?

– Bo'ladi, – deya qo'shilmadim uning gaplariga. – Qolaversa, tinch, boshni g'oz tutib yashash uchun yarimta non ham yetadi... Borasizmi yo yo'qmi?

– Tushunsang-chi, axir, borolmayman. Ayniqsa, hozir.



- Nega?

- Tergov bir yoqli bo'lsin. Tergov tugagandan keyin borsam ancha yengil bo'ladi. - Norboy aka iymanib bir narsani aytolmay turdi, keyin aytdi. - Axir... bu yoqdagilar jim turishgani yo'q. Harakat qilishyapti. Ajab emas, hammasi tinchib ketsa!..

Shu payt oshxonaga ikkala katta o'g'lim kirib kelishdi.

- Oyi, biz armiyaga yozilib keldik. Bir oydan keyin ketamiz.

- Qayoqqa?

- Harbiy xizmatga.

- Menga ham aytsalaring bo'ladimi shu gaplaringni? - Norboy aka zarda bilan gapirdi. - Adashmasam, otalaringman shekilli?

Bolalar indamay, boshlarini egishdi.

- Kim quvyapti uydan senlarni? - Norboy aka bitta-bitta o'g'illariga qarab chiqdi. - Keyin... keyin, bilasanlarmi, osonlikcha senlarni o'qishga kiritib qo'yganim yo'q. Har biring uchun naqd o'n mingdan bergenman!

- Shuning uchun ham ketyapmiz, - dedi Eldor. - Xizmatdan qaytgach, o'zimiz kiramiz o'qishga. O'z kuchimiz bilan.

- Bu uyda sog' odam qolmapti chamamda, - deb g'o'ldiradi Norboy aka.

- Faqat siz sog'siz, dada, - dedi lablari qaltirab quti uchgan Baxtiyor. - Sog' odam faqat pul topishi kerak. Shunaqangi ko'p pul topishi kerakki, yerga ko'mib, uni albatta chiritishi kerak!

- Tirrancha! O'chir ovozingni!

Norboy aka musht ko'tardi. Ammo Baxtiyor ham, Eldor ham joylaridan jilishmadi. Boshlarini eganlaricha tek turaverishdi.



Norboy aka qo'lini tushirib, menga nimadir demoqchi bo'ldi, keyin hafsalasi pir bo'ldi, shekilli, eshikni taraqlatib yopib, ko'chaga chiqib ketdi.

- Oyi, nima qilamiz? Rozimisiz? - deya so'radi Eldor.

- Qilgulikni qilib qo'yib, endi rozilik so'raysizlar-mi? - dedim achchig'lanib.

- Sizga yengil bo'larmikan, deb o'ylovdik-da.

- Yengil bo'lsin desalaring, xoli qo'yinglar meni hozir.

Ikkalovi chiqib ketdi. Boshim og'rib ketdi. Nima qilay? Kimga nima dey? Hech mahal bunday og'ir ahvolga tushmagan edim. Orzuyimni nimaga al-mashdim? Birinchi kelgan fikr shu bo'ldi. Ish bilan bo'lib ketganimda, kim biladi, bu firibgar, harom odamlar qafasiga tushmasmidim balki? Men o'zimni yomon odam deb o'ylamayman. Lekin surishtirib qarasangiz, salkam chorak asr yomonlar bilan birga bo'libman, hamyostiq bo'libman, nima pok, nima iflos, nimada xalqning achchiq dardi bor - bilmabman! Sanobar opa, qarang, yigirma uch yil biron ta odamga yaxshilik qilmabman, haromxo'r, tekinox'o'r, yulg'ichlarning dasturxonini tuzabman, ko'ziga shirin boqibman, shirin gapiribman. Qul ham egasiga bunday qilmaydi, juda bo'lmaganda nafratini dilida saqlaydi. Men shunday ham qilmadim. Ular meni qo'g'irchoqdek o'ynatishdi. Lekin bir narsa menga tasalli beradi. Bolalarim. Bolalarimni to'g'ri o'stiribman. Roziman ikkalovining ham ketishiga. Borishsin. Xizmat qilishsin. Keyin boshlariga tushganini ko'rishar. Lekin bir narsaga aminman. Halol yashashadi. Dadasiga aytgan gaplarini eshitdingiz. Ular aytganimni qila-di. Bahodirim, Eldorim, aziz bolajonlarim, faqat yo'l-

laringda uchraydigan totoni yerga tegib turgan alvastilardan nari bo'lsalaring bo'ldi.

O'sha kuni tomog'imdan hech narsa o'tmadi. Uyqu ham kelmadi. Albatta, men hech qayoqqa borganim yo'q. Qayoqqa borardim? Nima derdim? So'roqdagi Sotimxon akaning javoblaridan erim qo'rqib yuribdi, deymanmi? Allaqachon xabarları bo'lsa kerak. Bir ish ochilsa, hammasi ochiladi. Innaykeyin, o'z erimdan shikoyat qilib borarmidim? Yer yutgur olib kelgan o'sha narsalarini yemaganmanmi, kiymaganmanmi? Faqat shu iflos kiyimlarni deb mehmondorchiliklarga, to'y, teatrlarga bormaganmanmi?

Xullas, hech qayoqqa bormadim. Oqshom payti o'zlari kelishdi.

– Protokolga vaqt ketmasligi uchun hammasini o'zingiz ko'rsatganingiz ma'qul, – dedi ulardan biri Norboy akaga.

– Hamma narsa ochiq, o'zlarining qarayveringlar, – deb javob qildi erim.

Tintuv boshlandi... Sanobar opa, bu falokat boshingizga tushmagan, bilmaysiz. Yer yorilsa-yu, yerga kirib ketsang shu mahali. Qo'shnilarim, bolalarimdan qandog' uyaldim, qandog' uyaldim!..

– Bo'ldimi? – deb so'radi nihoyat tintuv boshlig'i.

– Bori shu, – dedi Norboy aka tumshayganicha.

– Bo'lmasa, garajga o'taylik...

Garajda nima borligini ular qayerdan bilgan ekan? Men o'g'llarimga qaradim. Ular ham mendek, uyalganlaridan zo'rg'a oyoqda turishardi, boshlari egik.

Ular Norboy akamni oldilariga solib garajga ketishdi.

Men bolalarim bilan avvonda qoldim. Ko'p o'tmay, mashinani surib chiqarishdi garajdan. Nimalardir u



yerda taraqlab ketdi. Temir-tersak o'lgor ko'p edi garajda.

Bir mahal uchta og'zi mahkam berkiladigan sut bidonni ikki kishi ko'tarib, ayvonga olib chiqdi. Og'zilarini ochib ag'darishdi. Uchala bidonning ichi chala-chulpa taxlanib, suv qog'ozga o'ralsan yuz so'mlik, ellik so'mlik pullar ekan. Bundan mutlaqo xabarim yo'q edi. Uzun deraza tagida turgan divanning ustini pul bosib ketdi. Ko'pi mog'orlab, qanchasi chirib, titilib ketibdi.

- Bu yog'ini o'zingiz aytasizmi, yo? - dedi yana tintuv qilayotganlardan biri.

- Aytadigan boshqa hech narsam yo'q, - deb to'ng'illadi yana erim.

- Hovuzni berkittirayotganingizda u yerga nima yashirgan edingiz?

- Hech narsa yashirganim yo'q.

- O'jarlik qilib, chakki qilasiz.

- Opa, hovuz qayoqda?

Ko'rsatdim. Yarim soat o'tar-o'tmas, suvqog'ozga o'ralsan ikkita bir kilolik tunuka choy quti ko'tarib kelishdi. Ochishdi. Ichi to'la tilla pullar ekan. Bu pullar qayerdan keldi? Nega bularning hammasini mendan yashirdi?

Shu payt kimdir qattiq ingradi, keyin xirildoq tovush eshitildi. Tintuv o'tkazayotganlar yugurib ichkari xonaga kirib ketishdi. Biz ham kirdik. Qay ko'z bilan ko'rayki, yotoqxonada Norboy akam ikki qo'li-yu bo'ynidan qon ketib yotardi. Bir qo'lida chustiy pichoq.

Tanidim: qaysi bir yili bir o'rtog'i sovg'a qilgan edi. Qiyingga o'ralgancha shkafda yotuvdi.

O'zimni ushlab turolmay, Norboy akaning ustiga tashlandim! «Norboy aka! Nima qilib qo'ydingiz? Men sizga begonamidim? Aytganingizda qaytarsam



bo'lmasmidi?» Yana nimalar deb yig'ladim. Odamlar ovutgan bo'lishdi. Qani endi ularning gapi qulog'imga kirsa?!

Chaqirilgan «Tez yordam» foyda bermadi. Besh minut o'tar-o'tmas Norboy akam olamdan o'tdi. Hech narsadan xabarlari yo'q Saida bilan Xolyor musiqa darsidan kelib, ichkariga kirishdi. Odamlarni yorib o'tib, bo'lgan voqeani, qonga belanib yotgan otalarini ko'rishdi. Birdan «Dada! Dadajon!» deb qizim qichqirib yubordi. Shundagina men ularni ko'rib qoldim. Darhol ikkalovini bag'rimga bosib, hovliga olib chiqib ketdim.

Ana shunday dahshatli kunlar ham tushar ekan odamning boshiga, Sanobar opa. Yettisini o'tkazdik, hech kim kirmadi mahalladan. Ishxonasidan besh-o'nta kishi kelgan bo'ldi.

Norboy aka o'zini o'ldirgan kuniyoq ikkala kichkinamni singlimnikiga jo'natdim. U ham Toshkentda yashaydi. Bola bechoralar bu uyda qanday uxlaydi? Kattalari ham zo'rg'a turishdi. Hovliga joy qilib yotishdi. Yonlariga menga ham joy qilib berishdi.

Yettisi o'tgan kuni, idish-tovoqlarni yig'ishtirib bo'lib, katta o'g'llarimni yonimga chaqirdim.

- Nima qilamiz endi? Nima gaplaring bor?

Uzoq o'ylanib o'tirishdi. Keyin Baxtiyor gap boshladi.

- Ishlaymiz, oyi. Sizni yolg'iz qoldirmaymiz. O'qish bo'lsa sirtdan o'qirman. Kunduzgida, Eldorni bilmayman, men o'qiyolmayman. O'z kuchi bilan, zo'rg'a kirgan o'rtoqlarimning ko'ziga qanday qarayman?

- Men ham o'qimayman kunduzgida. Akamdek ishga kiraman. Sirtdan o'qiyman.



– Armiyaga ketmoqchi edilaring-ku? – deb so'radim ichimda ulardan rozi bo'lib.

Ikkovi ham javob berishmadi.

– Yozilib kelganlaring rostmi? Yo...

Eldor boshini qimirlatdi.

– Rošt edi.

– Rost bo'lsa... harbiyda xizmat qilib kelish har bir yigitning boshida bor, – dedim men. – Xafa bo'lmayman. Borib kelinglar.

Baxtiyor bir narsaga og'iz juftlagan edi, to'xtatdim.

– Yo'q, yo'q! Boringlar... Senlarniki halol... – O'zimni tutolmay, yig'lab yubordim.

– Oyi! Sizda nima gunoh? Siz o'g'irlik qilibsizmi? – Eldor yelkalarimdan quchoqlab, yuz-ko'zimdan o'pa boshladi.

– Gunoh ko'p menda ham, bolam!.. Birinchi marta ikkita go'rso'xta indamay so'yilgan qo'yni tashlab ketganida, olmasam yo ko'chaga uloqtirsam, balki hozir gunohim bo'lmasdi. Men oldim, birinchi martasiyam, ikinchi martasiyam, har doim, har doim. Kim nima ko'tarib kelsa, surishtirmay olib qolaverdim. Dadangni egi ishlardan to'xtatmadim, qaytaga sherik bo'ldim!.. O'g'irlikmasmi bu! Hech o'zimni kechirmayman, senlar o'qishda edinglar. Bir mo'ysafid keldi. Dadangning trestida ishlar ekan. Duradgor ekan. Besh yildan beri kvartira deb yig'larmish, berishmasmish. Shu odam bir tog'ora qovoq somsa qilib olib kelibdi. «Boshqasiga qurbim yetmadi. Bola-chaqa ko'p. Zax, eski uyda turaman. Norboyjon bitta ha, deb yuborsalar kvartiralik bo'lib qolardim. Beradigan hech narsam yo'q. Uyimning o'rtasida eski namat, hovlining bur-chagida bitta oriq sigir. Bor boyligim bolalarim. Yordam qiling, singlim», deb yig'ladi haligi mo'ysafid. Kechqurun dadangga aytdim, hatto yalindim. «Ara-

lashma, – dedi dadang, – u odam oyog'i bilan emas, tili bilan yuradi». Ko'rdilaringmi, shu kichkinagina bir savob ishni ham qilganim yo'q, dadangga qo'shib. Endi gap bunday, dedim ikkala o'g'limga, yigit kishining gapi bitta bo'ladi, armiya dedilaringmi, qaytmanglar. Qaytgunlaringcha ikkala ukang bilan xolalarining kida turib turaman. Qaytganlaringdan keyin bir gap bo'lar.

– Oyi, biz bu uyda turmaymiz, – dedi Eldor.

– Men ham, – dedim.

Ular ketishdi. Kavkazda hozir. Ikkala kichkinam singlimnikida. Men bo'lsam, bir betayin odam bo'-lib qoldim. Xayolim parishon, yuragimga qil sig'-maydi, nimaga qo'l urishimni, qayoqqa borishimni bilmayman...

Ittifoqo tintuv payti ro'yxat qilingan narsalar xayolimdan o'tdi. Ular orasida taqinchoqlarim yo'q edi. Topishmadi shekilli. Shunday o'ylab turib, o'zim o'sha narsalarni qidirib ketdim. Kechga yaqin hovuz ariqchasingning quvuridan topdim. Termosga o'xshagan qopqoqlik bir idishda suv qog'ozga o'rog'liq turgan ekan. Topishmadi, bular endi seniki, bolalariningki, degan fikr o'tdi yuragimdan. Lekin bolalarimni o'g'irlik mol bilan o'stiramanmi yana, bu yog'i peshonam teriga qolsin. Shu fikrda to'xtadim. Hammasini stol ustiga yozib, birpas tomosha qilib o'tirdim. Keyin odmiroq sumkaga solib, ko'chaga chiqdim. Nazarimda shu ketishda militsiyaga ketyapman. Yarim yo'lga yetganimda, orqaga qaytdim. Xuddi birov meni quvib kelayotgandek uysa yugurdim. Kira solib, eshikni qulfladim. Keyin o'ylab-o'ylab, yaxshi bir yo'l topgandek ham bo'ldim. Chiroyli kiyindim. Qo'llarimga sig'ganicha uzuklarimning eng qimmatbaholarini taqdim. Yengil

jemperimning ustidan ikki qator marvarid, bir qator tuyatishli durimni osdim. Eng yaxshi ziraklarni ham osib oldim, qulqlarimga. Yaxshi ko'rinsin, deb kalta tik yoqa charm paltomni kiydim. Taqinchoqlarning qolganlarini paltom rangidagi sumkaga solib, ko'chaga chiqdim.

Atelyeni aylanib, Bogdan Xmelnitskiy ko'chasiga yetganimda – shu yerda katta gastronom bor – shunga bir kirib chiqdim. Uch-to'rtta ayol, bir-ikki erkaklar meni kuzatishdi: Menga shu kerak edi. Gastronomdan chiqib, Pedagogika instituti tomon yurdim. Sezdim, ro'paramdan bir keksa xotin menga tikilib kelyapti. Yaqinlashganimda u to'xtadi. Men parvo qilmay, o'tib ketaverdim. Shunda orqamdan uning ovozini eshitdim:

– Aylanay! Ehtiyot bo'ling. Yasan-tusan ham evida. Bitta-yarimta o'ldirib ketsa, nima bo'ladi?!

Indamay ketaverdim. Pedagogika ko'chasi bilan Shota Rustaveli muyulishigacha bordim. Hech kim menga boshqa parvo qilgani yo'q, ilashgani ham yo'q. Shu yerda birpas turib bog'ga yo'l oldim. Bog'ning darvozasi oldida bir erkak kishi butilkadan pivo ichib turgan ekan. Meni ko'rib, og'zidagi pivosi tomog'idan o'tmadi, bir qalqib, shishani ariqqa uloqtirdi. Men unga ortiqcha qaramay, o'tib ketdim.

Bog' jimjit. Katta hovuzdag'i suvda zanjirband qayiqlar bo'm-bo'sh turibdi. Bog'ning o'rtasidagi yog'och imoratning ichidan bilyard toshlarining ovozi kelyapti. Boshqa tovush, shovqin-suron yo'q. Bog'ning orqa tomonlari qop-qorong'i. Qo'rqib ketdim. Hovuz labidagi o'rindiqqa o'tirdim.

Shu tobda yaqinimda, orqamda kimningdir sharpasi paydo bo'ldi.

– Charchabsiz-da, xonim? – dedi erkak ovoz.

– Yalt etib qaradim. Bir qo'li plashining cho'n>tagida, bir qo'li skameykaning suyanchig'iga tiralgan haligi pivo ichayotgan odam orqamda turardi. Javob bermadim.

– Men ham charchaganman. Yoningizda birpas o'tirsam maylimi?

– O'tiring. Joy ko'p, – dedim.

Yuragim gupullab ura boshladi. U o'tirishi bilan sassiq papiros va achigan ovqat hidi dimog'imga urildi.

– Bu deyman, xonim, ishdan charchadingizmi, yo yolg'izlikdan? – deb so'radi u yaqinroq surilib.

– Men qimir etmay o'tiraverdim.

– A, nimadan charchadingiz? Bilsak bo'ladimi?

– Ishdan, – dedim zarda bilan. Nega zarda qildim, bilmayman. O'zim, axir, o'g'ri yo odam o'ldirishdan toymaydigan odamga duch kelish uchun chiqdim-ku uydan. Bu odam xuddi shunaqalardanga o'xshardi.

– Ishdan? – U hayron bo'ldi va tikilib yuzimga, qulog'im, qo'llarimga qaradi, keyin jilmayib dedi: – Yo'q, meni aldab bo'psiz!.. Ishga bunaqa yasanib bormaydi odam, kelmay qoldilarmi?

– Kim?

– Kim bo'lardi... haligi... – U ko'zini qisib kului. – Kelmagan bo'lsalar, xafa bo'lman... Mana! Biz gotop!

U ko'kragiga zarb bilan musht tushirdi. Men, hatto, seskanib ketdim. U buni o'zicha tushunib, yelkamga qo'lini cho'zdi.

– Qo'lingizni oling! – dedim yana zarda bilan. – To'rtta bolam bor. Oladigan narsalaringizni oling-da, keting!

– Qanaqa narsalarni? – deb hayron bo'lib menga qaradi u.

– Manavi taqinchoqlarni. Zirak, uzuk. Sumkada ham bor. Mana.



Sumkani ochib ko'rsatdim. Sumkaning ichi yal-tirab ketdi.

– Meni kim deb o'layapsiz, xonim! – U qoshlarini chimirdi. – Agar yuz gramm ortiqcha ichgan bo'lsam, ikki... atigi ikki og'iz shirin gap gapirmoqchi bo'lgan bo'lsam, darrov meni – tappa-tuzuk odamni o'g'riga chiqarib qo'yasizmi?

U uh tortdi, g'ijim bo'lib ketgan ro'molchasini olib, burnini qoqdi va shu ro'molchani ko'zlariga bosgan bo'ldi. Buni men o'yin deb tushundim. Vaqt, zarur vaqt poylayati, deb o'yladim.

– Yo'q, adashasiz, xonim!.. – U gapida davom etdi. – Ilgari men... rost, o'g'irlilik qilganman. Orip chinoq desa Beshyog'ochdan Ko'kchagacha meni hamma bilardi va hamma qo'rqardi. Eshityapsizmi, qo'rqardi. Yigirma yil bo'ldi, tashlaganman. Innaykeyin, bunaqa tosh-poshlar mening kasbim emas. Naqd karmon pul – mana, men nimani yaxshi ko'rardim. Tosh albatta birovning boshini yeydi. Pul-chi? Bugun bor, ertaga yo'q. Tosh yo'qolmaydi, qo'ldan qo'lga o'tadi va bir kuni qarabsizki, hurmatli xonim... Orip chinoq reshottkaning orqasida. Men... men... pulning ham faqat haromini o'g'irlaganman. «Janob 420»ni ko'rganmisiz, zo'r film. O'sha o'g'ri men bo'laman. Menga ishonasizmi, yo'qmi?

Men beixtiyor «ha» dedim.

– Bo'lmasa, iltimos, o'n so'm berib turing. Uydan bepul chiqib ketganman. Uchta bolam bilan oydek xotinimni tashlab, chiqib ketganman. Yaramas, meni haydab chiqardi-ya, ozgina ichganimga!

Men bu odam bilan uchrashganimga pushaymon bo'lib, o'n so'm qoldirdim unga.

– Rahmat, ertaga albatta qaytaraman, – dedi u va birpasda ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Hafsalam pir bo'lib, o'rnimdan turdim. Kap-katta shaharda o'g'ri uchratish ham amrimahol ekan. Tag'in tayyor mol bilan tursang ham ko'rinishmaydi...

Iroda kuldi.

Sanobar Kamolova uning ancha yengil tortganini payqab, qo'shib qo'ydi.

- O'g'ri ham tanlab o'g'irlaydi.

- Shunaqa ekan. Uyga qaytdim. U yerdan singlimnikiga bordim. Saida bilan Xolyor singlimning bolalari bilan rosa to'polon qilishib, endi uyquga ketishgan ekan. Ikkalovining yuz-ko'zidan o'pib, bag'-rimga bosib, tashqariga chiqdim. Sirimni singlimga bildirmadim.

- Bolalarga o'zing qarab tur. Yo'qligimni bildirma. Qayerdaligim ikki-uch kundan keyin ma'lum bo'ladi, - dedim.

- Qayoqqa ketayapsiz? - deb xavotirlanib so'radi singlim.

- Hozir aytolmayman.

U ortiqcha surishtirmadi. Erining tashvishi bilan yurgan bo'lsa kerak, deb o'yladi.

Yana ko'chaga chiqdim. Oyoqlarim o'zidan-o'zi «Minor»ga boshladi. Darvozaning yonidagi kichik eshik ochiq ekan, shundan kirib, Norboy akaning qabri ustiga bordim. Etlarim jimirlab ketdi. Bo'shashib tiz cho'kdim. Tiz cho'kdim-u, bor alamim, nafrat va muhabbatimni loyshuvoq qabrga to'kib soldim!

Kim edim? Kim bo'ldim? Meni kimlardan ayirding betavfiq? To'rtta bolani so'qqa boshimga nega tashlab ketding? Qozonimiz haftalab qaynamasa ham, yirtiq-yamoq kiyinib yursak ham sendan ta'na qilmas edim. O'rtoqlarimdan ayrildim; kasbimdan ayirding. Meni o'ylaganlaring, menga gapirganlaring meni deb, bolalarni deb o'g'irlik qilganlaring, ham-



masi-hammasi yolg'on! Sen bilan yashaganim yolg'on!  
Yolg'on! Yolg'on!..

Uning qabri yonida yana qancha o'tirdim – bil-mayman. Aftidan, ovozimni chiqarib bo'zlagan bo'l-sam kerak, kimdir kelib meni ko'chaga olib chiqib qo'ydi.

– Qo'ying, foydasiz, – dedi. – Bu yerga tiriklarni o'ylab kelish kerak.

Har holda, o'ylar meni mashinalar ko'proq yuradigan ko'chalarga boshladi. Aylanib, yana Shota Rustaveli ko'chasidan chiqib qolibman. Ulgurmadir. Yonimga qarasam, chiroqlarini to'la yondirib, mashina kelyapti. Yaqin qolganida yo'lini kesdim. Mashina xuddi boyagi tramvaydek chinqirib yubordi-da, mast odamdek o'zini bir-ikki u yoq-bu yoqqa tashlab, tizzalarimga tegib to'xtadi.

– Opa! Jonizda qasdingiz bo'lsayam, bizni o'yla-maysizmi?! Juvonmarg bo'lib ketardim-ku hozir! – Shunday deb haydovchi yigit mashinadan tushdi. – Urilmadingizmi?

– Yo'q, – dedim uyalib men.

– Nahotki ko'rmaidingiz mashinani? Buning ustiga, tez kelayotgan edik, – dedi mashinadan tushgan ikkinchi yigit.

– Kechiringlar!.. – Men boshqa hech narsa deya olmadim.

– Qayoqqa ketyapsiz? – deb so'radi haydovchi yigit.

«Samarqandga» degan so'z og'zimdan chiqib ket-ganini o'zim bilmay qoldim.

– Buni qarang-a? Yo'limiz bitta ekan. Qani, o'tiring! – Haydovchi yigit orqa eshikni ohib, meni o't-qazdi. – Paltongiz biroz chang bo'libdi, xolos.

U joyiga, ikkinchi yigit uning yoniga o'tirdi. Mashinani yurgizar ekan, haydovchi yigit zo'raki kulib qo'ydi:

- Tizzalarim haliyam qaltirab ketyapti. Ammo, opajon, bir falokatdan qutulib qoldik-da! Qani, ketdik! Toshkentdan chiqilganda haydovchi yigit sal orqaga o'girildi.

- Mening otim Ismat. Bu kishi o'rtog'im – Nurilla. Ikkalamiz ham fizikmiz. Ilmiy tekshirish institutida ishlaymiz. Keliningiz Samarqand universitetida dissertatsiya yoqlayaptilar ertaga. Adabiyotdan. Navoiy bilan Jomiyning adabiy aloqalaridan.

- Men esa, Irodaman. Hamshira. - Qanday qilib og'zimdan shu gaplar chiqib ketganini sezmay qoldim, qip-qizarib ketganimni butun vujudim bilan payqadim, ammo mashina ichi qorong'i edi, ular bilishmadni.

- Irodaxon opa! - dedi haydovchi yigit yana. - Qorin qalay? Mashinada norin bor, qazi, pishgan go'sht... Balki...

- So'rab beradimi? - deb jerkidi ikkinchi yigit. - Sangzorga yetaylik, to'xtab, yaxshilab ovqatlanib olamiz. Nima dedingiz?

Men bosh irg'adim. Keyin yigitlarga bilintirmay, sekin-sekin barmoqlarimdan, quloqlarimdan taqinchoqlarimni yechib, sumkamga solib qo'ydim. Durlarimdan bittasini ham bo'ynimda qoldirmadim.

Anchagacha jim bordik. Sirdaryodan chiqqanimzda, haydovchi yigit sherigidan so'radi.

- Dacha qilmoqchi edinglar, nima bo'ldi?  
- E, so'rama, - deb javob qildi ikkinchi yigit. - Nanayning etagidan yaxshi joy tanlagan edik. Bir qurilish boshqarmasi bilan shartnoma tuzdik. Boshliqlari borib ko'rib keldi. Pulini ham kelishdik. Endi qurilish boshlanay deganda hammasi qamoqqa olindi. Boshliqlari ham. Norbo'tayevmidi, Norbo'yevmidi – hozir esimda yo'q.

- Nega?



- Hozir ma'lum emas. Aftidan, muttahamlik, qalloblik.

- Paxtani tuzatishgan edi, endi navbat qurilishga kelibdi-da!

- Nimasini aytasan. Gaplarga qaraganda, bular faqat aldash bilan kun o'tkazisharkan.

- Yaxshi bo'ljadi-da, - deya xo'rsindi yigit. - Besh-o'nta kasofat hammamizga isnod keltiryapti. Bu nokaslarni...

Men bir seskanib tushdim. Lekin erimga qancha achinmay, ular haq edi.

- Yaramaslar, qachon ularning urug'i tugaydi?!

Xuddi uning gapini eshitmagandek, haydovchi yigit dedi:

- Xafa bo'lma. Oz qoldi. Yomondan yaxshi ko'p... Ishlarimiz juda boshqacha bo'lib ketadi.

Sangzorda ovqatlanib, yana yo'lga tushdik. Tong yorishganda Samarqandga kirib keldik. Men bozor oldida qoldirishlarini iltimos qildim. Shunday qilishdi. Boradigan joyim, qiladigan ishim yo'q edi. Nega o'zi Samarqandga borib qoldim – bilmayman. Institutda birga o'qigan o'rtoqlarim bor, ularnikiga kirsam, birpas dam olsam bo'lardi. Lekin nima deb kiraman? Qaysi yuz bilan kiraman?

Bozorga o'tib, rastalarini tomosha qila boshladim. Kuz bozori juda allambalo bo'ladi. To'g'rimi, Sanobar opa? Ayniqsa, Samarqand bozori. Bir tomonda pistabodom, sho'r danak... Bir tomonda quruq meva, bir tomonda ho'l meva... Ko'zlarining qamashib ketadi.

Men Samarqand nonlariga juda ishqibozman. Tavba, qanday qo'li gul odamlar yopar ekan-a, bunday nonlarni? Hozir yesangiz ham maza qilasiz. Bir oydan keyin ham uning kusir-kusiri ruhingizni ko'taradi. Bitta yangi uzilgan bo'rsildoq non olib, qaymoq bozoriga



o'tdim. Qaymoqchilarning panasida bir sopol tovoq qaymoqqa uni botirib yedim. Bilasizmi, ancha o'zimga keldim. Ayollardan biri achchiq ko'k choy uzatdi. Yaqin-yaqingacha yuragimning qayerinidir kemirib turgan dard yo'qolgandek bo'lди. Registonga o'tib, oftob yaltiratib turgan madrasalarning hammasini shoshmasdan tomosha qildim. Keyin Afrosiyob muzeyiga bordim. Kun yarim bo'lди. Zarafshonga kelib ovqatlangan bo'lдим. Keyin yana ko'chaga chiqdim. Go'ri Amir tomonga ona-bola qo'l aravaga bosib g'o'zapoya olib ketyapti. Bola tortib ketyapti, kalishi oyog'idan tushib qolay-tushib qolay degan ayol bor kuchi bilan aravani orqadan itaryapti.

- Kamroq ortsalaring bo'lmasmidi? Bolaga og'ir-ku?! - dedim o'zimni tutolmay.

- Men ham aytdim ohi og'ir bo'lди deb. - Xotin to'xtab tushuntira boshladi. - Aravaga ham, senga ham, bola, menga ham jabr, dedim. Ikki safar qilaylik, dedim. Yo'q, deydi. O'qigan-da! Televizor ko'rар emish. Futbol bor ena, tezroq non yoping, deydi. G'o'zapoyaga non zo'r pishadi-da, aylanay, xuddi sizning oydek yuzingiz bo'lib ketadi. Bizning hovliga bo'ling, ana, vodoprovod oqib turibdi. Shunga yetsangiz – bo'lди. Odilsho, chaqir opangni?

Aravaning oldida g'o'zapoya orasidan iljaygan kalla ko'rindi.

- Qani, yur bo'lmasa! – Kampir aravani itardi. Oldinda hech kim bo'lmasa ham, qo'shib qo'ydi: - Qani, po'sht! Odilsho toychoq ketyapti, po'sht. Qadami oltin ketyapti, po'sht!..

Yashash qanday shirin shu odamlarga. Ona bolasiga u sevgan nonini yopib berish dardida, bola yangi uzelgan nonni yeb, futbol ko'rish ishtiyoqida. Bundan katta zavq, baxt bormi? Ularning hayoti har



kuni shunday, mehnat, zavq bilan o'tadi. Nega shunday yashash mumkin emas? Shuncha yil yashab, nega men biron marta bunday zavq olganim yo'q? Bolalarimga qanday zavq berdim?

Yugurib mehmonxonaga kirdim. Ikkita konvert, ikki varaq qog'oz oldim. O'sha zahotiyoy ikkita xat yozdim. Mana ular...

Sanobar Kamolova yozuv stoli ustidagi chiroqni yoqib, xatlarni uning qo'lidan oldi. Ikkalovi ham ariza edi. Biri – shahar kengashga: hovlini olib, o'rniqa kvar-tira berish haqida; ikkinchisi – Toshkent pediatriya institutining bosh vrachi nomiga bo'lib, hamshira sifatida ishga qabul qilishlarini o'tinib so'ralgan edi.

– Ikkala arizangiz ham yaxshi, – dedi Sanobar Kamolova. – Oqilona ish qilibsiz. Bittasini, qabul qilindi, deb o'ylayverasiz.

– Qaysinisini? – dedi shoshib Iroda.

– Hamshiralikni. O'sha kasalxonaning bosh vrachi men bo'laman. Ertadan ishga boravering.

Iroda divandan sakrab tushib, yosh boladek Sanobar Kamolovaning bo'ynidan quchoqlab oldi.

– Yuring, hovliga chiqaylik. Yulduzlar so'nma-ganmikin, ko'raylik.

U dast o'rnidan turib, hovliga tushdi. Ketidan Sanobar Kamolova ham hovliga chiqdi. Erta sahar edi. Hayot hali qorong'ilik og'ushida. Yulduzlar charaqlab turibdi. Qay ko'z bilan ko'rsinki, yangi, endi to'rt kunlik oy shunday ikkalovining o'ng tomonida edi.

– Voy! Qarang, – dedi Iroda. – Dumli yulduz yana qaytib kelibdi!

Rostdan ham oyning tagida kecha ular ko'rgan dumli yulduz turardi. Uning yorug'i hovligacha tushgan edi.



— Sanobar opa? Ayting-chi, qanday odamni baxtli deb bo'ladi? — deb so'radi Iroda birdan.

— Nazarimda, baxtli odam — xalqqa, jamiyatga foydasi tekkan, odamlarga zarur odam bo'lsa kerak.

— Men ham shunday odam bo'larmikanman? Sanobar Kamolova unga qaradi. Irodaning ko'zlarini yalt-yult qilib turgan dumli yulduzda va yangi oyning oltin o'rog'ida edi.

1986

## QIYOMAT QARZ

**S**arsonboy ota tuman markaziga kelganda, quyosh yerdan endigina cho'giri tilimidek ko'tarilgan edi. Kim biladi, hali erta bo'lgani uchunmi yo souvuq tushib, bozor-o'char qiladiganlar kamayib qolganidanmi — odam siyrak, bozor kunlari bo'ladigan g'ala-g'ovur, to'polon yo'q. Chol ichida xursand bo'lib qo'ydi: «Ha, tuzuk, bu gal kechikmadim. Avji bozor».

U shunday deb, otning jilovini tortdi. Quloqlarini osiltirib tin olayotgan to'riq, xuddi shuni kutib turgandek pastga, daryo tomonga yo'rg'aladi. Bu joylarni u egasi kabi yaxshi biladi. Ulg'ayib, ustiga egar urilibdiki, har yakshanba kuni butun Hisorni oshib, shu yerga keladi. Tor taxta ko'priknning yoniga omonatgina qurilgan choyxona etagida to'xtaydi. Daryoning sel yuvib, beso'naqay kengaygan shu yeri urush yillaridan beri — kech kuzdan erta bahorgacha — bozor. Chor atrofdan yig'ilgan yigitlar frontga shu yerdan jo'nashgan. Ustunlari chirigan choyxona ham o'sha sertashvish yillardan nishona...

Sarsonboy ota otini ilgarilari shu ustunlardan biriga bog'lab qo'yardi. O'zi esa, yo bozor aylanardi, yo peshingacha choyxonada o'tirardi. Bozor tugagach, peshin namozini o'qib, iziga qaytardi. To'riq uzoq



vaqtgacha bunga ko'nikolmadi, bir-ikki marta, hatto tizginni uzib qochdi, butun bozor ahlini sarson qildi. Bir-ikki marta esa, yarim yo'lda tixirlik qilib, oyog'ini tirab turib oldi, bo'ljadi. Qamchi yedi. Endi ko'nikib qoldi. Sarsonboy ota endi uni bog'lamaydi ham. Oting o'zi shunday ustun tagiga kelib, uning tushishini kutadi-da, ko'zlarini yumib, keyingi bir oyog'iga dam bergenicha, joyidan qimirlamay turaveradi...

Bu gal ham shunday bo'ldi. Sarsonboy ota ustun tagida otgan tushib, choyxonaga kirib ketdi. To'riq og'ir xo'rsinib, atrofiga qaradi. Ko'prik tagida bir targ'il sigir sovuqdan tuklari hurpaygan buzog'ini erinchoqlik bilan yalardi. To'riq unga qarab turib, zerikdi. Esnadi-da, ko'zlarini yumdi.

Sarsonboy ota katta ko'zi singan deraza yoniga cho'kkaladi. Choyxona qurilibdiki, shu joy uniki. Birov o'tirgan bo'lsa ham u kelganda bo'shatib beradi. Shu yerdan bozor maydoni yaxshi ko'rindi, ko'priktan o'tayotgan biror odam ham xato ketmaydi, hammasi ko'zdan o'tadi.

– Ha, Sarsonboy, omonmisan? – dedi choyxonachi choy keltirib qo'yar ekan. – Yana kelibsan-da?

– Nima, senga og'irligim tushdimi? – to'ng'illadi Sarsonboy ota oftob sarg'aytirgan siyrak qoshlarini chimirib.

– Jazillama. Azbaroyi achinganimdan gapi ramon. Kutgandan yomon narsa yo'q.

Sarsonboy ota javob bermadi. Uning bugun go'yo niyatiga yetadigandek kayfi chog' edi, lekin o'rtog'inining gapi bilan ko'ngli buzildi. Bir: «Sening nima ishing bor? Choyingni sotsang-chi!» – demoqchi ham bo'ldi, tili bormadi. Madumar akaning gapida jon bor edi. O'g'lidan qoraxat kelganidan keyin bechora o'n yil kutdi. Xatsiz, xabarsiz xotini farzand dog'ida ado bo'lay

dedi. O'zi esa, cho'p bo'lib qoldi. Oxiri chidolmay, aza ochdi. Ermagi – choyxona.

Madumar akaning bugungi gapida chindan ham jon bor edi. «Azbaroyi achinganimdan gapiRAMAN...» Nahotki, uning ahvoli achinarli bo'lSA?! Sarsonboy ota shunday o'yladi-yu, yuragini nimadir timdalab ketganday bo'lди. Lablari titrab, tuproqdek sarg'aygan soqoli tortildi. Nimadir tomog'iga kelib tiqildi. Bo'shashib ketayotganini sezdi-da, o'shqirdi:

– Ahmoq, kutsam seni kutamanmi? Senga Azroil-dan boshqasi orzumand emas! Qayoqdan mulla bo'lib qoldingki, menga o'rgatasan?!

– Jazillama, – iljaydi Madumar aka. – Har bozor basharangni ko'rsam, ko'nglim ayniydigan bo'lib qolibdi. Qir-piringda podangni boqib yuravermay-sanmi? Kerak odam o'zi topib oladi seni. Tag'in o'zing bilasan. Menga desa shu yerda yotib ol. Yo'lda yakka o'zingsan, tag'in o'lib-netib qolmagin deyman-da, betamiz!

– O'lsam bir musulmon topilar ko'mgani, – dedi o'zini bosib olib Sarsonboy ota. – Sendan Xudo o'zi saqlasin. Choydan urgan – kafandan ham urib qolasan.

– Shunday demaysanmi? Mana, yangi damladim. Ich zaharingga!

Madumar aka yangi damlangan choynakdan choy quyib, o'rtog'iga uzatdi, odam kam bo'lgani uchun o'zi ham yoniga o'tirdi.

– Hech gap eshitmadingmi? – so'radi jiddiy ohangda Sarsonboy ota.

– Eshitsam, shu zahotiyoq senga odam yuborardim, eshitmadim...

Oraga jimlik cho'kdi. Madumar aka o'zini noqulay sezib, ichkisi kelmasa ham xo'rillatib, bir-ikki choy ho'pladi.



– Zebi qalay? Yuribdimi?

– Tuzuk, – dedi Sarsonboy ota derazaga bir qarab qo'yib. – Bugun zo'rg'a yubordi. Bu yoqqa kelishimni bilib, yarim kechada otни dalaga haydabdi.

– So'kmadingmi? – xavotirlanib so'radi Madumar aka.

– Yo'q, u sho'rlikka ham qiyin. Endi so'kmayman.

– So'kma. Bechoraning sendan boshqa kimi bor?

– So'kmayman. Lekin... – Sarsonboy ota birdan qiqir-qiqir kulib yubordi.

– Ha? – hayron bo'lди Madumar aka.

– So'kmayman-u, lekin otни haydab nima qiladi? Piyoda bo'lsa ham kelishimni biladi-ku! Buning ustiga to'riq yo'talimni eshitsa, oldimga yugurib keladi. Shuni biladi, nima qiladi haydab?

– Ha, endi achinadi-da, – dedi Madumar aka ham kulishga harakat qilib.

– Men achinmaymanmi? Men ham achinaman unga. Yolg'izlik yomon. Buni o'zing ham bilasan. Lekin nachora? Qiyomat qarz bu. Qarz bilan go'rga kirmoqchi emasman. Tushunishi kerak-da. Innaykeyin...

– Assalomu alaykum-m-m!..

Odamlar kirdi. Gap uzildi. Madumar aka o'rnidan turdi.

Ko'p o'tmay, bozorning odatdagи tashvishi, to'poloni boshlandi. Bolalarning qiy-chuvi, sigir-buzoqlarning ma'rashi bilan dallollarning «Bor baraka»si qo'shilib, yaqinginada osoyishtalik hukm surgan qaqroq daryoga bahor toshqinidek jon kirdi.

Sarsonboy ota yana derazaga tikildi. Ko'prik o'tgan-ketganning ko'pligidan xuddi tuyadek lapanglardи. O'shanda ham shunday lapanglab turgan edi.



... O'g'lini kuzatganda ham, Haydaralini kuzatganda ham...

Lekin unda odamlar bir tomonga qarab yurgan edilar. O'shalardan ko'pi shu ko'priordan qaytib o'tmadi, biri o'ldi, biri bedarak ketdi. O'g'lidan yarim yil hech qanday xabar bo'lmay, birdan qoraxat keldi.

O'shanda u poda bilan Uzumlida edi. Qo'ylnarni soyning narigi sohilidagi o'tlari endigina nish urgan yalanglikka haydab, o'zi nurab-nurab devorlarigina qolgan Toshqal'a tagida o'tirardi. Kun tik kelganda tushlik qilmoqchi bo'lib, xurjundan suzma olganini biladi, qishloq tomondan ayol kishining uvvos solib yig'lagani eshitildi. Yig'i tog'dan aks sado berib, shunday qattiq jarangladiki, Sarsonboy ota cho'chib ketdi. O'rnidan turib, pastga qaradi. Sochlari to'zg'igan bir ayol soy yoqalab, yuzini yumdalab kelardi. Sarsonboy ota avval tanimadi. Pastroq tushdi. Shunda uning havorang ko'ylagidan tanidi. Tanidi-yu, yuragi shig' etib ketdi.

– Zebi! Men bu yoqdaman. Zebi, hoy! – deganicha pastga otildi.

Zebi xola uni ko'rib, o'zini tutolmay, o'krab yubordi.

– Nega bo'kirasan?! Nima bo'lди? – Sarsonboy ota uni bilaklaridan ushlab tortqiladi.

– G'ofur... G'ofurjon... – Zebi xola gapirolmadi, ho'ngraganicha qo'lidagi qog'ozni eriga uzatdi.

Sarsonboy ota kichkina ko'k qog'oz parchasini ko'rib, hammasiga tushundi. Madumar, aka ham o'g'lidan shunday xat olgan edi... Sarsonboy ota o'qimadi, qo'l-oyog'i muz bo'lib, turgan joyida qotib qoldi. Xudo unga bir farzand bergen edi, shuni ham ko'p ko'rdi.

Haydarali esa, otasidan bir oy keyin jo'naganicha, bedarak ketdi. O'g'lining o'rtog'ini o'zi tumangacha



kuzatib bordi. Kuzatadigan uning biron kimsasi ham yo'q edi.

Jo'naydigan kuni Haydarali eshak aravaga ortib, ikkita qo'y olib keldi. Shunda G'ofurdan qoraxat kelganiga yil bo'lgan edi.

– Amaki, shular sizda tursin, – dedi iymanib. – Dadam qo'yni yaxshi ko'rар edilar. Qaytganlarida to'y-po'y qilardik... Agar malol kelmasa...

– Xo'p, bo'tam, – dedi Sarsonboy ota. – Suruvning ichiga qo'shib yuboraman. Malol keladigan joyi yo'q.

Ko'priк ustida xuddi o'g'lini kuzatayotgandek Haydarali bilan xayrlasha turib, butun vujudini titroq bosdi.

– Omon bo'l, bo'tam! – dedi-yu, yoshlangan ko'zlarini ko'rsatmaslik uchun xotini nimalardir solib bergen tugunni yuziga tutib uzatdi. – Xolang berdi, ol.

– Rahmat.

– Imkon bo'lsa, G'ofurning mozorini bir ziyyarat qilib o't. Istalingradda.

Shovqin-suron ichida aytilgan bu gapni Haydarali eshitdimi, yo'qmi, Sarsonboy ota bilmaydi, har holda, uning bosh qimirlatib, nimalardir deganini ko'rди.

Mana, shunga yigirma yildan oshib ketdi. Haydarali na uning o'g'lini borib ko'rди, na o'zi biror xabar yubordi. Tashlab ketgan ikkita qo'yi qirqtadan oshdi. Boshqa qo'ylarga aralashib ketmasin, kelib qolsa topish qiyin bo'ladi, deb Sarsonboy ota hammasining bo'yniga qizil latta bog'lab chiqdi. Lekin kelmadи. Tirikmi, o'lganmi – hech kim bilmaydi. Sarsonboy otaning bormagan idorasi, surishtirmagan odami qolmadи. Familiyasi, adresini bilmagandan keyin topish oson bo'larmidi?

– Sarsonboy, shu endi, har qayoqqa borib, o'zingni sarson qilma, – maslahat berdi oshnalardan biri.



– Shunday jahannamdan omon qaytgan odam qachongi ikkita qo'yni surishtirib kelarmidi?! Xudoga shukur, to'qchilik. Qo'y kerak bo'lsa, bozor to'la. Sen yaxshisi, bozorga bor. Taniysan-ku, tirik bo'lsa, shu yerda bo'lsa, ko'rinish beradi.

Bu gap Sarsonboy otaga ma'qul tushdi. Shundan beri bitta ham bozorni kanda qilmay qatnaydi. Boshqa kunlari qo'y boqib, tog'ma-tog', darama-dara yuradi. Horib-charchab, hafta oxiri uyiga qaytadi. Rais bir necha marta: «Bo'ldi, endi, ota, shuncha ishladingiz, yetar. Endi, yoshlar ishlasin!» – dedi, lekin Sarsonboy ota qulq solmadi. Qanday qilib qulq solsin. Haydaralining qo'ylarini baribir boqishi kerak-ku? yetti yet begona odamning podasini kim boqardi? Boqsa ham qanday boqardi?

Lekin qarilik, qarilik ekan... Ilgarilari haftalab oyoqda tursa ham charchamasdi, endi yarim kunda madori quriydi, o'tirgisi kelib qoladi. Bir kuni Uzumlining tepasida shunday horib o'tirgan edi, soydan o'q ovozi eshitildi. Tag'in birorta qo'yni otib qo'yishmasin, deb pastga tushdi.

Archalarga chirmashib ketgan tokning tagida to'rt-besh yigit xarsangning ustiga shisha qo'yib otishardi. Cholni ko'rib, bittasi gap otdi.

– Boboy, bu nima, kaklikning hammasini otib, tuzlab qo'yanmisizlar? Bittayam ko'rinxmaydi-ku?

– Kaklik ovi qishda bo'ladi-da, bo'tam. Ov qilgani keluvdinglarmi?

– Ha, bir bosh og'ib keluvdik. Shu tomonda kaklik bo'ladi, deyishuvdi.

– Bo'ladi, ko'p bo'ladi, lekin qishda bo'ladi.

– Boboy! – qichqirdi archa tagida o'tirgan bir yigit. – Qani, bu yoqqa keling. Manavidan bir ichib yuboring, biz bilan.



Yigit piyolani to'latib, aroq uzatdi.

- Ichmayman, bo'tam, - dedi jilmayib Sarsonboy ota. - Hech ichgan emasman.

- Bir ichib ko'ring. Keyin gap bor, - qistadi yigit va gandiraklab uning oldiga keldi. - Oling.

- Ichmayman, bo'tam, - dedi Sarsonboy ota piyolani itarib. - Har qancha gapingiz bo'lsa gapiring, eshitaman, lekin ichmayman.

- Mayli, zo'rlama otani! - dedi miltiq o'qlayot-ganlardan biri.

- Bo'lmasa, o'zim oldim, - yigit piyolani sipqorib, yengiga uhladi-da, dedi. - Boboy! Ov bahona bir dam olgani chiquvdik-da, bu yoqqa. Qo'ydan bittasini soting. Shu yerda u-bu qilib ketaylik.

Sarsonboy ota boshini quyi solib, jim qoldi. Keyin xijolatlik bilan jilmaydi:

- Attang, bo'tam, sotolmayman-ku. Meniki emas. Qishloqqa o'tsangiz, har bir xonadondan topishingiz mumkin. Men o'zim ham beraman. Bular omonat. Bo'lmasa, qo'y sizlardan aylansin!..

- Shunday deng?

- Ha, shunday, bo'tam.

- Hozir bittasini o'zimiz tutib olsak-chi? - yigit iljaydi.

- Unday qilmaysiz. Omonat dedim-ku, bo'tam.

- Juda ziqna ekansiz-da! - yigit achchig'landi. - Bitta qo'y nima, odamdan ham azizmi? Akbar?

- Nima deysan? - dedi yigitlardan biri.

- Yur, bittasini tutib kelaylik. Raisga o'zimiz javobini beramiz.

Yigitlar tosh qal'a tomon yo'l olishdi.

- To'xtang! - qichqirdi Sarsonboy ota. - Musulmon bolasimisizlar, meniki emas, dedim-ku! Egasi yo'q bu

qo'ylarning. Urushda bedarak ketgan, yigirma yildan beri boqib yuribman... Ins of bormi?

Yigitlar to'xtab qolishdi, keyin bitta-bitta orqaga qaytishdi.

– Kechiring, ota, bilmadik, – dedi kimdir.

Sarsonboy ota indamadi. Uning rangida qon qolmagan, lablari titrardi.

– Uzr, boboy!

Sarsonboy ota yana churq etmadi. Keyin ohista-ohista qadam tashlab, qal'a tomon ketdi.

Shu voqeani Madumar akaga kuyunib aytib bergenida, u ancha o'ylanib qoldi. Keyin dedi:

– Xafa bo'lma, bir gap aytaman.

– Xo'sh?

– Shu qo'ylarni jamoa xo'jaligiga ber, yaxshisi. O'zingni qiynama. Senda bo'ldi nima-yu, jamoa xo'jaligida bo'ldi nima. Jamoa xo'jaligi yeb ketarmidi? Haydaraling kelsa, qaytarib beradi.

Sarsonboy ota javob bermadi. Mana, hozir ham u bozorga tikilib o'tirar ekan, o'rtog'ining shu maslahati xayolidan ko'tarilmas, lekin nima qilishini bilmasdi.

Kun tikkaga kelganda bozorda odam siyraklashdi. Moli sotilmaganlar, tomoshaga chiqqanlar qoldi, xolos. Sarsonboy otaning ertalabki kayfi chog'ligi yo'qoldi: Haydariga o'xshagan birorta odam bu gal ham uchramadi.

«Nahotki, o'lgan bo'lsa? – bu dahshatli fikr cholning xayoliga keldi-yu, qo'rqib ketdi. – Yo'q, shuncha o'lim bo'lishi mumkin emas. Bedarak ketganlarning ko'pi keldi-ku, ajab emas, u ham kelsa. To'y qilmoqchi edi. Bahona bilan men ham to'y ko'rib qolardim. O'zim qilib berardim, to'yini...»

U shunday xayollar bilan yana ancha o'tirdi. Bozor tugadi. Deyarli hamma tarqaldi. Oshxona tomondan



palovning hidi kela boshladi. Ammo chol joyidan qimirlamay o'tiraverdi.

– Sarsonboy!

Sarsonboy ota o'ziga kelib, o'girildi. Tepasida Madumar aka turardi.

– Bo'ldi endi. Men aytgan ishni qil. Cho'p bo'lib ketasan-ku, axir bunaqada.

Sarsonboy ota indamadi. Mahsisining qo'njidan bir so'm chiqarib, laganchaga tashladi-da, o'rnidan turdi.

– Ketasanmi? Osh damladim, yeb ket.

– Kelasi gal. – Sarsonboy ota karavotdan tushib, eshikka yo'l oldi. – Xayr!

Eshikka chiqib, nimadir esiga tushdi shekilli, qaytdi.

– Nahotki, sen ham tushunmasang?! O'zim olib qolganman, o'zim, o'z qo'lim bilan qaytarishim kerak...

Madumar aka javob qilmadi. Faqat o'rtog'i chiqib ketganda:

– Zebiga salom aytib qo'y! – deb qo'ya qoldi.

Qirov bosgan to'riq egasini ko'rib, quloqlarini chimirdi. Erkalanib, boshini bir-ikki siltadi-da, zinaga yaqinlashdi. Sarsonboy ota egarga chaqqon minib, jilovini qo'liga oldi:

– Ketdik.

To'riq tanish yo'ldan ildam yo'rg'alab ketdi. Uning yurishida ham egasining dilidagi kabi bir umid bor edi.

1976

## BOBOYONG'OQ

**G'**ulomqodir ota ayvonning burchagidagi ustunga suyanib o'tirardi. Uch kundan beri u shunday, oqshom bo'ldimi, tamom, o'zi birinchi g'ishtini qo'ygan boloxonali uyning oldidagi ochiq ayvonga o'tirib olib, xayol suradi. Ilgarilari bunday emas edi,



qorong'i tushdimi, bo'ldi, eshikni orqasidan zanjirlab, choyxonaga chiqib ketardi. U yerda oshna-og'aynilari, o'rtoqlari bilan gurunglashib, yarim kechada qaytardi. Faqat yakshanba kunlari hech qayoqqa bormay, uyda bo'lardi.

Internatda o'qiyotgan nevarasi, o'n to'rt yoshga endi qadam qo'ygan Mamadalini kutib, osh damlab o'tirardi. Mamadali ham buvasiga o'xshab, palovni yaxshi ko'radi. Ayniqsa, po'stdumba solinganini. G'ulomqodir ota buni bilib, har shanbada bozor qilib keladi. Ba'zida Mamadali bundan xafa bo'lib qo'yadi.

- Nima qilardingiz ovora bo'lib? - deydi lablarini osiltirib. - Koshki bozor yaqin bo'lsa!

- E, bolam-a, qari odamga ovorasi bor ekanmi, - javob qiladi G'ulomqodir ota beparvogina, lekin ichida nevarasining mehribonligidan xursand bo'lib qo'yadi. - Bizning avlod o'zi oshxo'r avlod. Dadang rahmatli iloji bo'lsa kunda osh qildirardi. Oying ham. Balnisada ham oshdan boshqa narsa yemasdi.

G'ulomqodir ota shunday deydi-yu, o'ylab ketadi. Qovoqlari bujmayib osilib tushgan yirik ko'zлari ustidagi uzun, lekin siyrak kulrang qoshlari chimiriladi. Lablari bir-ikki tortilib, gapga tushib ketadi. G'ulomqodir ota o'tmishni eslab, ancha o'zini ranjitishini bilsa ham o'g'li, kelini va kampirini gapirishni yaxshi ko'rardi. Mamadali ular haqida juda ko'p eshitgan bo'lsa ham, buvasining gapini bo'lmaydi. Diqqat bilan quloq soladi.

Oyisini u es-es biladi. Uch yoshlida kasalxonada vafot etgan. Oppoq, to'ladan kelgan xotin edi oyisi. Doim kulib turardi. Bir marta u buvasi bilan kasalxonaga borganda - bahormidi o'shanda - ikkala qulog'iga qo'shaloq gilos taqib qo'ygan. Dadasini esa ko'rмаган, faqat uyning to'rida osig'lik turgan suratidan biladi. Innaykeyin, Germanianing qaysi bir



shahrida, nomini aytishga tili kelmaydi, mina portlab halok bo'lganini eshitgan. Bunga ancha bo'ldi. Shu-shu katta hovlida buvasi ikkalovi turishadi.

Jámoa xo'jaligida internat ochilganda Hakim aka uni olib ketdi. Keyin bilsa, Hakim aka dadasingning o'rtog'i, birga frontda bo'lishgan ekan, internatda ona tili va adabiyotdan dars beradi. Buvasi uni yaxshi ko'radi. Hakim akangning aytganini qil, bo'lmasa shartta qulog'ingni kesib tashlayman, deydi ko'pincha hazillashib. To'g'risi, ilgari shunday derdi. Hozir Mamadali katta bo'lib qolgan, buvasidan endi bunaqa gap eshitmaydi. Endi buva bilan nevara teng odamday gaplashishadi. Buvasi gapiradi, Mamadali tinglaydi. Shuning uchun ham u ko'p narsani biladi.

G'ulomqodir otaning gapi qorong'i tushganda ham tamom bo'lmaydi, shunda Mamadali sekingina:

– Buva... – deb, yulduzlarga ishora qiladi.

G'ulomqodir ota miltillab birin-ketin yonayotgan sarg'ish yulduzlarga qarab, avval, hech narsani tushunmaydi, keyin nevarasiga ko'zi tushib, internat esiga keladi. Gap uziladi. Katta qizil piyoladagi sovib qolgan ko'k choyni yigitlarga xos shaxd bilan simiridda, nevarasiga tikilib, jilmayib qo'yadi. Mamadali buvasining shu jilmayishiga ishqiboz. Jilmayganda ko'zlar kichrayib, ikki chakkasida yirik-yirik uchta chiziq paydo bo'ladi. Yo'g'on dahanini qoplab turgan ko'kimtir soqoli yoyilib, sersavlat bo'lib ketadi.

G'ulomqodir ota shu jilmayganicha, bir-ikki yo'talib:

– Qani, do'xtir, daptarizni ko'rsating-chi, – deydi.

Nega «do'xtir» deydi, Mamadali bilmaydi. Darrov papkasidan kundalik daftarini olib ko'rsatadi. G'ulomqodir ota undagi qator beshlarni ko'rib, jiddiylashadi, chakkasidagi chiziqlar yo'qoladi, soqoli joyiga tushadi. Ehtiyyotlik bilan daftarni xontaxtaga



qo'yib, shoshmasdan arabchalab qo'l qo'yadi. O'zining ismiga uzoq tikilib, daftarni yopadi-da, nevarasiga qaytaradi.

– Barakalla, – deydi vazminlik bilan, – barakalla.

Bobo bilan nevara shundan keyin internatga yo'l olishadi. U yerdan qaytib, vaqt hali erta bo'lsa ham, G'ulomqodir ota choxonaga bormaydi, to'g'ri uyg'a kiradi-da, hozirgina neverasi o'tirgan joyga o'tirib, miriqib choy ichadi, ertasiga qiladigan ishlarning rejasini tuzadi. Xo'jalikning o'n gektarlik yong'oqzori uning qaramog'ida. Ertadan kechgacha o'sha yoqda bo'ladi. Kechqurunlari o'rtoqlari olib ketishadi yo choxonaga chiqadi. Uch kundan beri esa hech qayoqqa bormaydi, faqat uyda. Qishloq kengashining raisi kelib ketgandan beri shunday bo'lib qoldi.

Gap shundaki, G'ulomqodir otaning uyi buziladigan bo'ldi. Qumariq bilan Qorasuv qishloqlari birlashib, o'rtadan katta ko'cha o'tar ekan. Ko'cha shunday G'ulomqodir otaning uyini kesib chiqarkan. Ota uying buzilishiga qarshi emasdi. Qishloq obod bo'lsa, katta-katta ko'chalar tushsa, kim qarshilik qiladi?

Buning ustiga hukumat yo'lning ustiga, qishloq markaziga uy qurib bersa! G'ulomqodir ota qishloq kengashining raisiga hech narsa demadi. Faqat ma'qul deganday boshini engashtirib soqolini tutamlab qo'ydi. Lekin yolg'iz qoldi-yu, bir narsa yuragini chim-chilab ketdi. Mevalarni nima qiladi? Shunday tashlab ketaveradimi? O'n tup olma, o'n tup gilos, o'rik, shaftolilar nima bo'ladi? YONG'oq-chi, yong'oqni nima qiladi?

Kun qizib ketgan saraton paytlari terak bo'yи keladigan shu boboyong'oqning ostidagi supada u dam olardi. Kuzda esa uchiga yapaloq tunuka qo-qilgan xoda bilan qoqib, neverasining o'rtoqlariga bir etak-bir etak ulashib chiqardi. Qishloqda shu yon-



g'oqqa suq bilan qaramagan odam yo'q edi. Qulochga sig'maydigan tanasi, bo'yi, hosilining ta'rifi yon-atrofdagi qishloqlarda ham doston bo'lib ketgan edi. Hammadan ham uning tarixi qiziq edi.

G'ulomqodir ota kurash yillari eskadronga komandirlik qilgan. Hovlisidagi boboyong'oqni shu yillari o'tqazgan.

Bir kuni u g'anim odamlarini quvib, o'z qishlog'i-dan o'tib ketayotganda, ko'cha labida qonga bo'yalib yotgan cholni ko'rib qoladi. Shartta otini to'xtatib tushadi-da, uning yoniga boradi. Cholning aft-basharasini tanib bo'lmasdi. Hammayog'i qon, loy. Bir ko'zi oqib tushgan. Aftidan, otning dumiga bog'lab sudrashganga o'xshaydi. Qo'lida esa ingichka bir tayoqcha bor edi. Xuddi bir qimmatbaho buyumday mahkam changallab olibdi.

G'ulomqodir ota uzoq tikilib turib uni taniydi. Bu odam qishloq mutavallisi Saidazim dehqon edi. Qo'lidagi tayoqcha esa, endigina nish urgan yong'oq ko'chati edi.

G'ulomqodir ota ikki yigitga dehqonning jonsiz murdasini topshirib, uning qo'lidan ko'chatni sekingina bo'shatib oladi-da, o'zi bilan olib ketadi. Jangdan keyin, g'animlar o't qo'yib ketgan uyiga tushib, hovlining o'rtasiga o'tqazib qo'yadi.

Boboyong'oqning tarixi ana shunday. Xo'jalikning yong'oqzori ham, asosan, shu yong'oqning urug'idan.

Mana shunday gaplarning sababchisi boboyon-g'oq endi qirqib tashlanadi. O'rniga ko'cha tushadi.

G'ulomqodir ota yer ostidan unga qarab qo'ydi. Yong'oqning butun hovliga soya tashlab turgan yapaloq barglari kechki shamoldan xuddi quroqning qo'shippiragiday yoqimli shitirlardi. G'ulomqodir ota anchagacha shu ovozga mahliyo bo'lib o'tirdi. Ubu ovozni kunda eshitsa ham, qulok solib to'ymasdi.



Ko'm-ko'k, nimrang sarg'ish barglar kunda ingichka ohang kashf etib shitirlardi.

Ba'zida ular otaga yoshlagini, ko'cha changitib ot chopgan, qilich o'ynatib yurgan navqiron yigitlik yillarini eslatib yuborardi. Ba'zida esa, uning hozirgi tinch, sokin hayotini ko'z oldiga keltirib, mayin shabadada ohanrabo «sayqal»dek tebranardi. Bunday paytlarda G'ulomqodir ota o'zining ancha keksayib qolganini ham, ilgarigi quvvati yo'qligini ham unutardi. Yirik qoramtil qo'llaridagi hisobsiz chiziqlarga tikilib, ko'ngli to'lishardi-da, «ha, hali ko'p ishga yaraysan, chol», deb qo'yardi.

Qosh qoraya boshladi. Shabada sovidi. G'ulomqodir ota hamon joyidan qimirlamasdi. Yong'oqning ayvon tarnoviga cho'zilib kelgan ingichka shoxidan ikkita chumchuq «pir» etib yerga tushdi. Chiq-chiriqlab o'choq yonidagi qum uyumiga yaqinlashdi. U yoqbu yoqqa bir-ikki qarab olib, hafsala bilan cho'mila boshladi.

«Yomg'ir yog'adi, – dedi ichida ota buni ko'rib. – Cho'milishini qara, suv ko'rмаган odamga o'xshaydi-ya!»

Bitta chumchuq qanotlarini yozib sakray boshladi. Ikkinchisi uzala tushib yotib oldi.

«Bozorga borish kerak, – xayolidan o'tkazdi G'ulomqodir ota. – Aytganday, bugun kun nima o'zi? Jumami, shanbami?»

U qishloq kengashining raisi kelgan tunni esladi. Seshanbada kelgan edi. Demak, bugun juma. Ertaga bozorga tushsa bo'lар ekan.

– Kelmasa bo'lardi shu hafta, – dedi ovozini chiqarib.

Shunday dedi-yu, o'zining ovozidan o'zi cho'chib ketdi. Atrofga alanglab qarab chiqdi. Hovli jimjit. Faqat ariqda bir baqa zavq bilan qurillardi.



– Tavba, o'zimdan o'zim cho'chiydigan bo'b qopmanmi? – ota ranjib gapirdi. Ilgari bunaqa odatim yo'q edi, shekilli. Ha... kelmasa bo'lardi. Mamadali tushmagur juda ziyrak. Meni ko'rib ancha o'ksinadi. Yaxshisi, o'zim borib kela qolay. Hali kun uzoq.

G'ulomqodir ota shunday deb, o'rnidan turdi, hovliga bir-ikki razm solib, yong'oqning tagiga bordi, birpas tikilib turdi-da, o'zining bo'ynidek to'r bog'lab ketgan tanasiga shapillatib urib qo'ydi.

– Ha, jonivor, qarimaysan-a, qarimaysan, iliging baquvvat. Mayli, yashab qol. Nеча kunliging bor ekan hali.

Allaqayerda chigirtka chirilladi, qurbaqaning qurquri avjiga chiqdi. Quyosh bo'zarib, paxsa devorning orqasiga berkindi. Shamol yong'oqqa birdan yopirilib, allaqayerdan piyozdog'ning hidini olib kelib dimoqqa urdi.

– Shunaqa, oshna. Nеча kunliging qoldi, bilmaysan.

G'ulomqodir ota og'ir xo'rsinib, eshik tomon yurdi. Internatga yetganda o'zidan o'zi to'xtab qoldi.

«Nima qilaman kirib, bezovta qilib? – dedi ichida. – Nahotki tushunmasa, xabari bor-ku!»

Shu fikr o'ziga ma'qul tushdi shekilli, orqasiga qaytdi. Qishloq markaziga yetganda choyxonada chiroq ko'rindi. Ota bunga e'tibor bermadi, bitta-bitta qadam tashlab, uyi tomonga yo'l oldi...

Ertalab, hali xo'roz qichqirmsandan o'rnidan turganda, ko'k betini bulut qoplagan, hatto yomg'ir birikki tomchilagan ham edi. Ota hovliga tushib ariq labida yuvindi-da, samovarga o't tashlab yubordi.

– Mayli, yog'sin, mevalarning tanasi yayraydi. Yo to'g'rimasmi?

U endi o'zi bilan o'zi ovoz chiqarib gaplashishga ko'nikib qolgan edi.

– To'g'ri. Suv bo'ladi-yu, ziyon qiladimi? Hali saratonga erta. Endi o'rik dumbul bo'ldi. Yong'oq-chi, yong'oq hali shundoq sut.

G'ulomqodir ota shunday dedi-yu, ichini allanarsa timdalab ketganday bo'ldi. Samovarning yonida turib, o'ylab ketdi.

– Chakki bo'ldi, chakki. Uvol ketadi.

U oppoq yaktagi yomg'irdan ivib ketayotganiga ham, karnayi ag'darilib, samovar o'chib qolganiga ham parvo qilmasdi. Ko'zları olmadan o'rikka, olchadan shaftoliga o'tib, beixtiyor yong'oqqa tushardi. Nazarida yong'oq qushxonaning hidini sezib, bo'g'ilib-bo'g'ilib ma'ragan sigirday yig'lardi. Yomg'irning yong'oq barglarini tebratib, bir ohangda shitirlatishi yana nimani eslatishi mumkin?

G'ulomqodir ota seskanib ketdi.

– Yo tavba, bu nima ko'rgilik o'zi? Bunchalik bo'sh emasdim-ku!..

Shu payt kimdir uni chaqirib qoldi. Ota o'ziga kelib, eshik tomon yurdi. Abdujalil aka bilan qishloq kengashining raisi ekan.

– Tuzukmisiz? Kecha choyxonada ko'rinnmadin-giz? – dedi Abdujalil aka unga qo'l uzatib. – Yangiyo'ldan Sayfi qiziq kelgan ekan, yarim kechagacha hangomalashib o'tirdik. Yo tob yo'qmi?

– Yo'q, otdayman. – G'ulomqodir ota bazo'r jilmayib gapirdi. – Qani, ichkariga.

– Xo'sh, bu yangi uyga qachon ko'chasiz? – so'radi qishloq kengashining raisi, ayvonga ko'tarilishganda. – Yo uy yoqmadimi?

– Nega? Uy yaxshi. Qachon desangiz o'taveramiz. Ikki kishiga bundan ortiq yana nima kerak?

G'ulomqodir ota kulib qo'ydi.

- Unday bo'lsa, hali odam yuboraylik. Kerakli narsalarni ko'chirishsin.
- Daraxtlarni nima qilamiz? - gapga aralashdi Abdujalil aka. - ularni ko'chirib bo'lmaydi-ku!
- Qirqiladi-da, - cholning o'rniqa javob qildi rais. - Bu axir problemamas-ku.
- Nima?! - so'radi G'ulomqodir ota uning so'nggi so'ziga tushunmasdan.
- Bu qiyin masala emas, deyapman. Bahona bilan qishga o'tinli bo'lib qolasiz.
- G'ulomqodir ota seskanib ketdi. Endigina yozmoqchi bo'lib turgan dasturxoni qo'lida taxlog'ligicha qoldi. U nima deyishini bilmasdi. Rangi o'chib, lablari titrardi.
  - Yomg'ir ham tindi, - dedi Abdujalil aka o'rnidan qo'zg'alib. - Bu yil meva yili bo'ldi-da, o'ziyam.
  - Ota indamadi.
  - Hay, biz turdik. Hali ko'risharmiz-a, bog'da ota?
  - Abdujalil aka shunday dedi-da, o'rnidan turib, eshikka yurdi. Ketidan qishloq kengashining raisi turdi.
  - Odamlar kelishganda ishni daraxtlardan boshlay qolishsin. Bu yong'oqni ag'darish ham hazil emas.
  - Yo'q.
  - Labbay?
  - Yo'q, odam kerakmas. - G'ulomqodir ota qishloq kengashining raisiga eshikni ko'rsatib gapirdi. - Marhamat. O'zim qirqib beraman.
  - Yo'g'-e, qo'ying...
  - Qo'yungi bor ekanmi, o'zim qirqaman. Vassalom. O'tinni to'g'ri siznikiga olib borib tashlayman!
  - Yo'g'-e, to'xtang. Nima deyapsiz o'zi? Abdujalil aka, bu yoqqa qarang! - Biroq Abdujalil aka qaramadi.



U allaqachon ketib qolgan edi. – Axir men sizning foydangizni o'ylab gapiryapman. Tushuning.

– Tushundim, tushundim. Xayr.

G'ulomqodir ota eshikni shartta yopib, orqasiga qaytdi. Uning butun vujudi titrardi.

– O'tin emish! O'zingni o'tin qilish kerak!

U yanada achchiqroq bir gapni aytmoqchi bo'lib, og'iz juftlagandi-yu, lekin tiliga hech narsa kelmadi.

– Tavba! – dedi alam bilan, biroq bu so'z qishloq kengashining raisiga qaratilganmidi, o'zigami, bilib bo'lmasdi.

Ayvonga kelib, ustunning yonida turgan bir kosa yaxna choyni oxirigacha simirdi-da, mo'ylovini yengi bilan artib, yong'oqqa qarab qo'ydi. Keyin tez-tez yurib, ko'chaga chiqdi.

Ko'cha jimjit. Hech zog' yo'q. Faqat ishtonchan bir bola yo'l chetiga o'tirib olib, «hammompish» o'ynardi. G'ulomqodir otani ko'rib, bola og'zini katta ochib iljaydi. Uzoqdan, yong'oqzor tomonidan tom baravar beda ortgan ho'kiz arava ko'rindi. Ota shu tomonga yurdi. Bugun shanbaligi, bozorga borishi kerakligi xayolidan ko'tarilgan edi.

Kechqurun u uyga qaytganda chehrasi ancha ochiq edi. «Bog' aro qo'ysam qadam»ni yarim ovozda xirgoyi qilib, go'sht to'g'radi. O'choqqa olov yoqa turib, nimadir esiga tushib ketdi-da, ovozini baralla qo'yib kului.

– Obbo Abdujalil tushmagur-ey!! Yong'oq jinnisiz, deydi-ya. O'zing-chi, xo'sh, o'zing nima jinnisan? Uloq chopaman deb, ikkita to'riqni uch yildan beri boqtirib yotganingni bilmaymanmi? Har bir kishi bir narsaga ixlosmand bo'ladi. Men yong'oqni yaxshi ko'raman. Bunga rahmatli Saidazim aka, mana shu yong'oq sababchi bo'lgan.



G'ulomqodir ota devdek qulochini yozib turgan boboyong'oqqa qaradi-yu, darrov ko'zini oldi. Nimagadir ikki qulog'ining uchi qizarib ketganini sezdi.

- Ha, mana shu yong'oq sababchi bo'lgan...

U shundan keyin qanday qilib ovqat pishirganini bilmadi. Pishganda esa, tomog'idan o'tmadi.

- Mamadali bo'lganda hozir yaxshi bo'lardi, - dedi xo'rsinib karavotga cho'zilar ekan. -- Ikkalamiz gaplashib yotardik. Nega endi mening hovlimdan ko'cha o'tarkan? Juda hozir zarurmidi, shu?! O'tin mish-a, o'tin!

Ota hovliga nazar tashladi. Qop-qorong'i tun, hovlida hech narsa ko'rinnmasdi. Devorda qandaydir cho'zinchoq sharpalar suzib yurardi. Bu barglarning soyasi, yong'oq barglarining soyasi. Ota ularga tikilib-tikilib, ko'zi ilinganini sezmay qoldi.

Ertalab nimadandir cho'chib, barvaqt uyg'ondi. Boshi g'uvillardi. Anchagacha karavotda oyoqlarini osiltirib o'tirdi. Allanarsalarni o'zicha shivirladi. Keyin, odaticha, ariq labida yuvinib, hujraga kirdi. Bu yerda uning duradgorlik asboblari turardi. Asboblar hujra devorlariga qator qilib, bir tekisda qoqilgan mixlarga osig'liq edi.

G'ulomqodir ota qo'larra bilan teshani olib, yong'oqning tagiga keldi. Yuragi duk-duk ura boshladni. Havo salqin, shabada esib turgan bo'lsa ham, peshonasida ter yiltiradi.

- Mamadali kelguncha bir yoqlik qilib qo'yay. Tag'in buvam bitta daraxtniyam kesolmadi, bo'sh ekan, demasin.

U shunday dedi-yu, arrani yong'oqning metin bo'-lib ketgan tanasiga soldi, biroq tortolmadi, qo'li titrab, arra tushib ketdi.



G'ulomqodir ota ichida sevinib qo'yanini payqadi.

- Yo'q, lozim bo'lgandan keyin kesish kerak. Bu nima degan gap o'zi? Har kim o'zi ekkan narsani o'zi kesolmasa, qayerga ko'cha tushadi-yu, qayerga imorat quriladi. Qorasuvgayam hozir yong'oq zarurmi, ko'cha zarurmi? Albatta, ko'cha. Kesish kerak.

U qo'liga yana arrani oldi.

- Obbo chol-ey, muncha ivirsiysan? Solsang-chi, sol. Nega qo'ling titraydi? Sol!

Shu payt qanday kuch bilan arrani uloqtirib yuborganini o'zi sezmay qoldi. G'ulomqodir ota hansirab u yoq-bu yoqqa alanglab qaradi-da, uydan chiqib ketdi. To'g'ri idoraga bordi. Abdujalil aka qishloq kengashining raisi bilan qandaydir qog'ozni ko'rib o'tirardi.

G'ulomqodir otaga ko'zi tushib, qishloq kengashining raisi sekingina:

- Keling, - dedi-yu, qo'l uzatishini ham, uzatmasligini ham bilmay, qizarib ketdi.

- Abdujalil! - dedi ota salomlashishni unutib. - Mashina ber, ko'chaman.

Oradan yarim soat o'tar-o'tmas, besh-olti kishi otaning yuklarini mashinaga joylab, yangi uyga olib ketishdi. Huvillagan hovlida otaning o'zi yolg'iz qoldi. U qandaydir gunohkor nazar bilan boboyong'oqqa tikilib, ayvonning burchagida o'tirardi. Shu alpozda u qancha o'tirdi, bilmaydi.

Bir mahal oldida jilmayib turgan nevarasini ko'rdu, sevinchdanmi, yo xo'rligi kelganidanmi, ko'zlarida yosh yiltirab ketdi.

- Keldingizmi, o'g'lim, - dedi u yuzini yaktagi ichiga yashirib. - Sizni kutib o'tiribman. Oshni endi yangi uyda qilamiz-da, a? Ko'rganmisiz?



- Ancha bo'lgan, - dedi Mamadali go'yo siri ochilganday uyalinqirab. - Abdujalil aka ko'rsatganlar. Shunaqa ham chiroylik!..

- Qani, boshlang bo'lmasa.

Mamadalining gapi to'g'ri chiqdi. Yangi uy haqiqatan ham chiroyli edi. Katta hovli, to'rt xonali uyning oldida baland ayvon.

G'ulomqodir ota yangi o'choqda osh damlar ekan, eski uy tomondan buldozerning ovozini eshitib, ko'ngli yana buzildi, ruhi tushib ketdi. Ammo darrov o'zini tutib, nevarasiga sezdirmaslik uchun o'zi sevgan «Bog' aro qo'ysam qadam»ni xirgoysi qila boshladi. Buldozerning ovozi esa tun bo'yini tinmadi.

Oradan bir hafta o'tgach, Mamadali buvasini yangi ko'chaga boshlab bordi. G'ulomqodir ota o'sha tomonga bormaslikni qanchalik istamasin, nevarasining ra'yini qaytarolmadi. Ko'chani birpasda o'tkazishibdi, hatto tosh ham yotqizishibdi.

Uyga yaqinlashar ekan, yuragi uvusha boshladi. Ana, hov anavi joyda ayvon bor edi. Endi yo'q, tep-tegis bo'lib ketibdi. Ariqdan ham asar qolmabdi. Iy-ye, yangi ariq qazilibdimi?

G'ulomqodir ota ariq ketgan tomonga razm soldi. Shu payt... Shu payt qay ko'z bilan ko'rsinki, ko'chaning labida bir daraxt, o'ziga tanish bahaybat daraxt savlat to'kib turardi. Tagida favorang skameyka. Nega ilgari ko'rmadi. Bu axir yong'oq-ku! O'sha o'zi o'tqazgan boboyong'oq!

G'ulomqodir ota nima qilishini, nima deyishini bilmasdi. Ko'zlarida yosh yiltirardi. U endi buni yashirmsasdi. Mamadalini mahkam bag'rige bosib:

- Rahmat, rahmat, - derdi.

Mamadali bu so'zlar kimlarga qaratilganini yaxshi bilardi.

## MUNDARIJA

Ko'k daftarning siri .....	3
Mening o'g'il bola jiyanim.....	16
Garov .....	43
Hotamtoy.....	58
Mehmondorchilik .....	65
Qaytar dunyo .....	73
Yer yonganda.....	94
Oyning oltin o'rog'i .....	131
Qiyomat qarz .....	169
Boboyong'oq .....	178

## O‘lmas Umarbekov

U 47 Oyning oltin o‘rog‘i / O‘. Umarbekov; To‘plab, nashrga tayyorlovchi: L. Igamova. 3-nashri. – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2020. – 192 b. (Hikoyalar xazinasi).

ISBN 978-9943-28-386-2

UO‘K 821.512.133-3

KBK 84(5O‘)6

*Adabiy-badiiy nashr*

O‘LMAS UMARBEKOV

## OYNING OLTIN O‘ROG‘I

*Hikoyalar*

Uchinchilashri

Muharrir	<i>L. Igamova</i>
Rassom	<i>Sh. Xo‘jayev</i>
Rassom-dizayner	<i>D. Mulla-Axunov</i>
Tehnik muharrir	<i>L. Xijova</i>
Kichik muharrir	<i>M. Salimova</i>
Musahhih	<i>D. Husanova</i>
Kompyuterda tayyorlovchi	<i>N. Ahmedova</i>

Nashriyot litsenziyasi AI № 158. 14.08.2009  
Bosishga 2020-yil 3-noyabrda ruxsat etildi. Bichimi 80x100<sup>1/32</sup>.  
«Gazetnaya puxlaya» qog‘ozsi. «Cambria» garniturasida ofset usulida  
bosildi. Shartli bosma tabog‘i 8,88. Nashr tabog‘i 8,67.  
Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 19-604.

«O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.  
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: [uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz](mailto:uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz)  
[www.iptd-uzbekistan.uz](http://www.iptd-uzbekistan.uz)

O'lmas Umarbekov  
*Oyning*  
*oltin o'rog'i*

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-28-386-2



9 789943 283862